101. Sam's monkey is very funny.
102. Look out of the window!
103. Say this rhyme once more!
104. What else can you draw?
105. Who else will go with you?
106. We live in Uzbekistan.
107. Count from one to thirty!
108. Leave my room, please!
109. One woman sees one sheep. Two women see many sheep.
110. Where is the money for bread? It is on the table, Polly.
96. Palma janubda o'sadi.
97. Men sendan xafaman (xafa emasman).
98. Aytishlaricha, fil dunyodagi eng katta hayvon ekan.
99. U shunday yaxshi o'gil bola-ki.
100. Xonangizning derazasi eshikdan ko'ra kattaroq.
101. Semning maymuni juda alomat.
102. Oynadan qara(ng)!
103. Bu she'rmi yana bir marta ayt!
104. Yana nimalarni chizishni bilasan?
105. Siz bilan birga yana kim boradi?
106. Biz O'zbekistonda yashaymiz.
107. 1 dan 30 gacha sanang!
108. Iltimos, xonamdan chiqib ket!
109. Bitta ayol bitta qo'yni ko'radi. Ikkita ayol ko'p qo'yni ko'radi.
110. Nonning puli qayerda? Ular stolning ustida, Polli.

**THE OLD WOMAN
AND HER PIG**

An old woman was sweeping
[ˈswi:pɪŋ]
her house, and she found
[faʊnd]

a crooked little sixpence.

[ˈkru:kɪd] [ˈsɪkspens]

“What,” said she, “shall I
[sed]

do with this little sixpence?

I will go to the market and
[ˈmɑ:kɪt]

buy a little pig.”

[baɪ]

**KAMPIR VA UNING
CHO‘CHQACHASI**

Kampir uyini supurayotgan
paytida kichkinagina, egilgan
chaqa topib olibdi.

“Bu chaqani nima qilsam
ekan?” – debdi u.

Bozorga borib, cho‘chqacha
sotib olaman”.



As she was coming home,
she came to a stile; the piggy
[keɪm] [stɑɪl]
would not go over the stile.

Uyga qaytib kelayotib zina-
poyaga yaqinlashganda, cho'ch-
qacha to'siqdan oshib o'tishni
xohlamapti.



She went a little farther and
[went] ['fɑ:ðə]
she met a dog. So she said to the
[met]
dog: "Dog, Dog, bite Pig." But
the dog would not.

Kampir biroz yurgandan
so'ng kuchukni uchratibdi. U
kuchukka: "Kuchuk, Kuchuk,
Cho'chqachani tishla", – debdi.
Lekin kuchuk rozi bo'lmabdi.



So she went a little farther and she met a stick.

So she said: "Stick, Stick, beat the Dog." But the stick would not.

U yana ozroq yurib tayoqni uchratibdi.

U tayoqqa: "Tayoq, tayoq, Kuchukni ur", - debdi. Lekin tayoq unamabdi.



So she went a little farther and she met a fire.

[ˈfaɪə]

So she said: "Fire, Fire, burn the Stick." But the fire would not.

U yana ozroq yurib olovni uchratibdi.

U olovga: "Olov, Olov, Tayoqni yondir", debdi. Lekin olov rozi boʻlmabdi.



So she went a little farther
and she met some water.

[wɔ:tə]

So she said: "Water, Water,
quench the Fire." But the water
[kwent]
would not.

U yana ozroq yurib suvni
uchratibdi.

U suvga: "Suv, Suv, Olovni
o'chir", debdi. Lekin suv rozi
bo'lmabdi.



So she went a little farther
and she met an ox.

So she said: "Ox, Ox, drink
the Water." But the ox would
not.

U yana ozroq yurib buqani
uchratibdi.

U buqaga: "Buqa, Buqa,
Suvni ichib qo'y", debdi. Lekin
buqa rozi bo'lmabdi.



So she went a little farther
and she met a butcher.

[ˈbutʃə]

So she said: "Butcher, Butcher,
kill the Ox." But the butcher
would not.

U yana ozroq yurib qassobni
uchratibdi.

U qassobga: "Qassob, Qas-
sob, Buqani so'y", debdi. Lekin
qassob rozi bo'lmabdi.



So she went a little farther
and she met a rope.

[roup]

So she said: "Rope, Rope, hang
[hæŋ]
the Butcher." But the rope would
not.

U yana ozroq yuribdi va ar-
qonni uchratibdi.

U arqonga: "Arqon, Arqon,
Qassobni bog'la", debdi. Lekin
arqon rozi bo'lmabdi.



So she went a little farther and she met a rat.

So she said: "Rat, Rat, gnaw the Rope." But the rat would not.

U yana ozroq yurib kalamushni uchratibdi.

U kalamushga: "Kalamush, Kalamush, Arqonni kemir", debdi. Lekin kalamush rozi bo'lmabdi.



Then she met a cat. So she said: "Cat, Cat, kill the Rat." The cat said to her: "If you go to yonder cow and fetch me a saucer of milk, I will kill the rat."

Keyin u mushukni uchratib qolibdi. Va debdi: "Mushuk, Mushuk, Kalamushni o'ldir." Mushuk unga: "Agar sen anavi sigirning yoniga borib, menga bir taqsimcha sut olib kelsang, men kalamushni o'ldiraman", debdi.



So away the old woman went
[ə'weɪ]
to the cow and said: "Cow,
Cow, give me a saucer of milk."

But the cow said to her: "If
you go to yonder haymakers and
[ˈheɪmeɪkəz]
fetch me a wisp of hay I'll give
[wɪsp] [heɪ]
you some milk."

So away the old woman went
to the haymakers and said: "Hay-
makers, Haymakers, give me a
wisp of hay." But the haymakers
said to her: "If you go to yonder
stream and fetch us a bucket of
[stri:m] [ˈbʌkɪt]
water, we will give you the hay."

So away the old woman
went, but when she got to the
stream, she found the bucket full
[ˈfʊl
of holes.
əv 'houlz]

So she covered the bottom
[ˈkʌvəd] [ˈbɒtəm]
with pebbles and then filled
[ˈpeblz] [fɪld]
the bucket with water.

And so away she went back
with it to the haymakers, and
they gave her a wisp of hay.
[geɪv]

Kampir sigirning yoniga
borib: "Sigir, Sigir menga bir
taqsimcha sut ber", debdi.

Ammo sigir unga: "Agar sen
anavi o'roqchilardan menga bir
quchoq pichan olib kelsang, men
senga sut beraman", debdi.

Kampir o'roqchilarning ol-
diga borib: "O'roqchilar, O'roq-
chilar, menga bir quchoq pi-
chan beringlar", debdi. Ammo
o'roqchilar: "Agar sen anavi
daryoga borib, bizga bir chelak
suv olib kelib bersang, biz senga
pichan beramiz", deyishibdi.

Shunday qilib kampir ketib-
di va daryoga yetib borgandan
so'ng qarasa, chelakning te-
shiklari ko'p ekan.

Shundan keyin u chelak
teshiklarini shag'al toshlar bi-
lan berkitib, chelakka suv
to'ldiribdi.

So'ngra u o'roqchilarning
oldiga chelak bilan qaytibdi va
o'roqchilar unga bir quchoq
pichan berishibdi.

The old woman thanked
[θæŋkt]
them all gratefully.
[ˈɡreɪtful]

Kampir ularga chin ko'n-
gildan rahmat aytibdi.

She carried the wisp of hay
[ˈkæriɪd]
back to the cow and placed it
[pleɪst]
on the ground.
[graʊnd]

U bir quchoq pichanni sigir-
ga olib borib yerga tashlabdi.

As soon as the cow had eaten
[hæd'i:tɪn]
the hay, she gave the old woman
the milk, and away she went with
the saucer of milk to the cat.

Sigir pichanni yeyishi bilan
kampirga sut beribdi, kampir bir
taqsimcha sutni olib mushukning
oldiga yuguribdi.

As soon as the cat lapped
[læpt]
up the milk...

Mushuk sutni chapillatib
yalab bo'lgani zahoti...

The cat began to kill the rat;
[bɪ'gæɪn]
the rat began to gnaw the rope;

Mushuk kalamushni o'ldi-
rishni boshlabdi; kalamush ar-
qonni kemirishni boshlabdi;




the rope began to hang the butcher; the butcher began to kill the ox; the ox began to drink the water; the water began to quench the fire; the fire began to burn the stick; the stick began to beat the dog; the dog began to bite the pig;

arqon qassobni bog'la hni boshlabdi; qassob buqani so'yishni boshlabdi; buqa esa suvni ichishni boshlabdi; suv olovni o'chirishni; olov tayoqni yondirishni boshlabdi; tayoq esa kuchukni urishni, kuchuk esa cho'chqachani tishlashni boshlabdi;



the little pig in a fright
[frait]
jumped over the stile.
[d3ʌmpɪt]

kichkina cho'chqacha esa qo'rq-qanidan to'siqdan sakrab o'tib ketibdi.



And so the old woman got
home that night.

Kampir o'sha oqshom uyiga
shunday qilib yetib kelgan ekan.



**THE LITTLE RED HEN
AND THE GRAIN
OF WHEAT**
[wi:t]

Once upon a time there was
[ˈwʌns əˈpɒn əˈtaɪm]
a little red hen who lived in a
big farm-yard. She had three
[ˈfɑ:m jɑ:d] [hæd]
fluffy yellow chicks.
[ˈflʌfi]

**KICHKINA MALLA TOVUQ
VA BUG'DOY DONASI**

Qadim zamonda bir katta
qishloq fermasida kichkina malla
tovuq bo'lgan ekan.

Uning uchta sap-sariq pax-
moq jo'jachalari bor ekan.



One morning as they were busily scratching about the yard, [ˈbɪzɪli] [ˈskrætʃɪŋ] looking for something to eat, the [ˈsɪmθɪŋ] little red hen found a grain of [faʊnd] wheat.

Excitedly she called to the cat, [ɪkˈsaɪtɪdli] [kɔːld] and the duck, and the pig, who lived in the farm-yard with her.

“Look!” she said. “See what I have found. Who will help me to plant this grain of wheat?”



“Not I,” said the duck. “I must go down to the pond for a swim.”

“Not I,” said the cat. “I have some visitors coming in a few [ˈvɪzɪtəz] minutes.”

Bir kuni ertalab, kichkina malla tovuq yeyish uchun narsa qidirib, yerni titayotgan paytida bug‘doy donasini topib olibdi.

U hayajonga tushib, o‘zi bilan bir qishloq fermasida yashaydigan mushuk, o‘rdak va cho‘chqani chaqiribdi.

“Qaranglar!” – debdi u. “Ko‘ringlar men nima topib oldim. Kim menga bu bug‘doyni ekishga yordam beradi?”

“Men emas”, – debdi o‘rdak. “Men hovuzga borishim va suzishim kerak”.

“Men emas”, – debdi mushuk. “Menikiga bir necha daqiqadan so‘ng mehmonlar keliishi kerak”.

“Not I,” said the pig. “I don’t know how to do anything like that.”

They went away from the
[went]
little red hen as fast as they
could and stayed over at the
[kud] [steɪd]
other end of the farm-yard where
they could be idle.
[aɪdl]



The little red hen got her
hoe, her rake and her shovel.
[hou] [reɪk] [ʃʌvl]

“Men emas”, – debdi cho‘ch-qacha. “Men bunga o‘xshash narsalarni qanday qilinishini bilmayman”.

Shunday qilib ular malla tovuqdan iloji boricha uzoqlashib, fermerning narigi tarafiga bekorchilik qilish uchun o‘tib ketishibdi.

Malla tovuqcha o‘zining ketmonchasini, xaskashini va belkuragini olibdi.



The three fluffy yellow chicks helped their mother, and soon they had dug a little hole in which to put the wheat. They covered it

[ˈkʌvəd]

lightly with earth. After few days,

[ə:θ]

[fju:]

several little green shoots appear

[ˈsevrəl]

[ju:ts]

[əˈpiəd]

red.

The wheat grew and grew.

“Now, who will water the wheat?” asked the little red hen one day.

Uchta paxmoq sap-sariq jo‘jacha esa o‘z onalariga yordam berishibdi, va tez orada bug‘doy donini ekish uchun kichkina chuqurcha kovlashibdi. Ular bug‘doyning ustini tuproq bilan salgina yopib qo‘yishibdi. Bir necha kun o‘tgandan keyin, kichkinagina yashil maysalar paydo bo‘libdi.

Bug‘doy kundan kunga o‘sibdi.

“Endi kim bug‘doyni sug‘oradi?” – so‘rabdi tovuqcha bir kuni.



“Not I,” said the duck. “I have some other things to do just

[ðɪŋz]

now.”

“Not I,” said the cat. “I have to take a little nap.”

“Not I,” said the pig. “I have to go and refresh myself in the shed.”

“Men emas”, – debdi o‘rdak. “Endigina boshqa ishlarimni qilmoqchi bo‘lib turuvdim”.

“Men emas”, – debdi mushuk. “Men ozgina mizg‘ib olishim kerak”.

“Men emas”, – debdi cho‘chqa. “Men og‘ilxonada biroz dam olishim kerak”.

"Then I will," said the little red hen, and she did.

After a while some weeds appeared among the stalks of wheat.

"Unday bo'lsa men sug'oraman", – debdi tovuqcha va sug'oribdi.

Biroz vaqt o'tgach, bug'doy poyalari orasida begona o'tlar paydo bo'libdi.



One day the little red hen asked:

"Now, who is going to weed this wheat?"

"Not I," said the duck. "That sort of work does not agree with me."

"Not I," said the cat. "I would not be able to tell the weeds from the wheat."

"Not I," said the pig. "I have other things on my mind besides that wheat."

"Very well, I will then," said the little red hen, and she did.

Bir kuni kichkina malla tovuq so'rabdi: "Endi, kim bu bug'doyini o'taydi?"

"Men emas", – debdi o'rdak. "Bu ishlar menga to'g'ri kelmaydi".

"Men emas", – debdi mushuk. "Men begona o'tlarni bug'doydan farqlay olmayman".

"Men emas", – debdi cho'chqa. "Mening bundan boshqa ishlarim ham bor".

"Juda yaxshi, men o'tayman unda", – debdi kichkina malla tovuq va o'tabdi.

After a while the wheat began
[bɪ'gæɪn]

to ripen.

[ˈraɪpən]

“What fine wheat we have,”
said the cat, the duck, and the
pig.

“Yes, indeed, it is time to
reap the wheat,” said the little
red hen.

“Who would like to reap it
for us?”

Biroz vaqt o'tgandan keyin
bug'doy yetila boshlabdi.

“Qanday ajoyib bug'doyimiz
bor,” – deyishibdi mushuk, o'r-
dak va cho'chqa.

“Ha, haqiqatan ham, bug'-
doyni o'rib olish vaqti keldi”, –
debdi kichkina malla tovuq.

“Kim buni biz uchun o'rib
berishni istaydi?”



“Oh, not I,” said the cat.

“Not I,” said the pig.

“Not I,” said the duck.

“Very well, then I will,” said
the little red hen.

She cut the heads off the
grain very carefully and put them
in a bag.

“Voy, men emas”, – debdi
mushuk.

“Men emas”, – debdi cho'chqa.

“Men emas”, – debdi o'rdak.

“Juda yaxshi, unday bo'lsa
men qilaman”, – debdi kichkina
malla tovuq.

U g'alla boshloqlarini juda
ehtiyotkorlik bilan qirqib olibdi
va ularni qopqa solibdi.

Then she called to the cat,
the duck, and the pig.

"Now, who will take this
wheat to the mill to be ground
into flour?" she asked.

['flaʊə]

"Not I," said the duck. "You
know I cannot carry such a heavy
load."

['kæɪn] ['hevi]

[loud]

"Not I," said the cat. "The
dust would get into my nose
and make me sneeze."

[sni:z]

"Not I," said the pig. "I do
not know where the mill is."

"Very well, then," said the
little red hen. "Then I will take
it myself."

So the little red hen trudged
off to the mill, and in a few hours
she was back with a sack of fine
flour.

"Now, who is going to make
this flour into bread?" asked the
little red hen.

"Not I," said the duck.

"Not I," said the cat.

"Not I," said the pig.

"I will then," said the little
red hen and she did.

Keyin u mushuk, o'rdak va
cho'chqani chaqiribdi.

"Endi, kim bu bug'doyni
maydalab un qilgani tegirmonga
olib boradi?" – deb so'rabdi.

"Men emas", – debdi o'rdak.
"Bilasizlar-ku axir, men bunday
og'ir yukni ko'tarib borolmay-
man."

"Men emas", – debdi mu-
shuk. "Chang burnimga kirib,
meni aksirishga majbur qiladi".

"Men emas", – debdi cho'ch-
qa. "Men tegirmonning qayerda
ekanligini biimayman".

"Juda yaxshi", – debdi kich-
kina malla tovuq. "Unday bo'lsa
men o'zim olib boraman uni".

Shunday qilib kichkina malla
tovuq tegirmonga qopni ko'tarib
ketibdi va birozdan so'ng bir qop
ajoyib un bilan qaytib kelibdi.

"Xo'sh, kim bu undan xamir
qormoqchi?" – so'rabdi kichkina
malla tovuq.

"Men emas", – debdi o'rdak.


"Men emas", – debdi mushuk.

"Men emas", – debdi cho'chqa.

"Unda men qilaman, – debdi
kichkina malla tovuq va o'zi
xamir qoribdi.

Soon the loaf was ready for
[louf]
the oven.
[ʌvɒ]

Tezda xamir pishirishga
tayyor bo'libdi.



“Now, who is going to bake
[beɪk]
this bread?” asked the little red
hen.

“Not I,” said the duck.

“Not I,” said the cat.

“Not I,” said the pig. “I am
afraid that I should burn it.”
[ə'freɪd] [ʃud] [bɜ:n]

“Very well, then,” said the
little red hen, “I will do it.”

So the loaf of bread was
baked and it was beautiful,
[beɪkt] [ˈbju:tɪfʊl]
golden and crusty.
[ˈgouldən] [ˈkrʌstɪ]

“Xo'sh, endi kim bu nonni
pishiradi?” – so'rabdi kichkina
malla tovuq.

“Men emas”, – debdi o'rdak.

“Men emas”, – debdi mushuk.

“Men emas”, – debdi cho'ch-
qa. “Men uni kuydirib yubo-
rishdan qo'rqaman”.

“Juda yaxshi”, – debdi kich-
kina malla tovuq. “Unda men
qilaman”.

Shunday qilib, non juda ham
chiroyli bo'lib, chetlari qizarib
pishibdi.

The little red hen put it on the kitchen table, and the cat, [ˈkɪtʃm] and the duck, and the pig came into the house and looked at it longingly. [ˈlɔŋɪŋli]

Kichkina malla tovuq nonni oshxona stoliga qo'yibdi, mushuk, o'rdak, cho'chqalar bo'isa uyga kirib kelishibdi va unga havas bilan qarashibdi.



“Well now, who is going to eat this loaf of bread?” asked the little red hen.

“I will,” said the duck quickly.

“I will,” said the cat stepping close.

“I will,” said the pig, pushing his way right to the table.

“Endi, kim bu nonni yemoqchi?” – so'rabdi kichkina malla tovuq.

“Men”, – debdi o'rdak tezlik bilan.

“Men”, – debdi mushuk yaqinlashib.

“Men”, – debdi cho'chqa stolga to'g'ri borib.



They crowded around the
[ˈkraudɪd]
little red hen, each one trying to
get closest to the tempting loaf of
bread, but none of them dared to
touch it.



“Oh, no, you won’t,” said
the little red hen. “I am going to
eat it myself.”

Then she called her little
chicks together, and they ate
[təˈgeðə] [et]
the whole loaf of bread.

[houl]

Not a crumb was left for the
[krʌm]
duck, the cat or the pig.

Ular kichkina malla tovuqni
o‘rab olishibdi, har biri bu ajoyib
nonga yaqin borishga harakat
qilibdi, lekin birortasi ham bunga
jur‘at eta olmabdi.

“Yo‘q, sizlar yemaysizlar,”
-- debdi kichkina malla tovuq.
“Men o‘zim yeyman”.

Keyin u o‘zining jo‘jacha-
larini chaqiribdi va ular birga-
likda nonni yeyishibdi.

O‘rdak, mushuk va cho‘ch-
qaga esa hattoki ushog‘i ham
qolmabdi.

The end – tamom
[ðɪˈend]

II QISM

THE FIRST LESSON

The first of January. Monday.

I speak Uzbek.

Mr. Dale is not Uzbek.

I am Uzbek.

He is English.

I live in Uzbekistan.

He lives in England.



Mr. Dale has a son.

His son's name is Jim.

Jim has a friend. His

friend's name is Sam.

They live not far from

London. Sam is a

big boy. He can read

and write. He goes to



school. He does his lessons after school. Sam goes to the cinema on Sundays. He goes to the cinema with his friends.

Jim is a little boy. He plays with Lily. Lily is Sam's sister. Jim and Lily play in the garden. They run with Roombo. Roombo is Jim's puppy. Sometimes the children play football. Lily has a small black ball.

Jim can run very fast and he can jump high. Lily cannot run well and she cannot jump at all; her legs are too short, her feet are too small. But she can kick the ball. When she kicks the ball, she smiles. She kicks it with her left foot. Jim and Lily are very good friends.



- | | |
|---|---|
| 1. first [fə:st] – birinchi | 8. to jump [dʒʌmp] – sakramoq |
| 2. January [ˈdʒænjʊəri] – yanvar | 9. foot [fʊt] – oyoq |
| 3. Monday [ˈmʌndɪ] – dushanba | feet [fi:t] – oyoqlar |
| 4. London [ˈlʌndən] – London | 10. to kick [kɪk] – tepmoq;
<i>bu yerda: oshirib bermoq</i> |
| 5. to do [du:] – qilmoq | 11. to smile [smaɪl] – jilmaymoq |
| 6. sometimes [ˈsʌmtaɪmz] – ba’zida | 12. left [left] – chap |
| 7. football [ˈfʊtbɔ:l] – futbol | |
| to play football [təˈpleɪ] – futbol o‘ynamoq | |

Topshiriqlar

- | | |
|---|--|
| I. Ko‘chirib oling va og‘zaki tarjima qiling: | II. Yozma tarjima qiling: |
| 1. I speak English. | 1. Janob Deyil Londonda yashaydi. |
| 2. I speak Uzbek. | 2. Dushanba, birinchi yanvar. |
| 3. I live in Uzbekistan. | 3. Ba’zida u darslarini yakshanba kuni qiladi. |
| 4. I can read English books. | 4. Sen futbol o‘ynay olasanmi?
Ha, o‘ynay olaman. |
| 5. They live in London. | 5. Bu bola juda baland sakraydi. |
| 6. They live not far from school. | 6. Lilining oyoqlari kichkina. |
| 7. Lily lives not far from the cinema. | 7. U doimo jilmayib turadi. |
| 8. Jim plays football very well. | 8. Bu qizcha to‘pni chap oyog‘i bilan oshiradi. |
| 9. Sometimes the children play in the garden. | |
| 10. Sometimes they go to the cinema. | |

- | | |
|-------------------------------------|----------------------------------|
| 11. We go to the cinema on Sundays. | 9. Deyil xonim rasm chiza oladi. |
| 12. We can play football. | 10. U ham Londonda yashaydi. |

III. Gaplarni o'qing va tarjima qiling (og'zaki).

Notanish so'zlarni (ular ajratib ko'rsatilgan) lug'atdan toping.

1. Sam and Jim are English boys.
2. They live in England and they are good friends.
3. Mr. Dale is Jim's father.
4. Mrs. Dale is Jim's mother. She has two children.
5. Lily's father is a doctor. Lily has no mother.
6. Mr. Christine is Sam's father. Sam is a big boy. He goes to school. Sam does his lessons after school.
7. Jim has one **girl-friend** and two **boy-friends**.
8. Whose puppy is Roombo? Jim's.
9. Can you kick a ball with your left foot? No, I cannot.
10. When Sam goes to the cinema, he takes Jim with **him**.
11. Monday is the first day of the week.
12. January is the first month of the year.

IV. Gaplarni yod oling.

1. Bring **me** my book! – Menga **mening** kitobimni olib keling!
2. Give **him** his knife! – Unga **uning** pichog'ini bering!
3. Bring **her** her dress! – Unga **uning** ko'ylagini bering!

4. Give **us** our cups! – Bizga **bizning** finjonlari-mizni bering!
5. Leave **them** their toys! – Ularga **ularning** o‘yinchoqlarini qoldiring!

V. **Conversation** [ˌkɒnvəˈseɪʃn] (*Suhbat*).

Learn it by heart [baɪˈhɑːt] (*Buni yod oling*).

Jim: Come here, Lily! Let’s play school!

Lily: I won’t. I can’t write, I’m too little.

Jim: I’ll help you. Where is your pencil?

Lily: I have no pencil. I won’t play school! Let us play football.

Jim: Good. Where is your ball?

Lily: **Here it is!**¹ I’ll kick first. Look how I can kick the ball!

Jim: You kick it with your left foot. You mustn’t do it.

Lily: Why not? It is my ball. I can kick it **as I like**². I won’t play with you.

Jim: You’re a very silly girl. I **know** a rhyme:

Little Lily
Is very silly.

Lily: And I know a rhyme:

You are red as a **carrot**,
You are **dull** as a **parrot**.

Jim: Oh, it is not your rhyme. Whose rhyme is it?

Lily: Sam’s.

Jim: You bad girl, I’ll **give you a good lesson!**³

¹ **Here is it.** – Mana u.

² **as I like** – xuddi men xohlaganimdek

³ **to give a good lesson** – ko‘rsatib qo‘ymoq

I’ll give you a good lesson! – Men senga ko‘rsatib qo‘yaman!

Lily: No, you won't. I can run away very fast, like that! Good-bye, Carrot.

THE SECOND LESSON

The second of February. Tuesday.

We learn very well.

We are good pupils.

We go to school every day.

You are our teacher. You live far from our school. Mrs. Woodland is our teacher too. She gives us French lesson. She speaks French very well. When we know our lesson well, Mrs. Woodland gives us good marks. I've got a *five* for my French dictation. Sam has got a *two*. He always makes many mistakes in his dictation. Sometimes he makes ten mistakes, sometimes fifteen mistakes in one dictation, though he reads a lot. He makes two or three mistakes in every line.



This dictation is very long. There are twenty-two lines in it. Sam will make a lot of mistakes. I'll make a few mistakes too. There are many difficult words in our dictation.

I think that Sam will get a *two*.

I think (that) I'll get a *three* today.

Words

- | | |
|--|---|
| <p>1. second ['sekənd] – ikkinchi
 2. February ['februəri] – fevral
 3. Tuesday ['tju:zdi] – seshanba
 4. pupil [pju:pl] – o'quvchi
 5. every ['evri] – har bir
 6. teacher ['ti:tʃə] – o'qituvchi
 7. Mrs. Woodland ['mɪsɪz 'wudlənd] – Vudlend xonim
 8. to know [nou] – bilmoq
 9. mark [mɑ:k] – baho
 to give marks – baho qo'y-moq
 10. I've got = I have
 he's got = he has
 Sam has got a two. – Sem "ikki" oldi.
 11. mistake [mɪs'teɪk] – xato
 to make mistakes – xato qilmoq</p> | <p>12. dictation [dɪk'teɪʃn] – diktant
 13. lot [lɒt] – ko'p
 a lot of mistakes – ko'p xato
 14. line [laɪn] – qator, liniya
 15. I'll [aɪl] = I shall (<i>kelasi zamon uchun ishlatiladi</i>)
 he'll [hi:l] = he will (<i>kelasi zamon uchun ishlatiladi</i>)
 16. few [fju:] – kam (<i>sanaladigan</i>)
 a few – bir qancha
 17. difficult ['dɪfɪkəlt] – qiyin
 18. to think [θɪŋk] – o'ylamoq
 19. to get [get] – olmoq
 20. today [tə'deɪ] – bugun</p> |
|--|---|

Topshiriqlar

- | | |
|--|--|
| <p>I. Ko'chiring va og'zaki tarjima qiling:</p> <p>1. He makes mistakes in every line.
 2. I'll write a few new words for your pupils.
 3. I know that your teacher is French.
 4. He has got a lot of coloured pencils.
 5. She always gives her pupils good marks for their dictation.</p> | <p>II. Yozma tarjima qiling:</p> <p>1. U har bir qatorda xato qiladi.
 2. Men o'quvchilaringiz uchun bir nechta yangi so'z yozib beraman.
 3. Men sizning o'qituvchingiz fransuz ekanligini bilaman.
 4. Unda juda ko'p rangli qalamlar bor.
 5. U har doim o'quvchilariga diktant uchun yaxshi baholar qo'yadi.</p> |
|--|--|

- | | |
|--|---|
| <p>6. Boys, who has got a penknife, please? I have.</p> <p>7. What day is it today? Today is Tuesday.</p> <p>8. Is Monday the second day of the week? No, Tuesday is.</p> <p>9. What mark have you got for your English? I've got a <i>four</i>.</p> <p>10. He cannot get a <i>five</i>, he knows very few French words.</p> <p>11. I think (that) this lesson is too difficult for you.</p> | <p>6. Bolalar, iltimos, kimda qalamtarosh bor? Menda.</p> <p>7. Bugun qanaqa kun? Bugun seshanba.</p> <p>8. Dushanba haftaning ikkinchi kunimi? Yo'q, seshanba.</p> <p>9. Ingliz tilidan qanday baho olasan? "To'rt" olaman.</p> <p>10. U "besh" ololmaydi, chunki u fransuzcha juda kam so'z biladi.</p> <p>11. Men bu dars sizlar uchun juda qiyin deb o'ylayman.</p> |
|--|---|

III. O'qing va og'zaki tarjima qiling.

Notanish so'zlarni (ular ajratib ko'rsatilgan) lug'atdan toping.

Today Sam, Jim and Lily play in the garden. The sky is blue. The trees are green. There are many flowers in the grass.

Lily likes daisies, roses and violets. Jim and Sam like **peach-trees** and **orange trees**. They know that these plants grow in the South.

Roombo and Reni are also in the garden. They are **asleep** in the shade of a big fir-tree. You know that Roombo likes to sleep in the shade when the day is hot.

IV. Conversation.

Sam: Look, look! There is a red squirrel in that pine-tree.

Lily: Where is it? Where is the squirrel?

Sam: It is very high in the tree.

Lily: Squirrels like nuts.

Sam: What a clever girl she is!

Lily: I know I'm clever. I'm very clever.

Jim: No, you are not. I know a very good rhyme.

Sam and Lily: What rhyme?

Jim: Little Lily is very silly.

Lily: No, I'm not silly at all.

(She is very angry and goes home.)

THE THIRD LESSON

The third of March. Wednesday.

You speak English. She plays the piano. Do you speak French? Does he play the piano? No, I do not speak French. No, he does not play the piano.

Do they understand me? Yes, they do.

Does the boy hear her voice? Yes, he does.

The Children Go to the Lake

One day Jim says to Mr. Christine, Lily's father:

"Mr. Christine, we want to go to the lake. The lake is full of fish. We shall catch some fish and then we shall swim a little. May we take Lily with us? The water is warm now."

"And who will go with you?" Mr. Christine asks.

"Sam will go and Hugh will go too," Jim says.

“Who is Hugh? I don’t know him,” Mr. Christine says.

“Hugh is my new friend. He lives not far from you. He is a good boy and he can swim very well,” Jim answers.

“Can you swim too?” Mr. Christine asks.

“Of course, I can. I swim well,” Jim says.

“If you and Hugh can swim, you may take Lily with you. My Sam has very long legs and the lake is not deep,” Mr. Christine says. He looks at Jim and smiles.

Then Jim goes to Lily. She is in her room. She hears Jim’s voice, but she cannot leave her little kitten. The kitten is ill and it is in bed.

“May I come in, Lily?” Jim asks.

“Yes, yes, come in!” Lily answers in a weak voice.

“Oh, Jimmy, look, my kitten is ill!”

“Do you want to go to the lake with us, Lily?” Jim asks. He does not look at Lily’s kitten.

“I don’t know, I can’t leave my poor kitten. I shall go and ask Father,” Lily says.

“Your father says that you may go,” Jim answers.

“Oh, but I can’t leave my kitten!” the girl says again.

“Then we shall take it too. We shall wash it in the lake. It will be very good for the kitten,” Jimmy says and smiles.

“No, I shall leave my poor kitten at home,” Lily says. “You don’t know how to wash kittens.”



a lizard

“Of course, I do. I even know how to wash horses,” the boy says. “I often wash them.”

“Oh, Jimmy, you know a lot!” the little girl says. “And can you catch fish?”

“Of course, I can,” Jim says.

“Will you catch a butterfly for me? And a lady-bird! And a little green lizard?” Lily asks.

“I will, of course,” Jim says again.

(to be continued)

Words

- | | |
|---|--|
| 1. third [θə:d] – uchinchi | 9. then [ðen] – o‘shanda, keyin |
| 2. March [mɑ:tʃ] – mart | 10. a little – ozgina |
| 3. Wednesday [ˈwenzdi] – chorshanba | 11. Hugh [hju:] – Xyu (<i>erkaklar ismi</i>) |
| 4. piano [ˈpjænou] – royal, pianino | 12. to answer [ˈɑ:nsə] – javob bermoq |
| to play the piano – pianino chalmoq | 13. Oh! [ou] – O‘! |
| 5. don’t [daʊnt] = do not | 14. can’t [kɑ:nt] = cannot |
| doesn’t [dʌznt] = does not | 15. to wash [wɔʃ] – yuvmoq |
| 6. to understand [ˌʌndəˈstænd] – tushunmoq | 16. often [ɔ:fn] – tez-tez |
| 7. voice [vɔ:is] – ovoz | 17. lizard [ˈlɪzəd] – kaltakesak |
| 8. one day [ˈwʌnˈdeɪ] – bir kuni | 18. to be continued [ˈbi:kən-
ˈtɪnju:d] – davomi bor |

Topshiriqlar

- | | |
|--|--|
| I. Ko‘chiring va og‘zaki tarjima qiling: | II. Yozma tarjima qiling: |
| 1. What month is it now? It is March. | 1. Hozir qaysi oy? Mart. |
| 2. Is it Tuesday or Wednesday today? Today is Wednesday. | 2. Bugun seshanbami yoki chorshanba? Bugun chorshanba. |

- | | |
|--|--|
| <p>3. Does your mother play the piano?
No, she doesn't.</p> <p>4. Do you understand your English teacher?
Yes, we do.</p> <p>5. Do you sing? No, I don't, I have no voice.</p> <p>6. Can your son swim now?
Yes, he can just a little.</p> <p>7. Why do you not answer? I can't. I don't know the words.</p> <p>8. One day Jim says: "Let us wash your kitten, Lily."</p> <p>9. Children often sees lizards in the field.</p> <p>10. Is it all? No, it is to be continued.</p> | <p>3. Sening onang pianino chaladimi?
Yo'q, chalmaydi.</p> <p>4. Siz ingliz tili o'qituvchingizni tushunasizmi?
Ha, biz tushunamiz.</p> <p>5. Siz ashula aytasizmi? Yo'q, mening ovozim yo'q.</p> <p>6. Sizning o'g'lingiz endi suzishni biladimi?
Ha, biroz biladi.</p> <p>7. Nega javob bermaysan? Ilojim yo'q, men so'zlarni bilmayman.</p> <p>8. Bir kuni Jim dedi: "Lili, kel sening mushukchangni cho'miltiramiz."</p> <p>9. Bolalar dalada kalta-kesakni tez-tez ko'rib turishadi.</p> <p>10. Bo'ldimi? Yo'q, davomi bor.</p> |
|--|--|

III. Matnga muvofiq savollarga og'zaki javob bering.

1. Where do the children want to go?
2. What does Jim say to Mr. Christine one day?
3. What does Lily's father answer?
4. Who goes to the lake with Jim?

5. What is his new friend's name?
6. Is he a big boy?
7. Where does Hugh live?
8. Does Mr. Christine know him?
9. Is the water in the lake warm?
10. Is the lake deep?
11. Whose legs are very long?
12. Are Lily's feet big or small?
13. Can the boys swim?
14. Do they swim well?
15. What does Mr. Christine ask Jim?
16. What does Jim answer?
17. Why does Lily not want to go to the lake?
18. Why does she not want to take her kitten to the lake?
19. Where is her kitten?
20. Is Lily's voice weak or strong?
21. Does Jim hear her voice?
22. Does Jim know how to wash horses?
23. Why does Jim want to wash the kitten?
24. Do you speak English?

IV. Gaplarni og'zaki tarjima qiling.

1. Sen suzishni bilasanmi? Ha. (Yo'q).
2. Sen yaxshi suzasanmi? Ha. (Yo'q).
3. Xyu pianino chalishni biladimi? Ha. (Yo'q).
4. Polli pianino chalishni biladimi? Ha. (Yo'q).
5. Jim ko'lga borishni yaxshi ko'radimi? Ha. (Yo'q).

6. Rumbo Jimni yaxshi ko'radimi? Ha. (Yo'q).
7. Jim kuchukchasini yaxshi ko'radimi? Ha. (Yo'q).
8. Kim futbolni juda yaxshi o'ynay oladi? Hyu.
9. Kim fransuz tilida juda yaxshi gapira oladi? Deyil xonim.
10. Biz bugun kinoga boramizmi? Yo'q. (Ha).
11. Lili biz bilan boradimi? Yo'q. (Ha).
12. Nimaga Lili biz bilan bormaydi? Chunki u kasal.
13. Kim yangi so'zlarni yodlashi kerak? Biz.
14. Janob Deyil martda Londonga ketishi kerakmi?

V. Topishmoqni toping.

What animal has the longest neck?

VI. So'zlarni o'zbek tiliga ohangdoshligiga qarab ma'nosini toping:

- | | |
|----------------------------|-----------------------------|
| 1. a lotus ['loutəs] | 11. an automobile ['ɔ:tə- |
| 2. a bamboo [bæm'bu:] | moubi:l] |
| 3. a clown [klaun] | 12. a rocket ['rɒkɪt] |
| 4. a telephone ['telɪfoun] | 13. an engineer [endʒɪ'nɪə] |
| 5. an album ['ælbəm] | 14. a crab [kræb] |
| 6. a commander [kə- | 15. sport [spɔ:t] |
| 'mɑ:ndə] | 16. a crane [kreɪn] |
| 7. a cuckoo ['kuku:] | 17. an echo ['ekou] |
| 8. a crocodile ['krɒkə- | 18. an alphabet ['ælfəbɪt] |
| dɑɪl] | 19. marmalade ['mɑ:mə- |
| 9. a dragon ['drægən] | leɪd] |
| 10. a giraffe [dʒɪ'rɑ:f] | 20. a galosh [gə'lɔʃ] |

THE FOURTH LESSON

The fourth of April. Thursday.

The Children Go to the Lake

(continued)

And so the children go to the lake.

The day is very hot and Lily is thirsty.

“Sam, is the lake far from here?” Lily asks.

“No, it is not far now. What do you want?” Sam asks.

“I am hot. I want some water,” his little sister says in a weak voice.

“We have no water. You’ll drink from the lake. It is not far now,” the brother says.

“I don’t want to drink the water from the lake. That water is raw. Father says raw water is not good. I don’t want to go to the lake! I’m hot. I don’t like lakes. There are frogs and snakes in the lake. I want to go home. Take me home! I’m hungry. I am thirsty. Give me some water!” the little girl says pouting¹.

“Don’t cry! There is a good girl,” Jim says.

“I don’t like little girls. They are all cry-babies,” Hugh says.

Hugh is very angry.



¹ pouting – *bu yerda qovog‘ini solib*

“Please, Lily don’t cry! The lake is not far,” Jim says.

But Lily does not want to go to the lake.

“Oh, you don’t want to go with us! Then go home alone, you silly girl!” Hugh says.

“I won’t go home! Go home yourself! I’ll go to the woods. There are lots of wolves there. They will eat me up. Then my father will cry,” and Lily begins to cry herself.

The boys do not know what to do. They are very angry, but they cannot leave Lily alone.

“What shall we do?” Hugh asks.

“We must take her home,” Jim says.


“Come along!” Sam is very angry too.

And so the children go back home.

When they come to their house, they see a little dog at the door.

“Whose dog is it?” Hugh asks.

“I don’t know. It is not our dog,” Sam says.



“Does this dog bite?” Lily asks.

“Yes, it does. Dogs do not like cry-babies, they always bite them,” Sam says.

“It will not bite me,” Lily says. “I’m not a cry-baby. Little dog, don’t bite me. I’m a good girl. Bite these bad boys!”

“Do you think the dog understands you?” Hugh asks.

“Of course, it does. You will see yourself,” Lily says and tries to open the door.

At that minute the dog jumps up and tries to bite Lily’s leg.

“Help, help!” Lily cries. “Oh, Sam, this dog is very silly. It doesn’t understand me. Help me!”

But her big brother Sam, and her little friend Jim, and Jim’s new friend Hugh do not hear her. They try to run away from the dog.

In a minute the boys are high up in a tree.

Now Lily is very angry.

“You bad boys,” she cries in an angry voice.

“Shame on you! You leave me, a little girl, alone with that angry dog. Shame on you!”

The dog looks at the girl. Now it does not try to bite her. It understands her.



Words

1. **fourth** [fɔːθ] – toʻrtinchi
2. **April** [ˈeɪprəl] – aprel
3. **Thursday** [ˈθɜːzdi] – payshanba
4. **continued** – davomi
5. **so** [sou] – shunday qilib
6. **to be thirsty** [ˈθɜːsti] – chanqamoq
7. **I am hot** – Men isib ketyaman
8. **to drink** [drɪŋk] – ichmoq
9. **raw** [rɔː] – xom; *bu yerda*: qaynamagan
10. **to pout** [paʊt] – arazlamoq, arazlab qolmoq
11. **to cry** [kraɪ] – yigʻlamoq
12. **cry-baby** [ˈkraɪˈbeɪbi] – yigʻloqi
13. **There's a good girl!** – Aqlli boʻlgini! (Qanday yaxshi qiz!)
14. **us** [ʌs] – bizga, bizni
15. **alone** – bir oʻzi, yolgʻiz
16. **yourself** [jɔːˈself] – sen oʻzing, oʻzi
17. **herself** [hɜːˈself] – uning oʻzi
18. **to eat up** [ˈiːtʌp] – yeb qoʻymoq
19. **to begin** [bɪˈɡɪn] – boshlamoq
20. **Come along!** [ˈkʌm əˈlɒŋ] – yur, ketdik!
21. **back** [bæk] – orqaga
22. **to bite** [baɪt] – fishlamoq
23. **up** [ʌp] – tepa, tepaga
to jump up – sakramoq
24. **to run away** – qochib qolmoq
25. **in** [ɪn] – ...dan keyin (*vaqt haqida*)
in five minutes – 5 daqiqadan keyin
26. **shame** [ʃeɪm] – uyat
Shame on you! – Uyat emasmi?!

Topshiriqlar

I. Koʻchiring va ogʻzaki tarjima qiling:

1. We won't go to school on the fourth of April.
2. I'll try to do it on Thursday.
3. Will this lesson be continued? Yes, it will.
4. Girls, who is thirsty?

I'm hot and thirsty.

II. Yozma tarjima qiling:

1. Biz 4-aprelda maktabga bormaymiz.
2. Men buni payshanba kuni qilishga harakat qilaman.
3. Bu dars davom ettiriladimi? Ha.
4. Qizlar, kim chanqadi?

Men isib ketdim va chanqadim.

- | | |
|---|---|
| 5. Don't drink from that jug, the water is raw. | 5. Anavi ko'zadan suv ichmang, suv qaynamagan. |
| 6. So you think she is a cry-baby! | 6. Shunday qil b, siz uni yig'loqi deb o'ylaysiz! |
| 7. Let us go back home! | 7. Keling, uyga qaytib ketamiz! |
| 8. Don't pout! There's a good girl! | 8. Arazlama! Aqlli qiz bo'! |
| 9. When does your lesson begin? | 9. Sening darsing qachon boshlanadi? |
| 10. Come along, boys! | 10. Yuring ketdik, bolalar! |
| 11. Roombo always jumps up when he hears Jimmy's voice. | 11. Rumbo Jimmining ovozini eshitishi bilan doimo sakraydi. |
| 12. Does your dog bite? No, it doesn't. | 12. Sizning kuchugingiz tishlaydimi? Yo'q. |
| 13. A hungry bear can eat up two sheep. | 13. Qorni och ayiq ikkita qo'yni yeb qo'yishi mumkin. |
| 14. I'll come back in a minute. | 14. Men bir daqiqadan keyin qaytaman. |
| 15. She can make her dress herself. | 15. U o'ziga ko'ylak tika oladi. |
| 16. Try to do it yourself! | 16. Buni o'zingiz bajarishga harakat qiling! |

III. Savollarni o'qing va ularga javob bering (og'zaki va yozma).

Savollar

Javoblar

- | | |
|---|---|
| 1. Who always washes the dishes after dinner? | 1. Lili (yuvyapti). U o'zining likopchasi, sanchqisi, pichog'i va qoshig'ini o'zi yuvadi. |
|---|---|

- | | |
|--|---|
| 2. Can Lily wash glasses? | 2. Yo'q, u yuva olmaydi. Bu uning uchun qiyin. |
| 3. When will you come back? | 3. Men beshda qaytaman. |
| 4. What do you see on the table? | 4. Men uning ustida 3 ta stakan, 4 ta taqsimcha, 2 ta pichoq va 1 ta qoshiqni ko'ryapman. |
| 5. When will you begin your English lessons? | 5. Biz aprelda boshlaymiz. |
| 6. Do you often see your friends? | 6. Ha, men ularni tez-tez ko'rib turaman. |
| 7. When will you see them again? | 7. Menimcha, ularni chorshanba yoki payshanba kunlari ko'raman. |
| 8. Can Lily open that door herself? | 8. Yo'q, u qila olmaydi; u judayam kichkina. |
| 9. When do you do your lessons? | 9. Men ularni har kuni maktabdan keyin qilaman. |
| 10. When does Sam do his lessons? | 10. U darslarini yakshanba kuni qiladi. |

IV. Conversation.

Polly: Children, come here! We'll play school. I'm your teacher. You're my pupils. My name is Mrs. Woodland. Now sit down! Lily Dale, stand up! Look, what is this?

Lily: It is a bird.

Polly: What bird is it?

- Lily:* It is a parrot.
- Polly:* Good. Sit down! Now, Jimmy Dale, what colour is this bird?
- Jim:* It is red, blue, green and yellow.
- Polly:* Good. Sit down! Children, can parrots fly?
- Lily:* No, they can't.
- Jim:* Yes, they can.
- Polly:* We shall see now. Jimmy, go and open the cage with Lily's parrot in it!
- Lily:* Oh, no, no, no, no, ... It may fly away!
- Polly:* You see!
- Jim:* Little Lily is very silly.
- Polly:* Jimmy, **stop teasing** her!
- Lily:* I won't play with you **any more**. Go home! **Go away!**
- Polly:* Lily, you mustn't be **so rude**. We are your **guests**.
- Jim:* Let's go home, Polly. I won't play with such a rude girl.
- Lily:* I'm not rude at all, he is rude.
- Polly:* Stop **quarreling**, children! Now, Lily is a teacher.
- Lily:* Children, stand up! Guess a **riddle!** It **looks like** a carrot but you can't eat it. What is it?
- Polly:* I can't guess it.
- Lily:* It's Jimmy the Carrot.

V. Learn by heart the following sentences.

- | | |
|--|---|
| 1. I have breakfast at nine o'clock in the morning . | 1. Men <i>ertalab soat 9 da nonushta qilaman.</i> |
| 2. He has lunch at one. | 2. U (soat) <i>birda tushlik qiladi.</i> |

- | | |
|--|---|
| 3. She has dinner at seven. | 3. U yettida tushlik qiladi. |
| 4. The English have tea at five o'clock. | 4. Inglizlar soat beshda <i>choy ichishadi</i> . |
| 5. When do you have supper? | 5. Siz qachon <i>kechki ovqatni yeysiz?</i> |
| 6. When does your father have breakfast? | 6. Otang qachon nonushta qiladi? |
| 7. When does he read his evening newspaper?
He reads it at supper . | 7. U <i>kechki gazetasini</i> qachon o'qiydi? |
| 8. Good evening! | U uni <i>kechki ovqat mahali</i> o'qiydi.
8. <i>Xayrli kech!</i> |

VI. Learn by heart the proverbs.

- | | |
|---|------------------------------------|
| 1. A barking dog seldom bite. | 1. Hurgan it kamdan kam tishlaydi. |
| 2. Better late than never . | 2. Hechdan ko'ra kech yaxshi. |

THE FIFTH LESSON

The fifth of May. Friday.

The Fox and the Lock

(a lullaby)

"Cock-a-doodle-do!" crows the cock.

Granny yawns: "It is two o'clock!"

Baby sleeps. The night is long.

Granny starts to sing a song:

“In a shed there is an ox,
 Round the shed there walks a fox.
 On the door he sees a lock,
 He cannot enter – what a shock!

Fox is hungry; fox is cross,
 Fox is really at a loss.
 Foxy hears and smells the cock,
 But he cannot break the lock.

Baby sleeps. The night is long.
 Granny, rocking, sings a song.

Words

- | | |
|---|---|
| 1. May [meɪ] – may | 14. to walk [wɔ:k] – aylanib yurmoq |
| 2. Friday ['frɑɪdɪ] – juma | 15. to enter ['entə] – kirmoq |
| 3. lock [lɒk] – qulf | 16. shock [ʃɒk] – zarba, noxushlik |
| 4. cock-a-doodle-do ['kɒkə-du:dl'du] – qu-qu-quq | What a shock! – Qanday yo-mon! |
| 5. to crow [krou] – qichqirmoq
(<i>xo'roz haqida</i>) | 17. cross [krɒs] – jahli chiqqan |
| 6. granny ['græni] – buvijon | to be cross – jahli chiqmoq |
| 7. to yawn [jɔ:n] – esnamoq | 18. really ['riəli] – haqiqatan |
| 8. clock [klɒk] – soat | 19. loss [lɒs] – yo'qolish |
| It is two o'clock. – (Hozir) soat ikki. | to be at a loss – o'zini yo'qotib qo'ymoq |
| 9. to start [stɑ:t] – boshlamoq | 20. to smell [smel] – hidlamoq, hid olmoq, hidi kelmoq |
| 10. song [sɒŋ] – qo'shiq, ashula | 21. to break [breɪk] – sindirmoq, buzmoq |
| shed [ʃed] – og'ilxona | 22. to rock [rɒk] – tebratmoq, al-lalamoq |
| 11. ox [ɒks] – buqa | |
| 12. oxen [ɒksn] – buqalar | |
| 13. round [raʊnd] – atrofida | |

Topshiriqlar

I. Ko'chiring va og'zaki tarjima qiling:

1. How many days of the week do you know now in English?

II. Yozma tarjima qiling:

1. Endi haftaning necha kunini ingliz tilida aytishni bilasan?

- I know: Sunday, Monday, Tuesday, Wednesday, Thursday and Friday.
2. How many months do you know in English?
I know: January, February, March, April and May.
3. What day is it today?
Today is Friday.
4. Can you learn this lullaby?
Of course, I can.
5. Are there many new words in it?
Yes, there are twenty-four new words in the lullaby.
6. What time is it?
It is five o'clock.
7. What does the fox smell?
He smells a cock.
8. Do foxes like cocks?
Yes, they like all birds and small animals too.
- Men dushanba, se-shanba, chorshanba, payshanba va jumani bilaman.
2. Sen necha oyni ingliz tilida bilasan?
Men yanvar, fevral, mart, aprel va mayni bilaman.
3. Bugun qaysi kun?
Bugun juma.
4. Sen bu allani yodlay olasanmi?
Albatta, yodlayman.
5. Unda yangi so'zlar ko'pmi?
Ha, bu allada 24 ta yangi so'z bor.
6. Soat necha?
(Hozir) soat besh.
7. Tulki nimaning hidini olyapti?
U xo'rozning hidini olyapti.
8. Tulkilar xo'rozlarni yaxshi ko'rishadimi?
Ha, ular hamma qushlarni va mayda hayvonlarni ham yaxshi ko'rishadi.

- | | |
|---|---|
| <p>9. Why is the fox cross? Because he can't break the lock.</p> <p>10. Where does the fox walk?
He walks round the shed.</p> | <p>9. Nega tulkining jahli chiqqan? Chunki u qulfni buzolmaydi.</p> <p>10. Tulki qayerda aylanib yuribdi?
U og'ilxona atrofida aylanib yuribdi.</p> |
|---|---|

III. Alla qo'shig'ini yod oling va uni yozing.

IV. Savollarga og'zaki javob bering.

1. When do you get up?
2. Do you go to school?
3. What animals have you?
4. When do you come home from school?
5. What do you eat at 8 o'clock?
6. What do you drink?
7. Do you like to go to school?
8. What do you do after school?
9. What time is it now?
10. Where is your mother?

V. Learn by heart.

- | | |
|--|---|
| <p>1. Don't be cross!</p> <p>2. When she enters the room, she always says: "Good afternoon!" or "How do you do?"</p> <p>3. When she leaves the room she says: "Good-bye!"</p> <p>4. She is at a loss.</p> | <p>1. Jahling chiqmasin!</p> <p>2. U xonaga kirgani-da har doim: <i>Xayrli kun!</i> yoki <i>Ahvol-laring qanday!</i> deydi.</p> <p>3. U xonadan chiqib ketayotganda: "Xayr!" deydi.</p> <p>4. U o'zini yo'qotib qo'ydi (nima qilishini bilmadi).</p> |
|--|---|

- | | |
|--|---|
| 5. It is just shocking! | 5. Bu <i>juda dahshat!</i> |
| 6. It is time to get up! | 6. Turish <i>vaqti bo'ldi!</i> |
| 7. This pear is as sweet as honey. | 7. Bu nok <i>asal kabi shirin.</i> |
| 8. The lesson is over, you may go home. | 8. Dars <i>tugadi,</i> uyga ketishingiz mumkin. |
| 9. Mammy, may I go for a walk? | 9. Oyijon, <i>aylanib kel-sam</i> maylimi? |
| Yes, dear, go. | Ha, azizim, boraqol. |
| 10. I'm sleepy. | 10. <i>Mening uyqum kel-yapti.</i> |

VI. Yangi so'zlarning ma'nolarini topishga harakat qilib ko'ring:

- | | |
|--------------------|--------------------|
| 1) a night-bird | 6) a snow man |
| 2) a rocking-chair | 7) a writing-table |
| 3) a field-mouse | 8) a bedroom |
| 4) a sea-bird | 9) a soup-plate |
| 5) a woodman | 10) a tea-spoon |

VII. Conversation.

Sam: **Hallo,** Polly, what's the news?

Polly: Hallo, Sam, no news.

Sam: "No news is good news," as we, English, say.

Polly: Oh, what a clever boy you are, Sam! And I know proverb too.

Sam: What proverb?

Polly: "Bad news has wings." I know that you've got a *two* for your French.

Sam: Oh, no, I've got a *three*.

Polly: That's better, I'm glad to hear it.

No news (is) good news.

Yangilikning yo'qligi ham yaxshi yangilik.

Bad news has wings. (Bad news travels quickly. Ill news flies fast.)

Yomon xabar tez tarqalar.

THE SIXTH LESSON

The sixth of June. Saturday.

Whose Dog Is It?

Now Lily has her own dog too. His¹ name is Hop-Hop. He is black and white; he is very lean and small with a funny short tail. But though he is small his voice is loud and he can hear any noise in the garden or in the house.



The boys say that Hop-Hop is a good dog.

When Mr. Christine goes to work and the children run away to play, Hop-Hop sits at the door and does not leave the house.

Mr. Christine works hard and he comes home very late, but now he knows that his children are not alone. Hop-Hop is with them.

When Hop-Hop is hungry, he stands up on his hind legs and begins to bark. Lily knows what that

¹ Uy hayvonlari haqida. Agarda ularning laqabi bo'lsa, *it* o'rniga *he* yoki *she* qo'llaniladi.

means. It means that the dog wants some bread and meat.

Sometimes the doctor goes to the theatre and the children are at home alone, but he knows that their new friend is at the door.

When night comes, the children say "Good night" to the dog and go to bed. There are two bedrooms upstairs where they sleep. But Hop-Hop does not sleep upstairs. He sleeps in the garden at the door of the house.

Hop-Hop does not like boys who smoke tobacco. When he sees them, he begins to bark at them and tries to bite them.

Sometimes he barks at Sam.

"Sam, why does Hop-Hop bark at you?" Lily asks one day.

"I don't know. I think he doesn't like me," Sam answers.

"Shall I ask him why he barks at you?" his little sister asks, slyly. "He smells tobacco, Sam, and he doesn't like it. Daddy says that the boys who smoke tobacco won't grow. They will be shorter than the boys who don't smoke. Father must know it, he is a doctor."

"I don't like your silly dog," Sam says angrily.

"He barks only when you smoke. Sam, he is a very clever dog," Lily says.



“But I do not smoke. What a silly dog!” Sam says.

“The dog is not silly at all. He can do many things. Look how he can dance! Only look at him! Dance, Hop-Hop, dance!” Lily says.

The dog stands on his hind legs and begins to dance.

Sam smiles.

“And what else can he do? Can he bring sticks, shoes, caps and coats?” he asks.

“Of course, he can,” Lily says.

“Can he bring me my shoe or my coat?” Sam asks.

“Yes, of course. Hop-Hop, bring my brother’s coat and his left shoe,” Lily says.

The dog runs away. In a minute he comes back with a shoe.

“That is not the left shoe. Where is my shoe? Bring me another shoe. Find it! Go and find it,” Sam cries.

But the dog does not want to go.

“He does not know what ‘left’ or ‘right’ means. He can bring you a shoe and that is all,” Lily says. “And then, when you ask him, don’t forget to say ‘please’.”

“Please, Hop-Hop, go and find my coat!” Sam cries.

But the dog won’t go.

“What must I say now?” Sam asks.



“Hop-Hop does not know which coat you want, the black coat or the blue one,” Lily says.

“Go and find the blue coat which I wear on Sundays,” Sam cries. “It is upstairs in Father’s bedroom. Please!”

In a minute Hop-Hop comes back with Sam’s blue coat.

“Oh, you are right! What a clever dog we have! There is a good girl! Shake hands with me and don’t be cross. I shall not smoke any more. Our dog is really very clever,” Sam says. “Such a clever dog! And don’t tell Father about me. I promise, I shall never take another cigarette!”

Words

1. **sixth** [sɪksθ] – oltinchi
2. **June** [dʒu:n] – iyun
3. **Saturday** [ˈsætədi] – shanba
4. **own** [aʊn] – shaxsiy
5. **Hop-Hop** [ˈhɒpˈhɒp] – Hop-Hop (*laqab*)
6. **lean** [li:n] – oʻzgʻin, ingichka
7. **loud** [laʊd] – baland (ovoz)
8. **noise** [nɔɪz] – shovqin
9. **to work** [wɜ:k] – ishlamoq
a work – ish
10. **hard** [hɑ:d] – qattiq, jonjahdi bilan
11. **to stand** [stænd] – turmoq
to stand up – turish
12. **hind** [haɪnd] – orqa (oyoq)
13. **to bark** [bɑ:k] – vovullamoq
14. **to mean** [mi:n] – anglatmoq, nazarda tutmoq
15. **meat** [mi:t] – go’sht
16. **theatre** [ˈθiətə] – teatr
17. **upstairs** [ˈʌpˈsteəz] – tepada, tepa qavatda
18. **tobacco** [təˈbækou] – tamaki
19. **slyly** [ˈslai] – ayyorona
20. **thing** [θɪŋ] – narsa
21. **to dance** [dɑ:ns] – raqsga tushmoq
22. **to come back** [ˈkʌmˈbæk] – qaytmoq
23. **to find** [faɪnd] – topmoq
24. **right** [raɪt] – oʻng
You are right. – Sen haqsan.
25. **to forget** [fəˈget] – esdan chiqarmoq
26. **which** [wɪtʃ] – qaysi
27. **one** – *kalitga qarang*
28. **to wear** [weə] – kiymoq
29. **hand** [hænd] – qoʻl (qoʻlning bilakdan pastki qismi)
30. **to shake** [ʃeɪk] – silkitmoq
to shake hands – qoʻl berib koʻrishmoq, qoʻlini siqmoq
31. **any more** [ˈeniˈmɔ:ɪ] – boshqa (*inkor shaklida*)
32. **to tell** [tel] – aytmoq

33. to promise ['prɒmɪs] – va'da bermoq

Topshiriqlar

I. Ko'chiring va og'zaki tarjima qiling:

1. This is our own garden.
2. **oo** harflari birikmasi **[u]** yoki **[u:]** deb o'qiladi.

Masalan: **a book** [ə'buk] – kitob
a spoon [ə'spu:n] – qoshiq

oo harflari birikmasi **k** oldida kelganda qisqa **[u]** deb o'qiladi.

Masalan: **a book** [ə'buk]

oo harflari birikmasi boshqa harflar oldida kelganda esa uzun **[u:]** deb o'qiladi.

Masalan: **a spoon** [ə'spu:n] – qoshiq

3. **I have no ...** “menda ... yo'q” degan ma'noni anglatadi.

Masalan: **I have no cat.** – Menda mushuk yo'q.

4. **ing** harflari birikmasi doimo **[ɪŋ]** deb talaffuz qilinadi.

5. **to** yuklamasi **fe'l** oldida kelganda **fe'lining** noaniq shaklda ekanini bildiradi (infinitiv).

Masalan: **to show** – ko'rsatmoq

6. **Buyruq mayli** (iltimos, buyruq) noaniq shakldan **to yuklamasini** olib tashlash orqali yasaladi.

Masalan: **Show** [ʃəu]! – Ko'rsat!

Buyruq maylida birinchi o'ringa fe'l qo'yiladi.

Masalan: **Give me** ['gɪv'mɪ]! – Menga ber!

8-darsga tushuntirish

1. **this** so'zi yaqindagi narsalarni ko'rsatish uchun ishlatiladi va (*mana*) *bu* deb tarjima qilinadi.

Masalan: **this boy** – bu bola
this squirrel – bu olmaxon
this gun – bu qurol

2. **that** so'zi esa uzoqdagi narsalar uchun ishlatiladi va anavi, o'sha deb tarjima qilinadi.

Masalan: **that wolf** – o'sha bo'ri
that cat – o'sha mushuk
that jam – o'sha murabbo

This va **that** faqat birlikdagi otlar uchun ishlatiladi.

3. Agarda ot oldida **this** yoki **that** turgan bo'lsa, artikl qo'yilmaydi.

Masalan: **a pen** – this pen – that pen

4. **a** harfi ikkita **ll** oldidan [ɔ:] deb o'qiladi.

Masalan: **a ball** [ə'bɔ:l] – koptok

5. Ingliz tilida **too** so'zi *ham* ma'nosida kelganda doimo gap oxirida turadi.

Masalan: **I have a ball too.** – Menda *ham* koptok bor.

6. **to have** fe'li uchinchi shaxs birlikda **has** shakliga ega bo'ladi.

Masalan: **He has a ball.** – Unda koptok bor.

9-darsga tushuntirish

1. O'zbek tilida fe'li ko'rsatilmagan, lekin topilishi mumkin bo'lgan gaplar bor. Ya'ni ba'zi gaplarda fe'l ishlatsa

ham, ishlatmasa ham bo'ladi. Ingliz tilida esa **fe'l** ishlatilishi shart.

Masalan: **The frog is on the log.**

Qurbaqa yog'och ustida. (turibdi)

The fox is in the box.

Tulki quti ichida. (yotibdi)

2. Agar ma'lum bir so'z haqida oldin gapirilgan bo'lsa yoki uning oldidan **this** (bu, mana shu) so'zini qo'yish mumkin bo'lsa, u holda bu so'z oldidan **the** [ðə] aniq artikli ishlatiladi.

Masalan: **This girl has a dish.** – Bu qizda lagan bor.

That fish is on the dish. – Anavi baliq (mana shu) laganda. Aniq artikl o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

The aniq artikli o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

Agar gapda bitta predmet haqida gapirilsa, shu predmet oldida **a (an)** noaniq artikli ishlatiladi. **Have** dan so'ng **inkor yuklamasining no** shakli ishlatilsa, unda noaniq (**a**) artikli tushirib qoldiriladi.

Masalan: I have **a** copy-book.

I have **no** copy-book.

10-darsga tushuntirish

1. Savolda **have** yoki **has** fe'li birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: **Has he a wolf?** – Uning bo'risi bormi?

Has she a cat? – Uning mushugi bormi?

2. Savollarga to'liq va qisqa javoblar berish mumkin.

Masalan: *To'liq javob*

Yes, I have a copy-book.

Yes, he has a gun.

No, I have no pistol.

No, he has no snake.

Qisqa javob

Yes, I have.

Yes, he has.

No, I have not.

No, he has not.

Qisqa inkor javoblarda **fe'ldan** so'ng **not** inkori qo'yiladi.

3. **you** olmoshi *siz va sen* ma'nolarini anglatadi.

Masalan: **Have you** a book? – Sizda (senda) kitob bormi?

You have nine rabbits. – Senda (sizda) to'qqizta quyon bor.

11-darsga tushuntirish

1. Ingliz tili gaplari qat'iy so'zlar tartibiga ega:

I – birinchi o'ringa **ega** qo'yiladi;

II – ikkinchi o'ringa – **kesim**;

III – uchinchi o'ringa – **to'ldiruvchi**;

IV – to'rtinchi o'ringa – **hol**.

Masalan: I II III IV
The boy has a dog.
The fox is in the box.
We have a cow.
I see a pen on the table.

2. Savolda **have**, **has** yoki **is** birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: **Has** the boy a dog?

Is the fox in the box?

Have you a cow?

3. Agar gapdagi **otga (to'ldiruvchiga)** taalluqli savol beriladigan bo'lsa, unda shu **ot (to'ldiruvchi)** kesimdan oldin keladi. Bu ayniqsa, qancha?, qanaqa? savollariga taalluqlidir.

Masalan: **How many dogs** have you?
What kind of books do you like?

4. Topishmoq.

It has four legs, a long tail and it can give milk.
[ɪt 'hæz 'fɔ: 'legz ə'lon 'teɪl ænd ɪt kæn 'gɪv 'mɪlk]

Uning 4 ta oyog'i, uzun dumi bor va u sut beradi (bera oladi).

Javob: **a cow.**

12-darsga tushuntirish

1. **This is ... Bu (bor) ...** degan ma'noni bildiradi.

2. Topishmoq.

Uning 4 ta oyog'i, kalta [ʃɔ:t] dumi bor va u sut beradi (bera oladi).

Javob: **a goat.**

13-darsga tushuntirish

1. **to be fe'li** o'zbek tilida bo'lmoq degan ma'noni anglatadi.

2. **to be fe'li** quyidagicha tuslanadi:

I	am				
he	}	is	we	}	are
she			you		
it			they		

O'zbek tilida **to be fe'li** hozirgi zamonda quyidagicha ifodalanadi. Hozirgi zamonda **to be fe'li** o'tgan zamondagidek to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinmagani uchun u xuddi tushib qolganday ko'rinadi.

Masalan: Men o'quvchiman.
Siz o'quvchisiz.
Men bog'daman.

Ingliz tilida **to be** gapda albatta ishtirok etadi.

Masalan: **He is** a boy.

She is a girl.

I am in the garden.

2. Savolda **am, is, are** birinchi o'ringa, ya'ni ega oldidan qo'yiladi.

Masalan: **Are** you in the room?

Siz xonadamisiz?

Is the girl in the garden?

Qizaloq bog'dami?

3. Inkor gapda **to be (am, is, are)** dan keyin **not** qo'yiladi.

Masalan: My dog **is not** black.

Mening itim qora emas.

You **are not** in the room.

Siz xonada emassiz.

I am not in the garden.

Men bog'da emasman.

4. Agarda gap maxsus savol so'zi bilan boshlansa, **to be (am, is, are)** maxsus savol so'zidan so'ng keladi.

Masalan: **Where** is my book?

Mening kitobim qayerda?

Where are you?

Siz qayerdasiz?

14-darsga tushuntirish

1. Agarda **ot** oldida **sifat** (qizil, ko'k, katta, yaxshi va h.k.) kelgan bo'lsa, artikl **sifatdan** oldin qo'llaniladi.

Masalan: a flag – a **red** flag

a goat – a **white** goat

2. Agarda **ot** oldida **son** (*bir, ikki, uch va h.k.*), **egallik olmoshi** (*mening, sizning, sizning va h.k.*) yoki **ko'rsatish olmoshi** (*bu, u, shu*) turgan bo'lsa, artikl ishlatilmaydi.

Masalan: a dog – one dog – your dog – this dog
the girl – one girl – her girl – that girl

3. **Egalik va ko'rsatish olmoshlari** barcha otlar uchun o'zgartirilmagan holda ishlatiladi.

Masalan: **my book** (*pen, friend, room va h.k*)
this pen (*boy, girl, room va h.k*)

15-darsga tushuntirish

1. **Wh** – harf birikmasidan keyin **o** harfi kelsa, **w** o'qilmaydi.

Masalan: Who [hu:], whom [hu:m]

Boshqa holatlarda esa **wh** birikmasi kelganda **h** talaffuz qilinmaydi.

Masalan: What [wɒt]? – Nima?
Where [weə]? – Qayerda? Qayerga?
white [waɪt] – oq

2. Agarda **ot** unli tovush bilan boshlansa, uning oldidan **an** [ən] noaniq artikli ishlatiladi.

Masalan: an umbrella – soyabon, an hour

3. **g** harfi **e, y, i** harflari oldida ko'pincha [dʒ] deb o'qiladi.

Masalan: a cage [keɪdʒ]

4. **this** va **that** ko'rsatish olmoshlari ko'plik sonda o'zgaradi.

<i>Birlik</i>	<i>Ko'plik</i>
this – bu, mana shu	these – bular
that – anavi, u	those – anavilar

5. II va III vazifalarga javoblar.

1. That girl has many violets in her garden.
Anavi qizning bog'ida ko'p binafshalar bor.

2. Yes, she has many flowers in her garden.
Ha, uning bog'ida ko'p gullar bor.
3. This book is on the table.
Bu kitob stol ustida (turibdi).
4. These birds are in the tree.
Bu qushlar daraxtda.
5. This kitten is in the box.
Bu mushuk bolasi quti ichida.
6. Those roses are red.
Anavi atirgullar qizil.
7. These trousers are not bad.
Bu shimlar yomon emas.
8. That violet is little.
Anavi binafsha kichkina.

16-darsga tushuntirish

1. **ng** harflar birikmasi [ŋ] deb o'qiladi.
Masalan: **long** [lɔŋ] – uzun
strong [strɔŋ] – kuchli, baquvvat
2. **children** so'zi *child* [tʃaɪld] – bola so'zining ko'plik sondagi shakli.
3. Ingliz tilida **ot** va **sifatlar** o'zbek tilidagidan farqli ravishda turlanmaydi va kelishiklarda o'zgarmaydi, ularning o'rniga old ko'makchilar ishlatiladi.
Masalan: Give that book **to Father!**
(old ko'makchi bilan)
Anavi kitobni *otamga* ber!
yoki Give **Father** that book!
(old ko'makchisiz)
Otamga anavi kitobni ber!

17-darsga tushuntirish

1. Agarda bitta predmet o'z turining vakili bo'lsa, uning oldidan aniq artikl ishlatiladi.

Masalan: Tulki – ayyor hayvon
(umuman barcha tulkilar).

The fox is a sly [slai] animal.

2. *Kishilik olmoshi*

I – men
you – sen, siz
he – u (m. r.)
she – u (j. r.)
it – u (hayvonlar va
jonsiz predmetlar
uchun)
we – biz
you – siz
they – ular

- Egalik olmoshi*

my – mening
your – sening, sizning
his – uning (m. r.)
her – uning (j. r.)
its – uning (hayvonlar
va jonsiz predmetlar
uchun)
our – bizning
your – sizning
their – ularning

Masalan: Bizning mushugimizning mushukchasi bor.

Uning mushukchasi qora.

Our cat has a kitten.

Its kitten is black.

Izoh: O'zbek tilida aksariyat hollarda tegishli **egalik olmoshlari** o'rniga *o'zimmiki, o'ziniki, o'zlariniki olmoshlari* ishlatiladi. Agarda eganing shaxsi **egalik olmoshi** shaxsi bilan mos tushsa, **egalik olmoshi** o'zbek tiliga *o'ziniki* deb tarjima qilinadi.

Masalan: He plays with **his** dog.

U o'zining iti bilan o'ynayapti

She plays with **her** cat.

U o'zining mushugi bilan o'ynayapti.

2. **as ... as** ifodasi ...dek, ...day *degan ma'noni* anglatadi.

Masalan: This duck is **as small as** that hen.
Bu o'rdak tovuqday kichkina.

not so ... as ifodasi ...dek ... emas, ...day ... emas
degan ma'noni anglatadi.

Masalan: The jackal is **not so strong as** the wolf.
Chiyabo'ri *bo'ridek* kuchli emas.

18-darsga tushuntirish

I. 1. Atoqli **otlar** bilan artikl ishlatilmaydi.

Polly has a cat.

Jimmy has a dog.

2. Qaratqich kelishigi kimning, nimaning? savollariga javob beradi va **otlarga** -'s qo'shimchasini qo'shish orqali yasaladi.

Masalan: My mother's books – Mening *onamning* kitoblari.

Jim's little cat – *Jimning* mitti mushugi.

Izoh: Agar birlikdagi **ot** oldida qaratqich kelishigi ishlatilsa, bunday holda **otdan** oldin artikl ishlatilmaydi.

Masalan: My father's __ gun – Mening *otamning* quroli.

II. 1. **ea** harf birikmasi ko'pincha [i:] deb o'qiladi.

Masalan: a beak [bi:k] – tumshuq
an eagle [i:gl] – burgut

2. **ai** harf birikmasi doimo [ei] deb o'qiladi.

Masalan: a tail [teɪl] – dum
a quail [kweɪl] – bedana

3. **aw** harf birikmasi [ɔ:] deb o'qiladi.

Masalan: a claw [klɔ:] – tirnoq

4. **oa** harf birikmasi [ou] deb o‘qiladi.

Masalan: a coat [kout] – palto

19-darsga tushuntirish

1. O‘zbek tilida “Sizning ismingiz nima?” deyishadi, ingliz tilida “**What is your name?**” deyishadi.

Masalan: What is this girl’s name?

Bu qizning ismi nima?

What is his name?

Uning ismi nima?

What is your friend’s name?

Sening do‘stingning ismi nima?

Quyidagicha javob berish kerak: **My name is ...**

Mening ismim ...

2. **friend** [frend] so‘ziga e‘tibor bering: bu so‘zdagi **i** harfi o‘qilmaydi.

3. Angliyalik va amerikaliklar familiyasi oldidan **Mr.** = mister [‘mɪstə], ya‘ni, janob qo‘yiladi.

Masalan: Mr. Dale – janob Deyil.

4. **oh** xitobi [ou] deb o‘qiladi.

20-darsga tushuntirish

1. **Otlarning** oldidan ishlatiladigan **on** ko‘makchisi nimadir biror narsaning ustida ekanligini bildiradi.

Masalan: **on** the table – stolning ustida

on the chair – stul yoki stulning ustida

on the plate – likopda

at old ko‘makchisiga ega **otlar qayerda?** savoliga javob beradi.

Masalan: **at the cinema** – kinoda
at the lesson – darsda

Eslab qoling: **at home** – uyda
va **at school** – maktabda
the artiklisiz ishlatiladi.

2. **of** old ko'makchisiga ega **otlar** *kimning, nimaning?* savoliga javob beradi **of** old ko'makchisi predmetni anglatadigan **otlar** oldidan ishlatiladi.

Masalan: a pair **of** shoes – bir juft tufli
the door **of** his room – uning xonasining eshigi.

21-darsga tushuntirish

1. **How old are you?** – *Sizning yoshingiz nechada?*

How old are you? – **I** am ten (years old).

How old is he? – **He** is ten (years old).

How old is she? – **She** is ten (years old).

How old is it? – **It** is ten (years old).

2. **white and brown** shaklidagi inglizcha so'z birikmalari o'zbek tiliga *oq bilan jigarrang*, deb tarjima qilinadi.

22-darsga tushuntirish

1. **down** [daun] so'zi pastga qarab harakatlanishni anglatadi va ko'pincha o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

Masalan: Sit down ['sit'daun]! – O'tir!

put down ['put'daun]! – Qo'y!

2. **k** harfi **n** harfi oldida kelganda o'qilmaydi.

Masalan: a knife [naif] – pichoq

3. Agar birlikdagi **ot f** yoki **fe** harflar birikmasi bilan tugallangan bo'lsa, ular ko'plikka aylantirilganda **f -v** ga aylanadi va **es** ko'plik qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: a wolf [wulf] – bo'ri
wolves [wulvz] – bo'rilar
a knife [naif] – pichoq
knives [naivz] – pichoqlar

4. Ingliz tilida **ravish** ko'makchilariga ega ko'plab fe'llar bor.

Masalan: to put on – kiymoq
to sit down – o'tirmoq

Buyruq gaplarda **ravish** ko'makchilar **fe'ldan** keyin ham, gap oxirida ham turishi mumkin.

Masalan:

yoki **Put your shoes on!** } Poyabzalingni kiy!
 Put on your shoes! }

Agar poyabzal so'zining o'rniga **olmosh** ishlatilsa, u holda bu **olmosh ravish** va **ko'makchi fe'l** o'rtasida ishlatiladi.

Masalan: **Put them on!** – Ularni kiy!

5. **Go fe'lidan** so'ng doimo **to ko'makchisi** ishlatiladi.

Masalan: Go to the cinema with your father! (qayerga?)

Otangiz *bilan* kinoga boring!

Go to your friend, Jimmy! (qayerga?)

O'rtog'ing *oldiga* bor, Jimmi!

Ammo quyidagi hollarda **to** ishlatilmaydi.

Go / home
 / there
 / upstairs
 / downstairs

23-darsga tushuntirish

1. **Fe'l** oldida turgan **to yuklamasi fe'lining** noaniq shakldaligini bildiradi va o'zbek tiliga *-moq* tugallanmasi orqali tarjima qilinadi.

Masalan: o'qimoq – to read
yugurmoq – to run
suzmoq – to swim
uchmoq – to fly

can ko'makchi fe'lidan so'ng to yuklamasi ishlatilmaydi.

Masalan: He **can read**. – U o'qiy oladi.

2. **can ko'makchi fe'li qila olaman** degan ma'noni anglatadi.

Masalan: I **can swim**. – Men suza olaman.

3. Savolda **can** birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: **Can this girl swim?** – Bu qiz suza oladimi?

4. Inkorda **can fe'lidan** keyin **not** inkori kelib, **fe'l** bilan qo'shib yoziladi.

Masalan: He **cannot run fast**. –
U tez yugura olmaydi.

5. **wr** harf birikmasi birga kelganda **w** o'qilmaydi.

Masalan: Write [rait]! – Yozing!

6. **ur, er, ir** harf birikmalari [ə:] cho'ziq tovushini anglatadi.

Masalan: a turkey ['tə:kɪ] – kurka
a girl [gə:l] – qiz
her [hə:] – uning (jen.r.)

7. **at all** – ifodasi inkor gaplarda ishlatiladi, gap oxiriga qo'yiladi va *umuman* deb tarjima qilinadi.

Masalan: I cannot swim **at all**.
Men *umuman* suza olmayman.

8. **Kesimni** aniqlab keladigan **ravish** gap oxiriga qo'yiladi.

Masalan: I can read **very fast**.
Men *juda tez* o'qiy olaman.
They swim **well**.
Ular *juda yaxshi* suzishadi.

24-darsga tushuntirish

1. **may fe'li** ruxsat ma'nosida ishlatiladi va *mumkin* degan ma'noni anglatadi.

can fe'li *qila olaman* ma'nosini anglatadi.

must fe'li *kerak* degan ma'noni anglatadi.

Masalan:

You are strong, you **can** open this box.

Sen kuchlisan, sen bu qutini ocha *olasan*.

Mr. Dale is not a boy, he **may** smoke [smouk].

Janob Deyil yosh bola emas, u chekishi *mumkin*.

May I go to the cinema?

Kinoga borsam *maylimi*?

I **must** go to school.

Men maktabga *borishim kerak*.

He **must** learn well.

U yaxshi o'qishi *kerak*.

2. **May, must** va **can** yordamchi fe'llari savol tuzish uchun gapda birinchi o'ringa qo'yiladi. Inkorda esa ulardan keyin **not** inkori ishlatiladi.

Masalan: May I smoke in this room?

No, you may not.

Bu xonada cheksam maylimi? –

Yo'q mumkin emas.

Must you go to school today?

Sen bugun maktabga borishing kerakmi?

Lily must not go to the cinema.

Lili kinoga bormasligi kerak.

3. Agarda **too** so'zi gapning oxirida turgan bo'lsa, *ham* degan ma'noni anglatadi.

Masalan: I have many books **too**.

Menda *ham* ko'p kitoblar bor.

4. Agarda **too** o'ziga tegishli so'z oldida turgan bo'lsa, *juda* ham degan ma'noni anglatadi.

Masalan: This dress is **too** long.

Bu ko'ylak *juda ham* uzun.

5. **to be in bed** *yotmoq* ma'nosini anglatadi.

Masalan: Why **are you in bed**? Are you ill?

Siz nima uchun *yotibsiz*? Kasalmisiz?

6. "Menikiga keling!" gapi ingliz tiliga ikkita fe'l bilan tarjima qilinadi: **Come to see me!**

25-darsga tushuntirish

1. **au** harf birikmasi [ɔ:] deb o'qiladi.

Masalan: a saucer ['sɔ:sə].

2. **with** ko'makchi fe'li *bilan* deb tarjima qilinadi.

Masalan: I like to draw **with coloured pencils**.

Men **rangli qalamlar bilan** chizishni yaxshi ko'raman.

He can go to school **with Jimmy**.

U maktabga Jimmy *bilan* bora oladi.

26-darsga tushuntirish

1. Ingliz tilida gap egadan boshlanadi. Gap tartibi quyidagicha: **ega, kesim, to'ldiruvchi, hol**. Ega doim kim? nima? so'rog'iga javob beradi.

Masalan: Kitob stolning ustida (turibdi, yotibdi). **A book is on the table.** *Yoki*, Sichqon divanning tagida. **A mouse is under the sofa.** Lekin bu gaplarni stolning ustida kitob bor, divanning tagida sichqon bor, – deb ham aytish mumkin. Bu gaplarni ingliz tiliga tarjima qilish uchun **there is** (birlikda), **there are** (ko'plikda) konstruksiyasi ishlatiladi. Bu konstruksiya turibdi, yotibdi, bor, osig'liq deb tarjima qilinadi yoki shu ma'nolarni bildiradi. Demak, gap "qayerda" degan savolga javob bo'ladigan so'zdan boshlansa, **there is (are)** konstruksiyasi bilan gap boshlanadi. Bunda gapning tarjimasi gap oxiridan boshlanadi.

Masalan: **There is** a book on the table.
Stolning ustida kitob bor.

There is konstruksiyasidan keyin doim noaniq artikl (**a, an**) ishlatiladi. Bu sanaladigan otlar uchun.

Masalan: **There is** a frog on the log.

Sanalmaydigan otlar uchun **there is** dan so'ng **some** olmoshi ishlatiladi.

Masalan: **There is** some milk in the bottle.

There are konstruksiyasidan so'ng **many** yoki **some** olmoshi ishlatiladi.

Masalan: **There are** many ducks on the lake.
There are some chairs in the room.

Some gumon olmoshi bir qancha, bir nechta, qanchadir va h.k. ma'nolarini anglatadi.

Masalan: We have **some** apples.
Bizda *bir qancha* olmalar bor.

Some ba'zida o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi. Ayniqsa, sanalmaydigan otlar oldida.

Masalan: We have boiled water. – Bizda qaynagan suv bor.

3. Topishmoq.

Qaysi qushning ko'zlari likopchadek katta, ammo yaxshi ko'rmaydi?

Javob: **an owl** – boyo'g'li.

27-darsga tushuntirish

1. **there is** va **there are** konstruksiyalari bilan savol shakli yasalganda **to be** fe'li birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: Is there much bread on the table?

Stolda non ko'pmi?

Are there many nuts in this tree?

Bu daraxtda yong'oq ko'pmi?

there is va **there are** konstruksiyalari bilan inkor shakli yasalganda **no** inkori **to be** dan keyin qo'yiladi.

Masalan: There is no cheese on the plate.

Likopda pishloq yo'q.

There are no flowers in our garden.

Bizning bog'imizda gul yo'q.

there is va **there are** konstruksiyalari ishtirokidagi inkor gaplarda **much** yoki **many** turgan bo'lsa, **not** inkori ishlatiladi.

Masalan: There is not much milk in this bottle.

Bu idishda sut ko'p emas.

2. **some** **olmoshi** tasdiq gaplarda ishlatiladi. So'roq gaplarda xuddi shu ma'noda **any** ishlatiladi.

Masalan: I have **some** cheese.

Menda pishloq bor.

Have you **any** bread?

Sizda non bormi?

3. **many** va **much** sifatlari *ko'p* degan ma'noni anglatadi. **Many** sanaladigan **otlar** bilan, **much** esa sanalmaydigan **otlar** bilan ishlatiladi.

Masalan: There are **many** plates on this table.
Bu stolda likoplar *ko'p*.
There is **much** milk in this jug.
Bu *ko'zachada* sut *ko'p*.

28-darsga tushuntirish

1. Ko'plik yasalganda **y** harfi so'zda undosh harfdan keyin kelsa, **i** ga aylanadi va es qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: a fly – flies – pashshalar
a berry – berries – mevalar

2. So'z oxirida **y** harf unidan keyin kelsa, ko'plik yasash uchun so'z oxiriga **s** qo'shiladi.

Masalan: a boy – boys – bolalar

29-darsga tushuntirish

1. **igh** harf birikmasi [aɪ] deb o'qiladi.

Masalan: night [naɪt]

2. **ow** harf birikmasi ko'pincha [aʊ] deb o'qiladi.

Masalan: how [haʊ] – qanday
now [naʊ] – hozir

3. **w** harf birikmasi keyin **a** [ɔ:] deb o'qiladi.

Masalan: warm [wɔ:m] – iliq
water ['wɔ:tə] – suv

4. Dunyodagi yagona predmetni anglatadigan **otlar** oldidan aniq artikl **the** qo'yiladi:

the moon, the sun, the sky.

30-darsga tushuntirish

1. **Milk and bread** *sut va non*, shuningdek, **bread and butter** *sariyog'li non* deb tarjima qilinadi.
2. Kelasi oddiy zamon (*Future Indefinite Tens.*) shakli i yasash uchun **egadan keyin shall (will) ko'makchi fe'li** ishlatiladi. **Shall** (I shaxs birlik va ko'plik uchun) qolgan barcha shaxslar uchun **will** ishlatiladi. Asosiy **fe'l** esa **to** siz ishlatiladi.

Masalan: I shall write a letter tomorrow.
Men ertaga xat yozaman.
He will write a letter tomorrow.
U ertaga xat yozadi. (m.r)
She will write a letter tomorrow.
U ertaga xat yozadi. (j.r)
We shall write a letter tomorrow.
Biz ertaga xat yozamiz.
You will write a letter tomorrow.
Siz ertaga xat yozasiz.
They will write a letter tomorrow.
Ular ertaga xat yozishadi.

So'roq gap tuzish uchun **shall** yoki **will yordamchi fe'llari** egadan oldinga o'tadi.

Masalan: Shall we go to the cinema tomorrow?
Biz ertaga kinoga boramizmi?

Ba'zida I shaxsda **will yordamchi fe'li** ishlatiladi. Bu holatlarda **will fe'li** istakni bildiradi.

Masalan: I won't (will not) go to school tomorrow.
Men ertaga darsga bormayman (borishni istamayman).

3. Agar bosh gap kelgusi zamonda turgan bo'lsa, **ergash gap if (agar), when (qachon)** va boshqa **bog'lovchilardan** keyin hozirga zamon ishlatiladi.

Masalan: You will see me **if** I come early.
Men **agar kelsam**, siz meni ko'rasiz.

4. Topishmoq.

Qanotlari yo‘q, lekin ucha oladi.

Javob: **a balloon** – havo shari.

31-darsga tushuntirish

1. Ingliz tilida bir bo‘g‘inli sifatlarda qiyosiy daraja sifat oxiriga **-er** suffiksini qo‘shish yordamida yasaladi.

Masalan: **tall** – uzun **taller** – uzunroq
old – katta (yosh) **older** – kattaroq

2. **than** bog‘lovchisi o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda tushib qolishi mumkin.

Masalan: He is older than I. – U mendan kattaroq.

3. **What is he?** savoli *odam nima ish bilan shug‘ullanishi-ni, uning kasbi qanaqaligini* anglatadi.

Masalan: **What is Mr. Dale?** – Janob Deyilning kasbi nima?
He is a driver. – U haydovchi.

4. **Who is he?** *odamning familiyasi qanaqaligini, qanday qarindoshligini* anglatadi.

Masalan: **Who is that man?** – Bu odam kim?
He is Mr. Christine, Lily’s father. –
Bu janob Kristin, Lilining otasi.

32-darsga tushuntirish

1. **out of** [‘aut ɔv] ko‘makchisi *ichidan* degan ma‘noni anglatadi.

Masalan: go out of the room – xonadan chiq.

2. **to leave** [li:v] fe‘li *tark etmoq, -dan ketmoq, jo‘nab ketmoq* degan ma‘nolarni anglatadi va o‘zidan keyin hech qanday ko‘makchi talab qilmaydi.

Masalan: I **leave** your room.
Men sizning xonangizdan *ketaman*.

3. **Also (ham) to be fe'lidan** keyin qo'yiladi, ammo barcha asosiy **fe'llardan** avval ishlatiladi.

Masalan: I also run very fast.
Men ham juda tez yuguraman.
I am also in the garden.
Men ham bog'daman.

4. **Present Indefinite Tense** (hozirgi zamon oddiy fe'li) dagi III shaxs birlikdagi (**he, she, it**) barcha **fe'llar -s** yoki **-es** tugallanmasiga ega bo'ladi.

Masalan: Lily says.
Jim asks.
He goes [gouz].

33-darsga tushuntirish

1. 1) **ay, ai** harf birikmalari [eɪ] deb talaffuz qilinadi.

Masalan: say [seɪ], again [ə'geɪn]

- 2) **o** harfi ayrim so'zlarda [ʌ] deb talaffuz qilinadi.

Masalan: money ['mʌni] – pul
honey ['hʌni] – asal
monkey ['mʌŋki] – maymun
some [sʌm] – bir qancha

2. **money** so'zi ko'pincha birlikda ishlatiladi.

3. **Bunny** – quyonning inglizcha hazilomuz nomi.

4. Bitta **ot** ikkinchisining oldida turganda hech qanday o'zgarishga uchramasdan **sifat** rolini bajarishi mumkin.

Masalan: **pea-soup** – no'xatli sho'rva
rice porridge – guruchli bo'tqa

34-darsga tushuntirish

1. **Janub** so'zi ingliz tilida katta harf bilan yoziladi: **janub-da – in the South.**

2. Daryo, dengiz, ko'l va okeanlar nomlari oldidan aniq artikl qo'yiladi.

The Black Sea – Qora Dengiz

The Volga – Volga

The Atlantic – Atlantika okeani

The Aral Sea – Orol dengizi

35-darsga tushuntirish

1. Millatni anglatadigan **otlar** ingliz tilida katta harf bilan yoziladi.

Masalan: Russian [rʌʃn] – rus

Chinese ['tʃaɪni:z] – xitoylik

Agarda millatni anglatadigan **otlar** oldida **the** aniq artikli turgan bo'lsa, bu so'z butun millatni anglatadi.

Masalan: the Russians – ruslar

2. **-an** bilan tugallanadigan millatni anglatadigan **otlarga** ko'plikda **-s** harfi qo'shiladi.

Masalan: the Germans, the Americans

3. **-an** bilan tugallanmaydigan millatni anglatadigan **otdan** avval **the** artikli ishlatilsa, bu millatni anglatadi.

Masalan: the Chinese – xitoyliklar

the English – inglizlar

the French – fransuzlar

4. **they speak** ifodasi ba'zan *gapirishadi* deb tarjima qilinadi.

Masalan: In America **they speak** English.

Amerikada inglizcha *gapirishadi*.

5. **short** so'zi ikkita ma'noga ega: *kalta* va *past* bo'yli.

Masalan: My kitten's tail is very short.

Mushugimning dumi kalta.

Mrs. Dale is short.
Deyil xonim past bo'yli.

36-darsga tushuntirish

1. **can, may, must** modal fe'llari asosiy fe'lsiz hech qanday ma'noni anglatmaydi.

Masalan: He can, she may, it must

37-darsga tushuntirish

1. Hafta kunlari ingliz tilida bosh harf bilan yoziladi.

Masalan: Sunday ['sʌndɪ] – yakshanba

Hafta kunlari bilan **on** old qo'shimchasi ishlatiladi.

Masalan: On Sunday – yakshanbada

2. **ph** birikmasi [f] deb o'qiladi.

Masalan: elephant ['elɪfənt]

3. **Any** tasdiq gaplarda ishlatilayotganda *har qanday, har qanaqa* degan ma'nolarni anglatadi.

4. **Let us ...** ifodasi *Keling...* degan ma'noni anglatadi.

Masalan: **Let us** speak English!

Keling, inglizcha gaplashamiz!

38-darsga tushuntirish

1. **Egalik olmoshi.**

Ingliz tilida **egalik olmoshi** I va II shakllarga ega. I shakl **egalik olmoshlari** otlarni aniqlab keladi va *kimniki, kimning, kimga qarashli?* savollariga javob bo'lib keladi. II shakl **egalik olmoshlari** gaplarda **otlarning** o'rni keladi.

Masalan:

I shakl

My book is on the table.

Mening kitobim stolda.

II shakl

This is **my** book and that is **yours**.

Bu *mening* kitobim, unisi esa *seniki*.

II shakldagi barcha **egalik olmoshlari** (**minedan tashqari**) -s tugallanmasiga ega bo'ladi.

I shakl

1. **my** – meniki
2. **your** – seniki
3. **his** – uniki
4. **her** – uniki
5. **its** – uniki, ularniki
(jonsiz otlar va hayvonlar uchun)
6. **our** – bizniki
7. **your** – sizniki
8. **their** – ularniki

II shakl

- mine**
- yours**
- his**
- hers**
- its**
- ours**
- yours**
- theirs**

39-darsga tushuntirish

1. **-till** bog'lovchisi **-guncha** (**-kuncha**, **-quncha**), ...**gacha**, ...**da** qadar degan ma'nolarni anglatadi.

Masalan: Try not to sleep till I come.

Men kelgunimga qadar uxlamaslikka harakat qil.

2. **very much** juda ravishi doimo gap oxiriga qo'yiladi.

Masalan: I like cakes very much.

Men pirojniylarni juda yaxshi ko'raman.

GRAMMATIK MA'LUMOTNOMA

I. Artikl

Ingliz tilida noaniq artikl (**a, an**) va aniq artikl (**the**) bor. Noaniq artikl faqat birlikda sanaladigan **otlar** bilan qo'llaniladi.

Masalan: **a cat, a pen, a book, an apple**

Izoh: Agar **ot** unli tovush bilan boshlansa, unda **otdan** oldin **an** noaniq artikli ishlatiladi.

Masalan: **an apple, an hour**
lekin a University.

O'zbek tilida **otlar** oldidan *bitta, qandaydir, qaysidir, birorta* so'zlarini qo'yish mumkin bo'lgan o'rinlarda ingliz tilida noaniq artikl qo'llaniladi.

Give me **an** apple.

Menga (bitta) olma ber.

I see **a** garden.

Men (qandaydir) bog'ni ko'ryapman.

Give me **a** pen.

Menga (birorta) ruchkani ber.

O'zbek tilida **otlar** oldidan *bu, anavi, o'zirniki, bular, o'zirnizniki* so'zlarini qo'yish mumkin bo'lgan o'rinlarda ingliz tilida aniq artikl qo'llaniladi.

Masalan: I see **a** big garden. I like **the** garden.

Men (qandaydir) katta bog'ni ko'ryapman.

Menga (bu) bog' yoqadi.

Otlar oldidan odatda **the** aniq artikli qo'yilmaydi. Ammo daryo, dengiz, ko'l va dunyo tomonlari (Shimol, G'arb, Janub, Sharq) oldidan aniq artikl qo'yiladi.

Masalan: 1) **the Black Sea** – Qora dengiz.
2) **in the South** – janubda.

Agarda **otlar** oldidan **egalik** **olmoshi** (**my, his, her, its, our, your, their**) yoki **ko'rsatish olmoshi** (**this, these, that, those, such**), yoki **sanoq son** (**one, two, three va h.k.**) turgan bo'lsa, ushbu **otlar** oldidan artikl qo'llanilmaydi.

II. Ot

Ingliz tilidagi **otlar rod, son, kelishikka** ega bo'ladi.

1) Ingliz tili **otlari** rodi mantiqiy: erkak jinsiga mansub nomlar mujskoy rodga taalluqli bo'ladi va ular oldidan **he olmoshi** qo'llaniladi.

Where is Jimmy? **He** is in the garden.

Jimmi qayerda? **U** bog'da.

Xuddi shunday ayol jinsiga mansub nomlar jenskiy rodga taalluqli bo'ladi va ular oldidan **she olmoshi** qo'llaniladi.

Lily is a little girl. **She** is four years old.

Lili – kichkina qiz. **U** to'rt yoshda.

Barcha jonsiz **otlar** va hayvonlarning nomlari sredniy rodga taalluqli bo'ladi va ular oldidan **it olmoshi** qo'llaniladi.

I see a cat.

It is black.

Men mushukni ko'ryapman.

U qora.

Izoh: Agarda hayvonlar ertak, masal yoki hikoyalar qahramonlari bo'lsa, muallifning xohishiga ko'ra, ularga nisbatan **he** yoki **she olmoshlari** qo'llaniladi.

2) **Son.** Ingliz tilida **otlar** birlik va ko'plik sonlarga ega

bo'ladi. Birlik sondagi **otlarning** oxirida qo'shimchasi bo'lmaydi. Ko'plik sondagi **otlar**, odatda, **-s** qo'shimchasiga ega bo'ladi. Agarda **ot -o, -s, -ss, -z, -x, -ch, -sh** bilan tugasa, ko'plik sonda **-es** qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: a box – boxes
a dress – dresses
a bench – benches va h.k.

-y undoshi bilan tugaydigan **otlar** ko'plik sonda **-es** qo'shimchasiga ega bo'ladi va bunda **y** harfi **i** harfiga o'zgaradi.

Masalan: a fly – flies
a berry – berries

Agarda **y** oldida unli harf turgan bo'lsa, ko'plik sonda **-s** qo'shimchasi qo'shiladi, **y** harfi esa **i** harfiga o'zgarmaydi.

Masalan: a boy – boys
a day – days

Birlik sonda **-f** yoki **-fe** bilan tugaydigan **otlarda f** ni **v** ga o'zgartirish hamda **-es** qo'shimchasini qo'shish orqali ko'plik son hosil qilinadi.

Masalan: a wolf – wolves
a knife – knives

Ayrim **otlarda** ko'plik son so'z o'zagidagi unli harflarni o'zgartirish orqali hosil qilinadi.

Masalan: a man (erkak) – men (erkaklar)
a woman (ayol) – women (ayollar)
a foot (oyoq) – feet (oyoqlar)
a tooth (tish) – teeth (tishlar)
a goose (g'oz) – geese (g'ozlar)
a mouse (sichqon) – mice (sichqonlar)

3) Kelishik. Ingliz tilida **otlar** ikkita kelishikka ega bo'la-

di: bosh va qaratqich kelishiklari. Bosh kelishikda tugallanma bo'lmaydi (a book, a boy, a dog); qaratqich kelishigida -'s qo'shimchasi bo'ladi. Bu kelishik asosan jonli predmetlarni anglatadigan **otlar** bilan qo'llaniladi va *kimniki, kimning, kimga qarashli?* savollariga javob beradi.

Masalan: This little girl's cat
Bu kichkina qizning mushugi
My mother's dress
Mening onamning ko'ylagi
This cat's tail
Bu mushukning dumi

III. Sifat

Ingliz tilida **sifatlar** na **rodlar**, na **sonlar**, na **kelishiklar** bo'yicha o'zgarmaydi. Ular faqat qiyosiy darajalarga ega bo'ladi.

Darajalar bir bo'g'inli **sifatlarda** -er va -est qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil qilinadi. Bunda -er qo'shimchasini qo'shish bilan qiyosiy daraja, -est qo'shimchasini qo'shish bilan orttirma daraja yasaladi. Ortirma darajadagi **sifat** bilan belgilanadigan **otlar** doimo **the** aniq artikli bilan qo'llaniladi.

Masalan:

oddiy daraja

long – uzun

cold – sovuq

qiyosiy daraja

longer – uzunroq

colder – sovuqroq

orttirma daraja

the longest – eng uzun

the coldest – eng sovuq

IV. Ravish

- 1) **Ravish fe'lni** aniqlab keladi va *qanday?* savoliga javob beradi. Agarda harakat qanday yuz berayotgani haqida gap borayotgan bo'lsa, **ravish fe'ldan** keyin qo'yiladi.

Masalan: Rabbits run very fast.
Quyonlar juda tez yuguradi.
Our girls learn well.
Bizning qizlarimiz juda yaxshi o'qishadi.

- 2) **Payt ravishi** gap oxirida keladi yoki gap boshida keladi.

Masalan: We learn our lessons in the evening.
yoki In the evening we learn our lessons.
Biz kechqurun dars tayyorlaymiz.

- 3) **O'rin ravishi** gap oxirida qo'yiladi (ammo payt ravishidan oldin).

Masalan: Mr. Dale is here every day.
Janob Deyil shu yerda har kuni.

- 4) **Ravishlar doimo asosiy fe'ldan oldin va to be dan keyin** qo'yiladi. (*always, often, seldom va h.k.*)

Masalan: We always do our lessons after school.
Biz har doim darslarni maktabdan keyin tayyorlaymiz.
He is always ill.
U har doim kasal.

- 5) **only – faqat ravishi** u aniqlab kelayotgan so'z oldidan qo'yiladi.

Masalan: Only Jimmy can draw so well.
Faqat Jimmi bunday yaxshi chiza oladi.
Polly can only read.
Polli faqat o'qishni biladi.

- 6) **too ravishi ham** gap oxirida qo'yiladi.

Masalan: I can swim **too**.
Men *ham* suzishni bilaman.

7) Agarda **too** qandaydir so'z oldida turgan bo'lsa, u *juda ham* degan ma'noni anglatadi.

Masalan: This turkey is **too** fat.
Bu kurka *juda ham* semiz.

V. Son

1 – one	11 – eleven	21 – twenty-one
2 – two	12 – twelve	22 – twenty-two
3 – three	13 – thirteen	23 – twenty-three
4 – four	14 – fourteen	24 – twenty-four
5 – five	15 – fifteen	25 – twenty-five
6 – six	16 – sixteen	26 – twenty-six
7 – seven	17 – seventeen	27 – twenty-seven
8 – eight	18 – eighteen	28 – twenty-eight
9 – nine	19 – nineteen	29 – twenty-nine
10 – ten	20 – twenty	30 – thirty
		40 – forty

VI. Olmosh

Ko'rsatish olmoshi **this – these**
 that – those

1) **this** [ðɪs] – bu, shu, ushbu, mana bu, mana shu
that [ðæt] – anavi, o'sha

Masalan: This girl is my sister and that girl is my friend.

Bu qiz – mening singlim, anavi qiz esa –
mening dugonam.

2) Ko'plik sonda **this olmoshi these** [ði:z] – bular shakliga ega bo'ladi.

Masalan: These pears are very sweet.

Bu noklar juda shirin.

- 3) Ko'plik sonda **that olmoshi those** [ðouz] – anavilar shakliga ega bo'ladi.

Masalan: Those apples are not sweet.

Anavi olmalar shirin emas.

<i>Kishilik olmoshlari</i>	<i>Egalik olmoshlari (I shakl)</i>	<i>Egalik olmoshlari (II shakl)</i>
I – men	my – mening	mine – meniki
you – sen	your – sening	yours – seniki
she – u (j. r.)	her – uning	hers – uniki
he – u (m.r.)	his – uning	his – uniki
it – u	its – uning	its – uniki
we – biz	our – bizning	ours – bizniki
you – siz	your – siz(lar)ning	yours – siz(lar)niki
they – ular	their – ularning	theirs – ularniki

- 1) I – men **kishilik olmoshi** doimo bosh harf bilan yoziladi. **It** odamlardan boshqa barcha **otlarning o'rnida** qo'lanadi.

Masalan: Roombo is a puppy; **it** is very clever.

Rumbo – kuchukcha; u juda aqlli.

My gun is old, but **it** is very good.

Mening qurolim eski, ammo juda yaxshi.

I see a cat; **it** is under the table.

Men mushukni ko'ryapman; u stol ostida.

- 2) II shakl **egalik olmoshlari otni** takrorlamalik uchun uning o'rniga qo'yiladi.

Masalan: Your father is not as tall as mine.

Sening otang meniki (mening otam) kabi novcha emas.

These are my pencils, and those are yours.

Bular mening qalamlarim, anavilari (anavi qalamlar) esa seniki.

some, any, no gumon olmoshlari.

- 1) **some** va **any** *bir qancha, ozroq, bir nechta* degan ma'nolarni anglatadi va ko'pincha o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

Masalan: I have some new copy-books at home.
Uyimda mening yangi daftarlarim bor.

- 2) **some** faqat tasdiq shaklida qo'llaniladi.

Masalan: There is some cheese in the cupboard.
Javonda pishloq bor.

- 3) **any** savol shaklida qo'llaniladi.

Masalan: Are there any chairs in your room?
Sizning xonangizda stul bormi?

- 4) **no** faqat inkorda qo'llaniladi.

Masalan: There are no peaches in that tree.
Anavi daraxtda shaftoli yo'q.
They have no grain.
Ularda bug'doy yo'q.

So'roq olmoshlari:

Who [hu:]? – Kim?

What [wɒt]? – Nima?

Whose [hu:z]? – Kimning?

- 1) Agarda **so'roq olmoshi** ega bo'lsa, gapdagi so'zlar tartibi to'g'ri qoladi, ya'ni I – **ega**, II – **kesim**, III gapning **ikkinchi darajali bo'laklari**.

Masalan: The boy plays in the garden.
Who plays in the garden?

A pencil is under that box.

What is under that box?

- 2) Agarda **what** dan keyin **ot** kelayotgan bo'lsa, **what qaysi** degan ma'noni anglatadi.

Masalan: What book can you take from the library [laɪbrəri]?

Siz kutubxonadan qaysi kitobni olishingiz mumkin?

VII. There is, there are

- 1) Agar gap o'zbek tilida *qayerda?* savoliga javob bo'ladigan so'z bilan boshlansa, ingliz tilida gap **there is, there are** konstruksiyasi va undan keyin **ega** bilan boshlanadi. **There is, there are** bilan boshlangan gaplar o'zbek tiliga gap oxiridan boshlab tarjima qilinadi..

Masalan: There is some bread in the cupboard.

Javonda non bor.

Is there any milk in your cup?

Sening finjoningda sut bormi?

There are many books on the table.

Stolda ko'p kitob bor.

- 2) Savolda **is** yoki **are** birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: Are there many girls in your class?

Sizning sinfingizda qizlar ko'pmi?

Is there a dog in their garden?

Ularning bog'ida it bormi?

- 3) Inkorda **are** yoki **is** dan keyin **no** qo'yiladi.

Masalan: There is no dog in their garden.

Ularning bog'ida it yo'q.

There are no pear trees there.

U yerda nok daraxtlari yo'q.

- 4) Agarda gapda **many** – ko'p so'zi bo'lsa, inkorda **no** emas, **not** qo'yiladi.

Masalan: There are not many violets in that wood.
Anavi o'rmonda binafshalar ko'p emas.

- 5) Agar gap ega bilan boshlanadigan bo'lsa, gap to'g'ri tarjima qilinadi. Agar gap *qayerda?* so'rog'iga javob bo'ladigan so'zdan boshlansa, there is (are) konstruktsiyasi kelgan bo'ladi. O'zbekchaga tarjima qilinganda tarjima gap oxiridan boshlanadi.

Masalan: The chickens are in the garden!
Oyi, jo'jalar bog'da!
yoki There are some chickens in the garden.
Bog'da jo'jalar bor.
Look, the cat is here again!
Qarang, mushuk yana shu yerda!
yoki Look, there is a cat here again.
Qarang, yana shu yerda mushuk bor ekan.

VIII. Fe'l

Fe'l oldidagi to yuklamasi fe'l noaniq maylda turganini ko'rsatadi, ya'ni na shaxs, na songa ega, o'zbek tilida bunday fe'llar *-moq* bilan tugallanadi.

Masalan: to read [tə'ri:d] – o'qimoq
to write [tə'raɪt] – yozmoq
to learn [tə'lɜ:n] – o'rganmoq
to play [tə'pleɪ] – o'ynamoq

Buyruq mayli

- 1) Bu mayl buyruqni anglatadi.

Masalan: Read! – O'qi!
Count! – Sana!

- 2) Buyruq maylida fe'l to yuklamasisiz gap boshiga qo'yiladi.

Masalan: to speak – gapirmoq
Speak! – Gapir!
to run – yugurmoq
Run! – Yugur!

can, may, must modal *fe'llarining ishlatilishi*

- 1) **can fe'li** nimanidir qila olmoq, qodir bo'lmoq degan ma'nolarni anglatadi.

Masalan:

I **can** speak English.
Men inglizcha gapira olaman.
I **can** open this box, I am strong.
Men bu qutini ocha olaman, men kuchliman.
He **can** speak French, Russian and German.
U fransuzcha, ruscha va nemischa gapira oladi.

- 2) **may fe'li** ruxsatni anglatadi. U nimanidir qilish mumkinligini bildiradi.

Masalan: **May** I go to the cinema?
Men kinoga borsam maylimi?
May she take your book?
U kitobingizni olsa maylimi?

- 3) **must – kerak fe'li** nimanidir qilish majburiyatini anglatadi.

Masalan: They **must** do their lessons now.
Ular o'z darslarini hozir qilishlari kerak.
We **must** go home now.
Biz endi uyga borishimiz kerak.

- 4) Savolda **can, may, must** birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan:

Can he run fast? – U tez chopa oladimi?
May I smoke? – Cheksam maylimi?
Must she sleep now? – U uxlashi kerakmi?

5) Inkorda **can, may, must** fe'llaridan keyin **not** inkori qo'yiladi. **Cannot** birgalikda yoziladi.

Masalan: I cannot draw.
Men chizishni bilmayman.
He may not take my book.
U mening kitobimni olishi mumkin emas.
We must not play at the lesson.
Biz dars vaqtida o'ynamasligimiz kerak.

6) **can, may, must** fe'llari oldidan **to yuklamasi** qo'yilmaydi.

7) **can, may, must** yordamchi fe'llaridan keyin keladigan fe'l doimo **to yuklamasisiz** keladi.

Masalan: I can swim well.
Men yaxshi suzishni bilaman.
They may play.
Ular o'ynashi mumkin.
We must go.
Biz ketishimiz kerak.

to have – *ega bo'lmoq* fe'lining hozirgi zamonda tuslanishi

I	II
I have.	Have I?
You have.	Have you?
He has.	Has he?
She has.	Has she?
It has.	Has it?
We have.	Have we?
You have.	Have you?
They have.	Have they?

III	IV
I have no book.	I have not.
You have no book.	You have not.

He has no book.	He has not.
She has no book.	She has not.
It has no book.	It has not.
We have no book.	We have not.
You have no book.	You have not.
They have no book.	They have not.

1) III shaxs birlik sonda **to have fe'li has** shakliga ega bo'ladi.

2) Savolda **have** yoki **has** birinchi o'ringa qo'yiladi.

3) Inkorda **have, has** dan keyin **no** inkori qo'yiladi.

Masalan: I have no rabbits. Menda quyonlar yo'q.

4) Qisqa javoblarda **not** inkori qo'yiladi.

Masalan: Have you a car? – No, I have not.

Has she a doll? – No, she has not.

Agarda ot oldida **the, this, that, my, your, two, there** va boshqalar turgan bo'lsa, **not** qo'yiladi.

Masalan: I have not your book.

They have not this book.

to be – *bo'lmoq fe'lining* hozirgi zamonda tuslanishi

I	II	III
I am.	Am I?	I am not a hunter.
You are.	Are you?	You are not...
He is.	Is he?	He is not...
She is.	Is she?	She is not...
It is.	Is it?	It is not...
We are.	Are we?	We are not hunters.
You are.	Are you?	You are not...
They are.	Are they?	They are not...

1) So'roq gaplarda **to be fe'li** birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: Are you a teacher? Is he a hunter?

2) Inkorda **to be fe'li**dan keyin **not** inkori qo'yiladi.

Masalan: I am not a teacher. He is not a hunter.

to be fe'lining o'tgan zamoni

Birlik sondagi **to be fe'li** o'tgan zamonda **was** shakliga ega bo'ladi. Ko'plik sondagi **fe'l** o'tgan zamonda **were** shakliga ega bo'ladi.

Masalan: He was my friend.

U mening do'stim edi.

We were at the cinema yesterday.

Biz kecha kinoda bo'ldik. (edik)

Izoh: **you olmoshi** bilan **to be fe'li** doimo ko'plikda qo'llaniladi.

Masalan: Are you a teacher?

Siz o'qituvchimisiz?

Were you at home yesterday?

Siz kecha uyda edingizmi?

Fe'llarning hozirgi oddiy zamonda

(Present Indefinite Tense) va **kelasi oddiy zamonda**

(Future Indefinite Tense) **tuslanishi.**

Hozirgi oddiy zamonda I, II va III shaxs ko'plik uchun **fe'l** o'zgarmaydi, ya'ni **fe'lning to yuklamasisiz** shakli qo'llaniladi. III shaxs birlikda esa **fe'l** oxiriga s qo'shimchasi qo'shiladi.

Masalan: I see a cat.

We see a cat.

He sees a cat.

You see a cat.

She sees a cat.

They see a cat.

It sees a cat.

Kelasi oddiy zamon fe'l shaklini yasash uchun I shaxs uchun **shall**, II, III shaxslar uchun **will yordamchi fe'li** ish-

latiladi. So'ng asosiy **fe'ning to yuklamasisiz shakli** ishlatiladi.

Masalan: I shall play in the garden.
Men bog'da o'ynayman.
He will play in the garden.
U bog'da o'ynaydi.
She will play in the garden.
U bog'da o'ynaydi.
It will play in the garden.
U (hayvon) bog'da o'ynaydi.
We shall play in the garden.
Biz bog'da o'ynaymiz.
You will play in the garden.
Siz bog'da o'ynaysiz.
They will play in the garden.
Ular bog'da o'ynashadi.

Kelasi zamon oddiy fe'lida so'roq gap tuzishda **yordamchi fe'l (shall yoki will)** birinchi o'ringa qo'yiladi.

Masalan: Will you play in the garden?
Siz bog'da o'ynaysizmi?
Shall we play in the garden?
Biz bog'da o'ynaymizmi?

Inkor shakl yasalayotganda **yordamchi fe'ldan (shall yoki will)** keyin **not** inkori qo'yiladi.

Masalan: I shall not play in the garden.
Men bog'da o'ynamayman.
We will not play in the garden.
Biz bog'da o'ynamaymiz.

IX. Ingliz tilidagi gapda so'zlar tartibi

Ingliz tilidagi gapda so'zlar qat'iy o'ringa ega bo'ladi.

Tasdiq gaplarda birinchi o'rinda **ega**, keyin **kesim**, keyin **to'ldiruvchi**, keyin **hol** turadi. **O'rin** va **payt holi** gap boshida ham turishi mumkin.

Masalan:

- 1) We can watch TV in the evening.
Biz kechqurun TV ko'ramiz.
- 2) In the evening we can watch TV.
Kechqurun biz TV ko'ramiz.
- 3) I was in the theatre yesterday.
Men kecha teatrda bo'ldim.
- 4) Yesterday I was in the theatre.
Kecha men teatrda bo'ldim.

So'roq gap tuzilayotganda **to be, to have, can, may, must fe'llari** birinchi o'ringa, ya'ni egadan oldin qo'yiladi. Hol bu o'rinda, albatta, gap oxirida turadi.

Masalan:

- 1) Can we watch TV in the evening?
Biz kechqurun TV ko'ramizmi? (ko'ra olamizmi?)
- 2) Were you in the theatre yesterday?
Siz kecha teatrda edingizmi?

Inkor gap tuzilayotganda **no, not fe'l-kesimdan** keyin turadi.

Masalan: We have not many children at school.
Bizning maktabda ko'p bola yo'q.
We were not in the theatre yesterday.
(Yesterday we were not in the theatre).
Biz kecha teatrda bo'lmagandik.

Agarda so'roq gapda **what, where, whose** va h.k. so'roq so'zlari bo'lsa, u **fe'l-kesim** oldidan qo'yiladi.

Masalan:

- What can you do? – Siz nima qila olasiz?
Where is my book? – Mening kitobim qayerda?
Who is in the room? – Xonada kim bor?
What is on the table? – Stolda nima turibdi?

IKKINCHI BO' LIM DARSLARIGA KALIT

1-darsga kalit

I. 1-dars tarjimasi

Birinchi dars

Birinchi yanvar. Dushanba

Men o'zbekcha gapiraman.	Janob Deyil o'zbek emas.
Men o'zbekman.	U angliyalik.
Men O'zbekistonda yashayman.	U Angliyada yashaydi.

Janob Deyilning o'g'li bor. O'g'lining ismi Jim. Jimning do'sti bor. Do'stining ismi Sem. Ular London yaqinida yashashadi. Sem – katta bola. U o'qishni va yozishni biladi. U maktabga boradi. U darslarini maktabdan keyin tayyorlaydi. Sem yakshanba kunlari kinoga boradi. U kinoga do'stlari bilan boradi.

Jim kichkina bola. U Lili bilan o'ynaydi. Lili Semning singlisi. Jim va Lili bog'da o'ynashadi. Ular Rumbo bilan yugurishadi. Rumbo – Jimning kuchukchasi. Ba'zan bolalar futbol o'ynashadi. Lilining kichkina qora koptogi bor.

Jim juda tez yugura oladi va yuqori sakray oladi. Lili yaxshi yugura oladi, ammo umuman sakray olmaydi; uning oyoqlari judayam kalta, judayam kichkina. Ammo u koptokni uzata oladi. U koptokni uzatayotganda jilmayadi. U chap oyog'i bilan uzatadi. Jim va Lili – juda yaxshi do'stlar.

II. I topshiriqqa kalit.

1. Men inglizcha gapiraman.
2. Men o'zbekcha gapiraman.
3. Men O'zbekistonda yashayman.
4. Men inglizcha kitoblarni o'qiy olaman.

5. Ular Londonda yashashadi.
6. Ular maktabga uzoq bo'lmagan joyda yashashadi.
7. Lili kinoga uzoq bo'lmagan joyda yashaydi.
8. Jim juda yaxshi futbol o'ynaydi.
9. Ba'zan bolalar bog'da o'ynashadi.
10. Ba'zan ular kinoga borishadi.
11. Biz yakshanba kunlari kinoga boramiz.
12. Biz futbol o'ynashni bilamiz.

III. II topshiriqqa kalit.

1. Mr. Dale lives in London.
2. Monday, the first of January.
3. Sometimes he does his lessons on Sunday.
4. Can you play football? – Yes, I can.
5. This boy jumps very high.
6. Lily's feet are small.
7. She always smiles.
8. This girl kicks the ball with her left foot.
9. Mrs. Dale can draw.
10. She lives in London too.

IV. III topshiriqqa kalit.

1. Sem va Jim – ingliz bolalari.
2. Ular Angliyada yashashadi va o'zaro juda yaxshi do'st.
3. Janob Deyil – Jimning otasi.
4. Deyil xonim – Jimning onasi. Uning ikkita bolasi bor.
5. Lilining otasi – shifokor. Lilining onasi yo'q.
6. Janob Kristin – Semning otasi. Sem – katta bola. U maktabga boradi. Sem barcha darslarini maktabdan keyin tayyorlaydi.
7. Jimning bitta dugonasi va ikkita do'sti bor.
8. Rembo kimning kuchukchasi? – Jimning.

9. Sen chap oyog'ingda to'p tepa olasanmi? – Yo'q, tepa olmayman.
10. Sem kinoga borayotganda, o'zi bilan Jimni olib ketadi.
11. Dushanba – haftaning birinchi kuni.
12. Yanvar – yilning birinchi oyi.

V. V topshiriqqa kalit.

Suhbat.

Jim: Buyoqqa kel, Lili. Kel, maktab-maktab o'ynaymiz.

Lili: Xohlamayman. Men yozishni bilmayman. Men judayam kichkinaman.

Jim: Men senga yordam beraman. Sening qalaming qayerda?

Lili: Mening qalamim yo'q. Men maktab-maktab o'ynamayman. Kel, futbol o'ynaymiz!

Jim: Yaxshi, sening koptoging qani?

Lili: Ana u! Men birinchi bo'lib tepaman. Qara, men qanday qilib to'pni uzata olaman.

Jim: Sen chap oyog'ing bilan tepayapsan. Sen bunday qilmasliging kerak.

Lili: Nima uchun bunday qilmasligim kerak? Bu mening koptogim. Men uni qanday istasam shunday tepaman. Men sen bilan o'ynashni istamayman.

Jim: Sen judayam ahmoq qizsan. Men she'r bilaman:
Mitti Lili juda ahmoq.

Lili: Men ham she'r bilaman:
Sen sabzi kabi qizilsan.

Sen ahmoq, sen to'tiqush.

Jim: O, bu sening she'ring emas. Bu kimning she'ri?

Lili: Semniki.

Jim: Sen yoqimsiz qizsan, men seni ta'ziringni berib qo'yaman.

Lili: Yo'q, ta'zirimni berolmaysan. Men juda tez yugura olaman. Mana bunday! Xayr, Sabzivoy!

VI. I darsga tushuntirish.

1) Hozirgi zamon oddiy fe'li (Present Indefinite Tense)

Present Indefinite Tense hozirgi oddiy zamon fe'lida odatda yoki doimiy sodir bo'ladigan harakatlarni ifodalash uchun ishlatiladi.

Present Indefinite Tense fe'lining to yuklamasisiz noaniq shakli yordamida hosil qilinadi. III shaxs birlikda (**he, she, it**) fe'llar **-s** tugallanmasiga ega bo'ladi.

Masalan:

Birlik son

1. I speak

2. You speak

3. He speaks

She speaks

It speaks

Ko'plik son

1. We speak

2. You speak

3. They speak

Agarda fe'l **-o** yoki **-ss, -sh** harflari bilan tugasa, III shaxs birlikda fe'llarga [ɪz] deb o'qiladigan **-es** qo'shimchasi qo'shiladi.

I go [gou]

You go [gou]

He goes [gouz]

She goes [gouz]

It goes [gouz]

2) Ingliz tilida kishilik olmoshlari faqat ikkita kelishikka ega. Bular bosh va to'ldiruvchi kelishiklar. Ingliz tilidagi to'ldiruvchi kelishigi to'rtta kelishik: tushum, jo'nalish, birgalik va old ko'makchili kelishiklar o'rni keladi.

Birlik son

Kishilik olmoshlarining bosh kelishigi

1. I [aɪ] – men
2. you [ju:] – sen, siz
3. $\left\{ \begin{array}{l} \text{he [hi:] – u} \\ \text{she [ʃi:] – u} \\ \text{it [ɪt] – u (narsalar va} \\ \text{hayvonlar uchun)} \end{array} \right.$

Kishilik olmoshlarining to'ldiruvchi kelishigi

- me [mi:] – mening, menga
you [ju:] – sening, senga;
sizning, sizga
him [hɪm] – uning, unga
her [hə:] – uning, unga
it [ɪt] – uning, unga

Ko'plik son

Bosh kelishik

1. we [wi:] – biz
2. you [ju:] – siz
3. they [ðei] – ular

To'ldiruvchi kelishik

- us [ʌs] – bizning, bizga
you [ju:] – sizning, sizga
them [ðem] – ularning,
ularga

Masalan:

Give me a book.

Give him a book.

Give her a book.

Give us books.

Give them books.

Menga kitobni ber.

Unga kitobni ber.

Unga kitobni ber.

Bizga kitobni ber.

Ularga kitobni ber.

- 3) O'zbek tilidagi o'yin o'ynamoq ingliz tilida quyidagicha shaklda bo'ladi.

Masalan:

I play volley-ball.

He plays football.

Men voleybol o'ynayman.

U futbol o'ynaydi.

- 4) up [ʌp] ko'makchisi yuqoriga harakat degan ma'noni anglatadi.

Masalan:

Stand up! ['stænd'ʌp] – Tur!

Jump up! ['dʒʌmp'ʌp] – Sakra!

- 5) Ingliz tilidagi **with** ko'makchili ot *bilan* deb tarjima qilinadi.

Masalan:

with a ball – koptok bilan

with her left foot – chap oyoq bilan

with a knife – pichoq bilan

- 6) **igh** harflari doimo [aɪ] deb o'qiladi.

Masalan: high [haɪ] – baland

night [naɪt] – tun

- 7) Ingliz tilida tana a'zolari yoki kiyimlarni ifodalaydigan otlar oldidan deyarli har doim egalik olmoshi qo'yiladi. U ko'pincha o'zbek tiliga tarjima qilinmaydi.

Masalan:

He kicks the ball with his left foot.

U koptokni chap oyog'i bilan tepadi.

He puts on his coat.

U paltosini kiyadi.

- 8) Kun va oy nomlari doimo bosh harf bilan yoziladi.

Masalan:

Sunday ['sʌndɪ] – yakshanba

Monday ['mʌndɪ] – dushanba

January ['dʒænjʊəri] – yanvar

- 9) O'qishda urg'u artiklga tushgan bo'lsa, old qo'shimcha va olmosh tushib qolmaydi.

VII. 1-darsga mashq uchun mashg'ulot.

Ushbu kalitlardan foydalangan holda kattalar bolalarga gaplarni ingliz tilidan o'zbek tiliga va aksincha, og'zaki tarzga qaytarishni tavsiya qilishadi.

- | | |
|--|---|
| 1. I speak English. | 1. Men inglizcha gapiraman. |
| 2. I speak Russian. | 2. Men ruscha gapiraman. |
| 3. I live in Russia. | 3. Men Rossiyada yashayman. |
| 4. He lives in London. | 4. U Londonda yashaydi. |
| 5. I play football every day. | 5. Men har kuni futbol o'ynayman. |
| 6. Lily lives not far from London. | 6. Lili London yaqinida yashaydi. |
| 7. Sam lives not far from his school. | 7. Sem maktabiga yaqin joyda yashaydi. |
| 8. Jim lives not far from the cinema. | 8. Kim kinoteatr yaqinida yashaydi. |
| 9. Sometimes they play in the garden. | 9. Ba'zan ular bog'da o'ynashadi. |
| 10. Sometimes we go to the cinema on Monday. | 10. Ba'zan biz kinoga dushanba kunlari boramiz. |
| 11. Sometimes we run with our dog. | 11. Biz ba'zan itimiz bilan yuguramiz. |
| 12. Mr. Dale is not Russian. | 12. Janob Deyil rus emas. |
| 13. He lives in England. | 13. U Angliyada yashaydi. |
| 14. Mrs. Dale is his wife. | 14. Deyil xonim – uning xotini. |
| 15. She can speak French. | 15. U fransuzcha gapira oladi. |

- | | |
|---|---|
| 16. Their friends are not English. | 16. Ularning do'stlari ingliz emas. |
| 17. Lily cannot jump very high. | 17. Lili juda baland sakray olmaydi. |
| 18. Birds fly very high. | 18. Qushlar juda baland uchishadi. |
| 19. That chair is too high for Lily. | 19. Bu stul Lili uchun judayam baland. |
| 20. Kick the ball! | 20. To'pni tep! |
| 21. Jim kicks the ball with his left foot. | 21. Jim to'pni chap oyog'i bilan tepadi. |
| 22. Sam can kick the ball with his left foot too. | 22. Sem ham chap oyog'ida to'p tepa oladi. |
| 23. Jim and Lily are very good friends. | 23. Jim va Lili juda yaxshi do'st. |
| 24. Sometimes Sam smiles when Lily kicks the ball. | 24. Lili to'pni tepayotganda ba'zan Sem jilmayadi. |
| 25. Her legs are too short. | 25. Uning oyoqlari judayam kalta. |
| 26. Her feet are too small. | 26. Uning oyoqlari judayam kichkina. |
| 27. Her little nose is very short too. | 27. Uning burni ham juda kichik. |
| 28. Lily cannot play volleyball at all. | 28. Lili umuman volleybol o'ynashni bilmaydi. |
| 29. Our children go to the cinema only on Sundays. | 29. Bizning bolalarimiz faqat yakshanba kunlari kinoga borishadi. |
| 30. Sam will not go to school on Monday, he is ill. | 30. Sem dushanba kuni maktabga bormaydi: u kasal. |
| 31. In January the nights are very dark and long. | 31. Yanvarda tunlar juda qorong'i va uzun bo'ladi. |

- | | |
|---|--|
| 32. She speaks English very well. | 32. U ingliz tilida juda yaxshi gapiradi. |
| 33. Sam gets up at seven. | 33. Sem yettida uyg'onadi. |
| 34. He goes to school very early. | 34. U juda erta maktabga ketadi. |
| 35. He does his lessons after school. | 35. U maktabdan keyin darslarini tayyorlaydi. |
| 36. When Lily plays with her tame quail, she always smiles. | 36. Lili qo'lga o'rgatilgan bedanasi bilan o'ynaganda doimo jilmayadi. |
| 37. We shall go to the cinema on the first of January. | 37. Biz birinchi yanvar kuni kinoga boramiz. |
| 38. Can Mr. Dale speak French?
No, he can't. | 38. Janob Deyil fransuzcha gapira oladimi?
Yo'q, gapira olmaydi. |
| 39. Will you read this book?
No, I won't. | 39. Siz bu kitobni o'qiy-sizmi?
Yo'q, o'qimayman. |
| 40. Shall I read?
Yes, read, please. | 40. O'qiyveraymi?
Ha, marhamat, o'qi. |
| 41. Shall we take Roombo with us?
No, we shall not. | 41. Biz Rumboni o'zimiz bilan birga olamizmi?
Yo'q, olmaymiz. |
| 42. Whose shoes are under the sofa?
Lily's. | 42. Divanning tagida turgan tuflilar kimniki?
Lilini. |
| 43. Lily's shoes are too small for Sam's feet. | 43. Lilining tuflisi Semning oyog'i uchun judayam kichkina. |
| 44. Our horse kicks. | 44. Bizning ot tepadi. |

VIII. I dars matnidan istalgan parchani aytib bering (*kitobdan qarab tekshiring*).

IX. Yozma ish o'tkazish uchun I dars matnidan foydalanish mumkin.

2-darsga kalit

I. 2-dars tarjimasi.

Ikkinchi dars.

Ikkinchi fevral. Seshanba.

Biz juda yaxshi o'qiymiz.

Biz yaxshi o'quvchilarmiz.

Biz har kuni maktabga boramiz.

Siz bizning o'qituvchimizsiz. Siz bizning maktabdan olisda yashaysiz. Vudlend xonim ham bizning o'qituvchimiz. U bizga fransuz tilidan dars beradi. U fransuz tilida juda yaxshi gapiradi. Biz darslarni yaxshi bilsak, Vudlend xonim bizga yaxshi baho qo'yadi. Meni fransuz tili yozma ishidan bahoyim "5". Semda "ikki". U har doim har bir yozma ishda juda ko'p xato qiladi. Garchi u ko'p o'qisa ham, bitta yozma ishda ba'zan o'nta, ba'zan o'n beshta xato qiladi. U har bir qatorda ikkita yoki uchta xato qiladi.

Bu yozma ish judayam uzun. Unda yigirma ikkita qator bor. Sem juda ko'p xato qiladi. Men ham xato qilaman. Bizning yozma ishda qiyin so'zlar ko'p.

Men Sem "ikki" oladi, deb o'ylayman.

Men bugun "uch" olaman, deb o'ylayman.

II. III topshiriqqa kalit.

Bugun Sem, Jim va Lili bog'da o'ynashadi. Osmon ko'm-ko'k. Daraxtlar yashil. O'tlar turli rangda.

Lili qoqigul, atirgul va binafshalarni yaxshi ko'radi. Jim va Sem shaftoli va apelsin daraxtlarini yaxshi ko'radi. Ular bu o'simliklar janubda o'sishini bilishadi.

Rumbo bilan Reni ham bog'da.

Ular ulkan archa soyasida uxlayapti. Siz kun issiq bo'lganda Rumbo soyada uxlashni yaxshi ko'rishini bilasiz-ku.

II. IV topshiriqqa kalit.

Sem: Qarang! Qarang! Anavi qarag'ayda malla olmaxon!

Lili: Qani u? Qani olmaxon?

Sem: U daraxtning eng tepasida.

Lili: Olmaxonlar yong'oqni yaxshi ko'radi.

Sem: U naqadar aqlli qiz!

Lili: Aqlli qiz ekanligimni bilaman. Men judayam aqlliman.

Jim: Yo'q, aqlli emassan. Men judayam yaxshi she'r bilaman.

Sem va Lili: Qanday she'r?

Jim: Mitti Lili judayam ahmoq.

Lili: Yo'q, men ahmoq emasman.

(Uning judayam jahli chiqadi va uyiga ketadi.)

IV. 2-darsga tushuntirish.

1) I got a *five* ifodasi:

Men "besh" oldim, degan ma'noni anglatadi.

I think I shall get a *five* ifodasi:

O'ylaymanki, men "besh" olaman, degan ma'noni anglatadi.

I have got yoki qisqartirilgan **I've got** *menda bor, men egaman*, degan ma'noni anglatadi.

Masalan:

I've got many pencils.

Menda ko'p qalam bor.

I've got a new dress.

Menda yangi ko'ylak bor.

- 2) **a lot** yoki **a lot of**, **lots of** ifodalari *juda ko'p, bir talay, ko'p sonli, ko'p*, degan ma'noni anglatadi.

Masalan:

He reads a lot. U ko'p o'qiydi.
He has a lot of friends. Uning ko'p do'stlari bor.
He has lots of friends. Uning bir talay do'stlari bor.

- 3) Eslab qoling:

to do lessons – dars tayyorlamoq
to make mistakes – xato qilmoq

Masalan:

Sam makes a lot of mistakes.
Sem ko'p xato qiladi.
I always do my lessons after school.
Men har doim maktabdan keyin dars tayyorlayman.

- 4) So'zlashuvda quyidagi qisqartmalar ishlatiladi:

I have = I've	I am = I'm
he has = he's	he is = he's
I shall = I'll	we are = we're
he will = he'll	must not = mustn't
cannot = can't	

- 5) **what** – *nima* – so'roq so'zini **what** – *nima* – ikki gapni bog'lovchi so'z bilan adashtirib yubormang.

Masalan:

What stands in your room?
Xonangizda nima turibdi?
I know **what** you mean.
Siz nimani nazarda tutayotganingizni bilaman.

- 6) Ergash qo'shma gap ko'pincha **that** bog'lovchisiz yoziladi.

Masalan:

I think (that) I'll get a *five*.
O'ylaymanki, men "besh" olaman.

7) **good** – yaxshi – sifati (*qanaqa?*) u aniqlab keladigan ot oldidan qo‘yiladi.

Masalan:

Jim is a **good** boy.

Jim – yaxshi bola.

well – yaxshi – ravishi (*qanday?*) u aniqlab keladigan fe‘ldan keyin qo‘yiladi.

Masalan:

He learns **well**. – U yaxshi o‘qiydi.

8) **to speak English (German, French, Russian)** – ingliz (nemis, fransuz, rus) *tilida gapirmoq* ifodasi doimo birgalikda qo‘llaniladi.

V. 2-darsga mashq uchun mashg‘ulot (*yozma tarjima uchun gap*).

Masalan:

I can speak English a little.

Men ozroq ingliz tilida gapirishni bilaman.

That man speaks German very well.

U odam nemis tilida juda yaxshi gapiradi.

9) Eslab qoling: sanalar va kunlar haqida **on** old ko‘makchisi bilan gapiriladi.

Masalan:

on Tuesday [ɔn'tju:zdɪ] – seshanbada

on Sunday [ɔn'sʌndɪ] – yakshanbada

on the second of January – ikkinchi yanvarda

on the first of February – birinchi fevralda

10) **tion** va **ssion** harf birikmalari [ʃn] deb o‘qiladi.

Masalan:

dictation [dɪk'teɪʃn] – diktant

Russian [rʌʃn] – ruscha

11) **ear** harf birikmasi so‘z oxirida [ɪə] deb o‘qiladi.

Masalan:

near [nɪə] – atrofida, yaqinida

dear [dɪə] – azizim

Agarda **ear** birikmasidan keyin undosh tovush turgan bo'lsa, u [ə:] deb o'qiladi.

Masalan:

early ['ɜ:li] – erta, vaqtli

to learn [lə:n] – o'rganmoq

V. 2-darsga mashq uchun mashg'ulot
(og'zaki tarjima uchun gap).

- | | |
|--|---|
| 1. I learn English. | 1. Men ingliz tilini o'r-ganyapman. |
| 2. You learn Chinese. | 2. Siz Xitoy tilini o'r-ganyapsiz. |
| 3. We learn French. | 3. Biz fransuz tilini o'r-ganyapmiz. |
| 4. They learn very well. | 4. Ular juda yaxshi o'qi-shadi. |
| 5. She speaks English very well. | 5. U ingliz tilida juda yaxshi gapiradi. |
| 6. He speaks Russian a little. | 6. U ozgina rus tilida gapiradi. |
| 7. Mrs. Woodland cannot speak Russian at all. | 7. Vudlend xonim rus tilida umuman gapira olmaydi. |
| 8. She can read Russian books, but she cannot speak Russian. | 8. U rus tilidagi kitoblarni o'qiy oladi, ammo rus tilida gapira olmaydi. |
| 9. She is our teacher. | 9. U bizning o'qituvchimiz. |
| 10. Sam reads a lot of books, but he makes very many mistakes. | 10. Sem juda ko'p kitob o'qiydi, ammo juda ko'p xato qiladi. |

- | | |
|--|---|
| <p>11. How many lines are there in that rhyme?</p> <p>12. There are twelve lines in it.</p> <p>13. Are there many difficult words in this book?
Yes, there are.</p> <p>14. I think I'll get a <i>five</i> for my Russian dictation.</p> <p>15. I read English books though I cannot speak English.</p> <p>16. I've got a lot of nuts.</p> <p>17. I've got a lot of red pencils.</p> <p>18. I've got a good pen-knife.</p> <p>19. Sam makes too many mistakes in his dictations.</p> <p>20. He can make twenty mistakes in one dictation.</p> <p>21. How many cups are there on the table?
There are only four.</p> <p>22. How many French words are there in your copy-book?
Lots of them.</p> | <p>11. Anavi she'rda nechta qator bor?</p> <p>12. Unda yigirmata qator bor.</p> <p>13. Bu kitobda qiyin so'zlar ko'pmi?
Ha.</p> <p>14. Men rus tili yozma ishidan "besh" olaman, deb o'ylayman.</p> <p>15. Garchi ingliz tilida gapira olmasam ham, inglizcha kitoblarni o'qiy olaman.</p> <p>16. Menda juda ko'p yong'ochlar bor.</p> <p>17. Menda juda ko'p qizil qalamlar bor.</p> <p>18. Menda yaxshi qalamta-rosh bor.</p> <p>19. Sem o'z yozma ishlarida juda ko'p xato qiladi.</p> <p>20. U bitta yozma ishda 20 ta xato qilishi mumkin.</p> <p>21. Stolda nechta finjonlar bor?
Faqat to'rtta.</p> <p>22. Sening daftaringda nechta fransuzcha so'z bor?
Juda ko'p.</p> |
|--|---|

23. How many mistakes are there in Sam's dictation?

There are very many.

24. The teacher gives Sam a *five* when he knows his lesson very well.

25. The teacher gives him a *two* when he makes too many mistakes.

26. Mrs. Woodland speaks English very well though she is French.

27. She cannot speak Russian though she reads Russian books.

28. Jim thinks that he will get a *five* for his English dictation: but he cannot write at all.

29. He thinks that Sam is not a good pupil.

30. I think (that) I'll make a lot of mistakes.

31. Is *five* a good mark?

Yes, it is.

32. Is *two* a good mark? No, it is not. It is bad.

33. Mrs. Woodland gives French Lessons to our girls.

23. Semning diktantida nechta xato bor?

Juda ko'p.

24. Sem o'z darsini juda yaxshi bilsa o'qituvchi unga "besh" qo'yadi.

25. U juda ko'p xato qilganda o'qituvchi unga "ikki" baho qo'yadi.

26. Vudlend xonim garchi u fransuz bo'lsa ham inglizchada juda yaxshi gapiradi.

27. U garchi ruscha kitoblarni o'qisa ham ruscha gapira olmaydi.

28. Jim ingliz tili yozma ishidan "besh" olaman, deb o'ylayapti, ammo u umuman yozishni bilmaydi.

29. U Semni yomon o'quvchi deb o'ylayapti.

30. Men juda ko'p xato qilaman, deb o'ylayman.

31. "Besh" - yaxshi bahomi?

Ha.

32. "Ikki" yaxshi bahomi? Yo'q, yomon baho.

33. Vudlend xonim bizning qizlarimizga fransuz tilidan dars beradi.

- | | |
|---|--|
| 34. Jim won't do his lessons, he is lazy. | 34. Jim darslarini tayyorlashni istamaydi, u yalqov. |
| 35. He won't learn difficult words. | 35. U qiyin so'zlarni o'rganishni istamaydi. |
| 36. You must learn English words every day. | 36. Siz inglizcha so'zlarni har kuni o'rganishingiz kerak. |

VI. 9-betdagi III mashqdan foydalanib diktant yozing.

3-darsga kalit

1. 3-dars tarjimasini.

Uchinchi dars.

Uchinchi mart. Chorshanba

Siz inglizcha gapirasiz.

U pianino chaladi.

Siz fransuzcha gapirasizmi?

U pianino chaladimi?

Yo'q, men fransuzcha gapirmayman.

Yo'q, u pianino chalmaydi.

U meni tushunadimi?

Ha (tushunadi).

Bola uning ovozi eshitadimi?

Ha (eshitadi).

Bolalar ko'lga borishadi

Bir kuni Jim Liliining otasi janob Kristinga dedi:

– Janob Kristin, biz ko'lga bormoqchimiz. Ko'lda baliq ko'p. Biz baliq tutamiz, keyin esa ozgina cho'milamiz. Lilini o'zimiz bilan olib borsak maylimi? Endi suv iliq.

– Siz bilan kim boradi? – so'raydi janob Kristin.

– Sem boradi, Xyu ham, – deydi Jim.

– Kim u Xyu? Men uni tanimayman, – deydi janob Kristin.

– Xyu – mening yangi do‘stim. U sizning yaqiningizda yashaydi. U yaxshi bola va suzishni juda yaxshi biladi, – javob beradi Jim.

– Sen ham suzishni bilasanmi? – so‘raydi janob Kristin.

– Albatta, bilaman. Men yaxshi suzaman, – deydi Jim.

– Agar sen va Xyu suzishni bilsangiz, Lilini birga olib ketishlaringiz mumkin. O‘g‘lim Semning oyoqlari juda uzun, ko‘l esa chuqur emas, – deydi janob Kristin. U Jimga qarab jilmayadi.

Shundan so‘ng Jim Lilining oldiga yo‘l oladi. U o‘zining xonasida. U Jimning ovozi eshitadi, ammo o‘zining mitti mushukchasini qoldirib ketolmaydi. Mushukcha kasal, u karavotda.

– Kirsam maylimi, Lili? – so‘raydi Jim.

– Ha, ha, kir! – javob qiladi Lili zaif ohangda, – O, Jim, qara mushukcham kasal!

– Lili, biz bilan ko‘lga borishni xohlaysanmi? – so‘raydi Jim. U Lilining mushukchasiga qaramaydi.

– Bilmayman, men bechora mushukchamni qoldirib ketolmayman. Men borib, otamdan iltimos qilaman, – deydi Lili.

– Otang borishing mumkinligini aytdi, – javob beradi Jim.

– O, men mushukchamni qoldirib ketolmayman! – deydi yana qizaloq.

– Unda uni ham olib ketamiz. Biz uni ko‘lda cho‘miltiramiz. Bu mushukcha uchun juda yaxshi bo‘ladi, – deydi Jim va jilmayadi.

– Yo‘q, men bechora mushukchamni uyda qoldiraman, – deydi Lili. – Sen mushuklarni qanday cho‘miltirishni bilmaysan?

– Albatta, bilaman. Men hattoki otlarni qanday cho‘miltirishni ham bilaman, – deydi bola. – Men tez-tez ularni cho‘miltirib turaman.

– O, Jim, sen ko‘p narsani bilasan, – deydi qizaloq. – Sen baliq tutishni bilasanmi?

– Albatta, bilaman, – deydi Jim.

– Menga kapalak tutib berasanmi? Xonqizini hammi? Kichkina yashil kaltakesakni-chi? – so‘raydi Lili.

– Tutaman, albatta, – deydi yana Jim.

(davomi bor)

II. III topshiriqqa kalit.

1. Bolalar qayerga borishmoqchi?

They want to go to the lake.

Ular ko‘lga borishmoqchi.

2. Bir kuni Jim janob Kristinga nima dedi?

He says: “Mr. Christine, we want to go to the lake to catch fish.”

U “Janob Kristin, biz ko‘lga borib, baliq ovlamoqchimiz”, – dedi.

3. Lilining otasi nima deb javob beradi?

He says: “If you can swim, you may take Lily with you”.

U “Agarda siz suzishni bilsangiz, Lilini birga olib ketishingiz mumkin” deydi.

4. Jim bilan ko‘lga kim boradi?

Lily’s brother Sam and Jim’s new friend Hugh go to the lake with him.

Lilining akasi Sem va Jimning yangi do‘sti Xyu ular bilan ko‘lga borishadi.

5. Uning yangi do‘stining ismi nima?

His name is Hugh.

Uning ismi Xyu.

6. U katta bolami?
Yes, he is.
Ha, katta.
7. Xyu qayerda yashaydi?
He lives not far from Mr. Christine's.
U janob Kristinga uncha uzoq bo'lmagan joyda yashaydi.
8. Janob Kristin uni taniydimi?
No, he doesn't.
Yo'q, tanimaydi.
9. Ko'lning suvi iliqmi?
Yes, the water in the lake is very warm.
Ha, ko'lning suvi juda iliq.
10. Ko'l chuqurmi?
No, it is not deep at all.
Yo'q, u umuman chuqur emas.
11. Kimning oyoqlari juda uzun?
Sam's legs are very long.
Semning oyoqlari juda uzun.
12. Lilining oyoqlari uzunmi yoki kalta?
Lily's feet are very small.
Lilining oyoqlari juda kalta.
13. Bolalar suzishni bilishadimi?
Yes, they can.
Ha, bilishadi.
14. Ular yaxshi suzishadimi?
Yes, they swim very well.
Ha, ular juda yaxshi suzishadi.
15. Janob Kristin Jimdan nima so'raydi?
He asks him: "Can you swim?"
U undan "Sen suzishni bilasanmi" deb so'raydi.
16. Jim unga nima deb javob beradi?
Jim answers: "Of course, I can."
Jim "Albatta, bilaman", deb javob beradi.

17. Nima uchun Lili ko'lga borishni istamayapti?
Because her little kitten is ill.
Chunki uning mitti mushukchasi kasal.
18. Nima uchun u o'zining mushukchasini ko'lga olib borishni istamayapti?
Because Jim wants to wash it.
Chunki Jim uni cho'miltirmoqchi.
19. Uning mushukchasi qayerda?
It is in bed.
U yotoqda.
20. Lilining ovozi zaifmi yoki dadil?
Her voice is weak.
Uning ovozi zaif.
21. Jim uning ovozini eshityaptimi?
Yes, he does.
Ha.
22. Jim, otlarni qanday cho'miltirishni biladimi?
He says that he knows.
Uning aytishicha, u biladi.
23. Nima uchun Jim mushukchani cho'miltirmoqchi?
Because he thinks it will be good for the kitten.
Chunki u mushukcha uchun bu yaxshi bo'ladi, deb o'ylaydi.
24. Sen inglizcha gapirasanmi?
Yes, I do. I speak English a little.
Ha. Men ozroq inglizcha gapiraman.

III. IV topshiriqqa kalit.

1. Can you swim? – Yes, I can. (No, I cannot *yoki* can't.)
2. Do you swim well? – Yes, I do. (No, I don't.)
3. Can Hugh play the piano? – No, he cannot. (Yes, he can.)
4. Does Polly play the piano? – Yes, she does. (No, she doesn't.)

5. Does Jim like to go to the lake? – Yes, he does. (No, he doesn't.)
6. Does Roombo like Jim? – Yes, it does. (No, it doesn't.)
7. Does Jim like his puppy? – Yes, he does. (No, he doesn't.)
8. Who plays football very well? – Hugh does.
9. Who can speak French very well? – Mrs. Dale can.
10. Shall we go to the cinema today? – Yes, we shall. (No, we shall not.)
11. Will Lily go with us? – No, she won't. (No, she will not.) Yes, she will.
12. Why will Lily not go with us? – Because, she is ill.
13. Who must learn new words? – We must.
14. Must Mr. Dale go to London in March? – Yes, he must. (No, he must not.)

IV. V topshiriqqa kalit.

Qaysi hayvonning bo'yni eng uzun?

The giraffe has the longest neck.

V. 3-darsga tushuntirish.

1) Present Indefinite Tense.

(Hozirgi zamon oddiy fe'li)

Present Indefinite uchta shaklga ega:

Tasdiq	Inkor	So'roq
I read	I do not read	Do I read?
You read	You do not read	Do you read?
He reads	He does not read	Does he read?
She reads	She does not read	Does she read?
It reads	It does not read	Does it read?
We read	We do not read	Do we read?
You read	You do not read	Do you read?
They read	They do not read	Do they read?

Hozirgi oddiy zamonning inkor va so'roq shaklini yasash uchun **do (does – III shaxs birlik)** yordamchi fe'lidan foydalaniladi. So'roq gap yasash uchun **do (does)** egadan oldin qo'yiladi. **do (does)** o'zbek tilidagi fe'l oxiridagi *-mi?* so'roq so'zini bildiradi.

Masalan:

Do you read English? – Siz inglizcha o'qiysizmi?

Does he want to play with us? – U biz bilan o'ynashni xohlaydimi?

Hozirgi oddiy zamonning inkor shakli **do (does)** yordamchi fe'li va uning orqasidan qo'yiladigan **not** inkori yordamida yasaladi.

Masalan:

I do not read English well. – Men inglizchada yaxshi o'qiyolmayman.

He does not want to go to the lake. – U ko'lga borishni xohlamaydi.

Yordamchi fe'l bilan boshlanaganadigan savollarga shu yordamchi fe'llar bilan javob beriladi. Javob asosan qisqa bo'ladi.

Masalan:

Do you like to read books? – **Yes, I do.**

No, I do not.

Does he like to read books? – **Yes, he does.**

No, he does not.

Can he speak English? – **Yes, he can.**

No, he cannot.

2) **to do** fe'li shuningdek *qilmoq* ma'nosiga ham ega. U asosiy fe'l vazifasini ham bajaradi.

Masalan:

They do their lessons after school.

Ular darslarini maktabdan keyin *tayyorlashadi*.

What do you do in the evening?

Siz kechqurun nima *qilasiz*?

3) **often** so‘zi fe‘l oldidan qo‘yiladi, **very often** so‘z birikmasi esa gap oxirida qo‘yiladi.

Masalan:

We **often** play football.

They play volley-ball **very often**.

VI. 3-darsga mashq uchun mashg‘ulot

(o‘gzaki tarjima qilish uchun gap)

- | | |
|--|--|
| 1. He swims very well. | 1. U juda yaxshi suzadi. |
| 2. He wants to know English. | 2. U ingliz tilini o‘rganmoqchi. |
| 3. Does he learn well?
Yes, he learns very well. | 3. U yaxshi o‘qiydimi?
Ha, juda yaxshi o‘qiydi. |
| 4. Do you hear Lily’s voice?
Yes, I do. | 4. Siz Lilining ovozini eshityapsizmi?
Ha, eshityapman. |
| 5. Is her voice weak?
Yes, it is. | 5. Uning ovozi zaifmi?
Ha. |
| 6. Can you play the piano?
No, I can’t. | 6. Sen pianino chalishni bilasanmi?
Yo‘q, bilmayman. |
| 7. Do they often go to the cinema?
Yes, they go to the cinema very often. | 7. Ular tez-tez kinoga borishadimi?
Ha, ular juda tez-tez kinoga borishadi. |
| 8. Does Mrs. Dale go to the lake with the children?
Yes, she does. | 8. Deyil xonim ko‘lga bolalari bilan boradimi?
Ha, boradi. |

- | | |
|---|--|
| 9. Does Mr. Dale smoke?
Yes, he does. | 9. Janob Deyil chekadimi?
Ha. |
| 10. What does he smoke?
He smokes cigarettes. | 10. U nima chekadi?
U sigareta chekadi. |
| 11. Does your friend play
the piano?
Yes, he does. | 11. Sening do'sting pianino
chaladimi?
Ha, chaladi. |
| 12. Do you understand this
lesson?
Yes, I do. | 12. Sen bu darsni tushuna-
sanmi?
Ha, tushunaman. |
| 13. Does Jim often wash
his puppy?

Yes, he washes it very
often. | 13. Jim, tez-tez o'zining
kuchukchasini cho'mil-
tiradimi?
Ha, u uni juda tez-tez
cho'miltiradi. |
| 14. Does Roombo bite?
No, he doesn't bite at
all. | 14. Rumbo tishlaydimi?
Yo'q, u umuman tishla-
maydi. |
| 15. Is he a clever dog?
Of course, he is. | 15. U aqlli itmi?
Albatta. |
| 16. Do you speak Eng-
lish?
No, I don't. | 16. Sen inglizcha gapira-
sanmi?
Yo'q. |
| 17. Do you go to school?

Yes, I do. | 17. Sen maktabga bora-
sanmi?
Ha. |
| 18. Do you go to the ci-
nema?
Yes, we do. | 18. Siz kinoga borasizmi?

Ha, boramiz. |
| 19. Do you like to play
football?
No, I don't. | 19. Sen futbol o'ynashni
yaxshi ko'rasanmi?
Yo'q. |
| 20. Do you learn well?
Yes, I do. | 20. Sen yaxshi o'qiysanmi?
Ha. |

- | | |
|--|--|
| 21. Do your brothers go to the cinema?
Yes, they do. | 21. Sening akalaring kino-ga borishadimi?
Ha. |
| 22. Do your friends know me?
Yes, they do. | 22. Sening do'stlaring meni bilishadimi?
Ha. |
| 23. Do girls play football?

No, they don't. | 23. Qizlar futbol o'ynashadimi?
Yo'q. |
| 24. Does your dog bite?

No, it doesn't. | 24. Sizning itingiz tishlaydimi?
Yo'q. |
| 25. Do wolves bite?
Yes, they do. | 25. Bo'rilar tishlaydimi?
Ha. |
| 26. Do squirrels like nuts?

Yes, they do. | 26. Olmaxonlar yong'oqni yaxshi ko'radimi?
Ha. |
| 27. Do rabbits like apples?

Yes, they do. | 27. Quyonlar olmani yaxshi ko'radimi?
Ha. |
| 28. Do goats like milk?

No, they don't. | 28. Echkilar sutni yaxshi ko'radimi?
Yo'q. |
| 29. Does your teacher live here?
Yes, she does. | 29. Sening o'qituvching shu yerda yashaydimi?
Ha. |
| 30. Does she give you English lessons?
Yes, she does. | 30. U sizga ingliz tilidan dars beradimi?
Ha. |
| 31. Does she give you good marks?
No, she doesn't. | 31. U sizga yaxshi baho qo'yadimi?
Yo'q. |
| 32. Does she give you bad marks?
Yes, she does. | 32. U sizga yomon baho qo'yadimi?
Ha. |

33. Can Sam learn well?
No, he can't. He is too lazy.
34. Can Jim write well?
No, he can't. He is too little.
35. Has Sam many friends?
No, he has not.
36. Does Lily's father play the piano?
Yes, he does.
37. Can he play well?
Yes, he can.
38. What is your dog's name?
My dog's name is Wolf.
39. Does it bite?
Yes, it does.
40. Is your dog clever?
Yes, it is.
41. Do you like to write English dictations?
No, I don't.
42. Do you like to read English books?
Of course, I do.
33. Sem yaxshi o'rgana oladimi?
Yo'q. U judayam yalqov.
34. Jim, yaxshi yoza oladimi?
Yo'q. U judayam kichkina.
35. Semning do'stlari ko'pmi?
Yo'q.
36. Lilining otasi pianino chaladimi?
Ha.
37. U yaxshi chala oladimi?
Ha.
38. Sening itingning otinima?
Mening itimning otin Bo'ri.
39. U tishlaydimi?
Ha.
40. Sening iting aqllimi?
Ha.
41. Senga ingliz tilidan yozma ish yozish yoqadimi?
Yo'q.
42. Sen inglizcha kitoblarni o'qishni yaxshi ko'rasanmi?
Albatta, yaxshi ko'raman.

- | | |
|---|---|
| <p>43. Do you know many new words?
No, not many. Only one hundred.</p> <p>44. Do you often hear this ditty?
No, I don't.</p> <p>45. Is Tuesday the second or the third day of the week?
The second.</p> <p>46. Do you get up early in the morning?
Yes, I do.</p> <p>47. Do you like to play in the morning?
Yes, I do.</p> | <p>43. Sen ko'p yangi so'z-larni bilasanmi?
Yo'q, uncha ko'pmas. Atigi yuzta.</p> <p>44. Sen tez-tez bu <i>qo'shiq-ni</i> eshitasanmi!
Yo'q.</p> <p>45. Seshanba haftaning ikkinchi kunimi yoki uchinchisi?
Ikkinchi.</p> <p>46. Sen barvaqt turasanmi?
Ha.</p> <p>47. Sen ertalab o'ynashni yaxshi ko'rasanmi?
Ha.</p> |
|---|---|

4-darsga kalit

I. Matn tarjimasi.

To'rtinchi dars.

To'rtinchi aprel. Payshanba.

Bolalar ko'lga borishadi

(davomi)

Shunday qilib, bolalar ko'lga borishadi. Kun juda issiq, Lili chanqadi.

– Sem, ko'l bu yerdan uzoqmi? – so'raydi Lili.

– Yo'q, endi uzoq emas. Senga nima kerak? – so'raydi Sem.

– Isib ketdim. Suv ichgim kelyapti, – deydi uning singlisi zaif ovozda.

– Bizning suvimiz yo‘q. Ko‘ldan ichasan, u endi uzoq emas, – deydi unga akasi.

– Men ko‘ldan suv ichishni xohlamayman. U suv qaynamagan. Otam qaynamagan suv yaxshi emas deydi. Men ko‘lga borishni xohlamayman. Men isib ketdim. Menga ko‘l yoqmaydi. Ko‘lda qurbaqa va ilonlar bor. Men uyga qaytishni xohlamayman. Meni uyga olib keting! Mening qornim och. Men suv ichishni istayman. Menga suv bering! – deydi qizaloq labini cho‘chchaytirib.

– Yig‘lama! Aqlli qiz bo‘lgin (sen yaxshi qizsan-ku)! – deydi Jim.

– Men kichkina qizlarni yomon ko‘raman. Ularning hammasi yig‘loqi, – deydi Xyu.

Xyuning tez jahli chiqadi.

– Iltimos, Lili, yig‘lama! Ko‘l yaqin, – deydi Jim. Ammo Lili ko‘lga borishni xohlamaydi.

– O, sen biz bilan borishni xohlamaysanmi? Unda bor uyga, ahmoq qiz! – deydi Xyu.

– Men uyga bormayman! O‘zing uyga bor! Men o‘rmonga boraman! U yerda ko‘p bo‘ri bor. Ular meni yeb qo‘yadi. Shunda otam yig‘laydi, – va Lilining o‘zi ham yig‘lay boshlaydi.

Bolalar nima qilishni bilmay qolishadi. Ular juda g‘azablanishgan, ammo ular Lilini yolg‘iz qoldirib keta olishmaydi.

– Nima qilamiz? – so‘raydi Xyu.

II. III topshiriqqa kalit.

Savollar

1. Kim har doim tushlikdan keyin idishlarni yuvadi?

Lili stakanlarni yuva oladimi?

Javoblar

1. Lily does. She washes her plate, her fork, her knife and her spoon herself.

No, she cannot. It is difficult for her.

- | | |
|--|---|
| 3. Siz qachon qaytasiz? | 3. I'll come back at five. |
| 4. Sen stolda nimani ko'r-yapsan? | 4. I see three glasses, four saucers, two knives and one spoon on it. |
| 5. Siz qachon ingliz tili darslarini boshlaysiz? | 5. We shall begin in April. |
| 6. Sen do'stlaringni tez-tez ko'rib turasanmi? | 6. Yes, I see them very often. |
| 7. Sen ularni yana qachon ko'rasan? | 7. I think I'll see them on Wednesday or Thursday. |
| 8. Lili anavi eshikni o'zi ocha oladimi? | 8. No, she can't; she is too small. |
| 9. Sen darslaringni qachon tayyorlaysan? | 9. I do them every day after school. |
| 10. Sem qachon darslarini tayyorlaydi? | 10. He does them on Sunday. |

III. 4-darsga tushuntirish.

1) To'rt sonidan keyin sanoq sonlarga **-th** suffiksini qo'shish bilan tegishli tartib son yasaladi.

Masalan:

Sanoq sonlar:

6 – olti – six

10 – o'n – ten

Tartib sonlar:

6 chi – oltinchi – sixth

10 chi – o'ninchi – tenth

1, 2, 3, 5 sonlari bu qoidadan mustasno.

1 – one

2 – two

3 – three

5 – five

1 – first

2 – second

3 – third

5 – fifth

Tartib sonlar yasalayotganda 8, 9, 12 sonlari o'zgaradi.

8 – eight

9 – nine

12 – twelve

8-chi – eighth (t tushib qoladi)

9-chi – ninth (e tushib qoladi)

12-chi – twelfth (ve f ga o'zgaradi)

O'nliklarni anglatadigan sanoq sonlar tartib songa o'zgaranda -y tugallanmasi -ie ga o'zgaradi:

20 – twenty	20 – twentieth
50 – fifty	50 – fiftieth

Tartib sonlar oldidan **the** artikli qo'yiladi:

the first	– 1-	the twelfth	– 12-
the second	– 2-	the thirteenth	– 13-
the third	– 3-	the twenty-first	– 21-
the fourth	– 4-	the fifty-fifth	– 55-

IV. O'zlik olmoshi harakat aynan ishtirokchi shaxs tomondan amalga oshirilishini ta'kidlaydi; o'zbek tilida ularga o'zi so'zi mos keladi. Ingliz tilida har bir shaxsga o'ziga tegishli o'zlik olmoshlari mavjud:

I – myself	we – ourselves
you – yourself	you – yourselves
he – himself	they – themselves
she – herself	
it – itself	

O'zlik olmoshi yoki gap oxirida, yoki o'ziga taalluqli olmoshdan keyin keladi.

I'll do it myself.

They themselves will do it.

V. **to have** fe'li birikma bo'lib keladi. Bunda u ega bo'lmoq ma'nosini bildirmaydi.

Masalan:

to have breakfast – nonushta qilmoq

to have dinner – tushlik qilmoq

to have a rest – dam olmoq

to have a swim – suzmoq

“**to have**”li birikmasining savol va inkor shakli xuddi

oddiy fe'l shakllari kabi **do (does), don't (doesn't)** yor-camida yasaladi.

Masalan:

Do you have dinner at five or at six (o'clock)?

Siz soat beshda tushlik qilasizmi yoki oltida?

We don't have supper at all.

Biz umuman kechki ovqatni yemaymiz.

2) Bolalar bilan quyidagi ifodalarni o'rganing:

far from here – bu yerdan uzoq

it is not far – uzoq emas (yaqin)

There is a good girl! – Aqli qiz bo'! Aqli qiz!

Come along! – Qani ketdik! Ketdik!

He is warm. – Unga biroz iliq.

I am hot. – Men isidim.

She is not hot. – Unga issiq emas.

For shame! – Uyat emasmi!

In a weak voice – Zaif ovoz bilan

VI. 4-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|--------------------------------------|--|
| 1. What do you want? | 1. Nima istaysiz? |
| 2. What does she like? | 2. U nimani yaxshi ko'-radi? |
| 3. Where does she live? | 3. U qayerda yashaydi? |
| 4. What do the children do at night? | 4. Bolalar kechasi nima qilishadi? |
| 5. What do you do after school? | 5. Sen maktabdan keyin nima qilasan? |
| 6. What room do they sleep in? | 6. Ular qaysi xonada uxla-shadi? |
| 7. When do you have your dinner? | 7. Siz qachon tushlik qilasiz? |
| 8. When do children go to school? | 8. Bolalar qachon maktab-ga borishadi? |

- | | |
|--|--|
| 9. What newspaper does your father read? | 9. Otangiz qanday gazeta o'qiydi? |
| 10. Why does she cry so often? | 10. Nega u tez-tez yig'laydi? |
| 11. Do you like cats? | 11. Siz mushuklarni yaxshi ko'rasizmi? |
| 12. When will you go to the lake? | 12. Siz qachon ko'lga borasiz? |
| 13. When shall we go to the woods? | 13. Biz qachon o'rmonga boramiz? |
| 14. When does your teacher come to school? | 14. Sizning o'qituvchingiz qachon maktabga keladi? |
| 15. How many English books have you at home? | 15. Sizning uyingizda nechta inglizcha kitob bor? |
| 16. How much milk can your kitten drink now? | 16. Mushukchang hozir qancha sut ichishi mumkin? |
| 17. Does his horse kick? | 17. Uning oti tepadimi? |
| 18. Does your dog bite? | 18. Itingiz tishlaydimi? |
| 19. How old is Hugh? | 19. Xyuning yoshi nechada? |
| 20. Whose friend is Jim? | 20. Jim kimning do'sti? |
| 21. Whose shoes are under my bed? | 21. Mening karavotim ostidagi tufli kimniki? |
| 22. Whose umbrella is on my table? | 22. Mening stolimdagi soyabon kimniki? |
| 23. Why do they come so late? | 23. Nima uchun ular buncha kech kelishadi? |
| 24. Why does this baby cry at night? | 24. Nima uchun bu chaqaloq kechasi yig'laydi? |
| 25. Is the third lesson difficult? | 25. Uchinchi dars qiyinmi? |

26. Are there many new words in that English book?
27. Do you know how to write the fifth, the twelfth, the first?
28. Are the woods far from here?
29. Can you speak English a little?
30. Are you hot?
No, I am not.
31. Is the day warm?
Yes, it is.
32. Is the night warm?
No, it is not.
33. Are days hot in January?
No, they are not.
34. Is Sam a good pupil?
No, he is not.
35. Why does he make so many mistakes?
Because he is lazy.
36. Don't cry!
For shame!
You're a big boy.
37. Come along! There is a lot of fish in that river.
38. Do you want to drink some milk?
Yes, I do.
26. Anavi inglizcha kitobda yangi so'zlar ko'pmi?
27. Sen beshinchi, o'n ikkinchi, birinchini qanday yozishni bilasanmi?
28. O'rmon bu yerdan uzoqmi?
29. Siz biroz ingliz tilida gapirishni bilasizmi?
30. Isib ketdingmi?
Yo'q.
31. Kun iliqmi?
Ha.
32. Tun iliqmi?
Yo'q.
33. Yanvarda kunlar issiqmi?
Yo'q.
34. Sem yaxshi o'quvchimi?
Yo'q.
35. Nega u buncha ko'p xato qiladi?
Chunki, u yalqov.
36. Yig'lama!
Uyalmaysanmi!
Sen katta bolasan-ku?
37. Qani ketdik? Anavi daryoda baliq ko'p.
38. Sen sut ichishni xohlaysanmi?
Ha, xohlayman.

39. What else do you want?
I want some bread and butter.
40. Why does she always speak in a weak voice?
Because she is ill.
41. Why don't you want to drink from the river?

I don't drink raw water.
42. Why do you want to go home?
Because I'm hungry.
43. Who is a cry-baby?
Lily is.
44. Why do you call her a cry-baby?
Because she cries very often.
45. Do you want to go with them?
No, I don't.
46. Will you go with us?

No, I won't.
47. What shall I do?
I don't know.
48. Don't leave that girl here! Take her home!
49. Why do you always leave your book on my chair? Put it on the table.
39. Yana nima xohlaysan?
Sariyog' surilgan non xohlayman.
40. Nima uchun u har doim zaif ovoz bilan gapiradi? – Chunki, u kasal.
41. Nima uchun sen daryodan suv ichishni xohlamaysan?
Men qaynamagan suv ichmayman.
42. Nima uchun sen uyga qaytmoqchisan?
Chunki mening qornim och.
43. Kim yig'loqi?
Lili.
44. Nima uchun siz uni yig'loqi deysiz?
Chunki, u juda tez-tez yig'laydi.
45. Sen ular bilan birga borishni xohlaysanmi?
Yo'q, xohlamayman.
46. Sen biz bilan borasanmi?
Yo'q, bormayman.
47. Men nima qilay?
Bilmayman.
48. U qizni bu yerda qoldirmang! Uni uyga olib boring!
49. Nima uchun sen doimo kitobingni mening stulimda qoldirasan? Uni stolga qo'y.

- | | |
|--|---|
| <p>50. Why is this little dog always at your door?
Because I give it bread and milk.</p> <p>51. Do you do your English lessons yourself?</p> <p>No, my mother helps me.</p> <p>52. Does your mother know English?
Of course, she does.</p> | <p>50. Nima uchun bu kichkina it eshiging oldida o'tiradi? Chunki men unga non va sut beraman.</p> <p>51. Sen ingliz tilidan darslaringni o'zing tayyorlaysanmi?</p> <p>Yo'q, menga onam yordam beradi.</p> <p>52. Onang ingliz tilini biladimi?
Albatta, biladi.</p> |
|--|---|

5-darsga kalit

Beshinchi may. Juma.

1. She'r tarjimasi.

Tulki va qulf

“Qu—qu—qu!” — qichqirar xo‘roz.
 Buvi esnar. “Soat 2”.
 Chaqaloq uxlar. Tun uzoq.
 Buvi qo‘shiq kuylashni boshlar:
 “Omborxonada ho‘kiz bordir,
 Omborxona atrofida tulki yurar.
 Eshikda u qulfni ko‘rar,
 U ichkari kirolmas — qanday tashvish!
 Tulkining qorni och, tulkining jahli chiqar,
 U haqiqatan nima qilishin bilmas.
 Tulki xo‘rozni eshitar va hidini olar,
 Ammo u qulfni buza olmas”.
 Chaqaloq uxlar. Tun uzoq.
 Buvi, tebratib, qo‘shiq kuylar.

II. IV topshiriqqa kalit.

Savollar

1. Sen qachon turasan?
2. Sen maktabga borasanmi?
3. Senda qanday jonivorlar bor?
4. Sen qachon maktabdan uyga kelasan?
5. Soat sakkizda sen nima yeysan?
6. Sen nima ichasan?
7. Senga maktabga borish yoqadimi?
8. Siz maktabdan keyin nima qilasisiz?
9. Hozir soat necha?
10. Onang qani?

Qo'llash mumkin bo'lgan javoblar

1. I get up at eight o'clock.
2. Yes, I do. I go to school at nine o'clock.
3. I have a cat and her kittens, a dog, a tame squirrel and nine rabbits.
4. I come home from school at four o'clock.
5. I eat bread and butter, cheese, apples and pears.
6. I drink tea or milk.
7. Yes, I do. There are many boys and girls there.
8. We play in the woods. The woods are not far from our school.
9. It is six o'clock.
10. She is at home.

III. VI topshiriqqa kalit. Yangi so'zlarning ma'nosini topishga urinib ko'ring.

1. **a night-bird** ['naitbə:d] – tungi qush
2. **a rocking-chair** ['rɒkɪŋtʃeə] – tebranma kursi
3. **a field-mouse** ['fi:ldmaʊs] – dala sichqoni
4. **a sea-bird** ['si:bə:d] – dengiz qushi
5. **a woodman** ['wudmən] – o'rmonchi
6. **a snow man** ['snəʊ 'mæn] – qor odam
7. **a writing-table** ['raɪtɪŋteɪbl] – yozuv stoli

8. **a bedroom** ['bedrum] – yotoqxon
 9. **a soup-plate** ['su:pplet] – chuqur likopcha
 10. **a tea-spoon** ['ti:spu:n] – choyqoshiq

IV. 5-darsga tushuntirish.

1) Ingliz tilida gaplarning to'rtta shakli bor:

- a) tasdiq
 b) so'roq
 c) inkor
 d) inkor-so'roq

Ular muayyan ko'rinishda tuziladi, ya'ni gapning har bir bo'lagi o'zining muayyan o'rmini egallaydi.

a) Hozirgi oddiy zamonda tasdiq gaplardagi so'zlar quyidagi tartibda tuziladi:

I ega	II kesim	III to'ldiruvchi		IV hol
The boy	reads	a book	to Lily	in the garden.
My mother	gives	me	a nice apple.	

b) Hozirgi oddiy zamonda so'roq gap tuzishda so'zlar tartibi xuddi tasdiq gapdagidek (I – ega, II – kesim, III – to'ldiruvchi, IV – hol) bo'ladi, faqat ega oldidan **do** yordamchi fe'li qo'yiladi. III shaxs birlik sonda bu fe'l **does** shaklida bo'ladi, asosiy fe'ldagi **-s** tugallanmasi esa tushib qoladi.

Agarda gapda so'roq so'zi bo'lsa, u yordamchi fe'l oldidan qo'yiladi.

Masalan:

So'roq so'z	Yordam- chi fe'l	I	II	III	IV
Where	Does does	the boy the boy	take take	his sister his sister?	to the Zoo?

Agarda so'roq gap maxsus so'roq so'zi bilan boshlansa, unga javob to'liq berilishi kerak.

Masalan:

Where does the boy take his sister?

The boy takes his sister to the Zoo.

Agarda so'roq gap **do, does** yordamchi fe'llari bilan boshlansa, unga javob qisqa bo'ladi: *ha* yoki *yo'q*.

Masalan:

Do you like to read books? – Yes, I do.

No, I do not.

Does your sister go to school? – Yes, she does.

No, she does not.

Egaga savol (**who**) berilganda gapdagi so'zlar tarkibi o'zgaraydi. Eganing o'rnini **Who?** maxsus so'roq so'zi egallaydi.

So'roq so'z	Yordamchi fe'l	I	II	III	IV
		Who	takes	Lily	to the Zoo?

Bunday savollarga javoblar odatda ega va yordamchi fe'ldan iborat bo'ladi.

Masalan: Who reads a book? Jim does.

Agarda **to be, to have, can, may, must** fe'llari gapda kesim bilan kelsa, so'roq va inkorni shu fe'llarning o'zi yasaydi. Yuqoridagi fe'llar egadan oldin qo'yilsa, so'roq shakli yasaladi.

Masalan:

Can you read English? – Yes, I can

No, I cannot.

Must you go to school? – Yes, I must.

No, I must not.

Is your sister at home? – Yes, she is.

No, she is not.

Has Lily a dog? – Yes, she has.
No, she has not.

c) Hozirgi oddiy zamonda inkor gaplar tuzishda egadan keyin **do not** (III shaxs birlik sonda **does not**) inkori qo'yiladi. (Asosiy fe'llar uchun.)

So'roq so'z	Yordamchi fe'l	I ega	II kesim	III to'ldir.	IV hol
		The boy I	does not read do not go	a book	in the garden. to school.

to be, to have, can, may, must fe'llari ishlatilgan gaplarda inkor yasash uchun shulardan so'ng **not** inkor qo'yiladi.

Masalan:

You **must not** go to bed late.

Lily **must not** pick roses in the garden.

She **is not** at home now.

Izoh: **can** fe'li ishtirokidagi inkor qo'shib yoziladi.

He **cannot** read French.

to have fe'lidan keyin **no** inkori qo'llaniladi.

I **have no** English books.

Jimmy **has no** gun.

d) Shuningdek, gaplarning inkor-so'roq shakli ham mavjud. U xuddi so'roq gapdagidek tuziladi, faqat asosiy fe'l oldidan **not** inkori yoki ega oldidan **don't** yoki **doesn't** (**do not, does not** ning qisqartma shakli), yordamchi fe'li qo'yiladi.

So'roq so'z	Yordamchi fe'l	I ega	II kesim	III to'ldiruvchi	IV hol
Why	does	he	not read	a book	in the garden?
Why	doesn't	he	read	a book	in the garden?

to be, to have, must, can, may fe'llari gapda so'roq shaklda inkor bilan birga kelsa, nahotki deb tarjima qilinadi.

Masalan:

Can't he read well? – Nahotki u yaxshi o'qiy olmaydi?

Isn't he at home now? – Nahotki u hozir uyda emas?

2) O'zbek tilidagi *Sovuq. Issiq. Qiyin.* va shu kabi shaxssiz gaplar ingliz tilida quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

It is cold. – Sovuq.

It is warm. – Iliq.

It is difficult. – Qiyin.

It is two o'clock. – (Hozir) Soat 2.

3) Vaqt va sharoitni ko'rsatadigan (**when, if, as soon as, till** va h.k. bilan boshlanadigan) ergash gaplarda kelasi zamon qo'llanilmaydi, uning o'rniga hozirgi zamon ishlatiladi.

Masalan:

If you **come** early, we shall go to the cinema.

Agar siz barvaqt *kelsangiz*, biz kinoga boramiz.

I shall visit you when my mother **comes back**.

Men onam *kelganidan so'ng* sizni ko'rgani boraman.

4) O'zbek tilidagi ravishdoshga ingliz tilidagi **I** sifatdosh mos keladi. U **to** yuklamasisiz **-ing** tugallanmasiga ega noaniq shakldagi fe'ldan tarkib topadi.

Masalan: to read – reading
to look – looking
to speak – speaking

Agarda fe'l -e bilan tugasa, **-ing** tugallanmasi oldidan -e tushib qoladi.

Masalan: to write – writing
to live – living
Granny **rocking** sings a song.
Buvi, tebratib, qo'shiq kuylar.

5) **there** *u yerda* deb tarjima qilinsa, **once there** *bir paytlar u yerda* deb tarjima qilinadi.

Masalan: **There** walks a fox.
Once there lived a boy.

V. 5-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|--|--|
| 1. What do you like more, apples or grapes? | 1. Sen nimani ko'proq yaxshi ko'rasan: olmanimi yoki uzumni? |
| 2. I like grapes. | 2. Men uzumni yaxshi ko'raman. |
| 3. Do you eat peaches?
Yes, I do, if they are ripe and juicy. | 3. Sen shaftoli yeysanmi?
Ha, yeyman, agar u pishgan va sersuv bo'lsa. |
| 4. Do you like English songs?
I don't know any. | 4. Siz inglizcha qo'shiqlarni yaxshi ko'rasizmi?
Men birorta ham bilmayman. |
| 5. What songs can you sing?
I can sing only Uzbek songs. | 5. Siz qanday qo'shiqlarni kuylay olasiz?
Men faqat o'zbekcha qo'shiqlarni kuylay olaman. |
| 6. There is a good girl!
Don't go to the river alone! | 6. Aqlli qiz bo'! Daryoga yolg'iz borma. |
| 7. Can your granny sing a lullaby?
Of course, she can. | 7. Buving alla aytishni biladimi?
Albatta, biladi. |
| 8. Is it Friday today?
No, it is Thursday. | 8. Bugun jumami?
Yo'q, payshanba. |
| 9. Don't break that cup, it is father's. | 9. Bu finjonni sindirib qo'yma, u – otangniki. |

10. What will he do if I break it?
He will be very angry with you.
11. Will you be cross too?
Yes, I shall.
12. I can't sleep at night.
13. When there are mice in the cupboard, the cat can smell them.
14. Go round the shed and you will see your puppy and your kitten there.
15. Can this little cock crow?
No, it can't, it is too little.
16. What have they got in that old shed?
I think they have goats and oxen there.
17. Sam always yawns when he reads a book.
18. Who likes honey?
I do.
19. Who wants some jam?
Lily does.
10. Agar men uni sindirib qo'ysam, u nima qiladi?
Uni sendan jahli chiqadi.
11. Seni ham jahling chiqadimi?
Ha.
12. Men kechasi uxlay olmayman.
13. Javonda sichqonlar bo'lsa, mushuk ularning hidini oladi.
14. Omborxonada orqasiga o't va sen kuchukchangni hamda mushukchangni ko'rasan.
15. Bu kichkina xo'rozcha qichqirishni biladimi?
Yo'q, bilmaydi, u judayam kichkina.
16. Anavi eski omborxonada ularning nimasi bor?
Men o'ylaymanki, ularning echki va ho'kizlari bor.
17. Sem kitob o'qiganda doimo esnaydi.
18. Kim asalni yaxshi ko'radi?
Men.
19. Kim murabbo xohlaydi?
Lili.

20. Are there many mushrooms in that forest?
Yes, there are lots of them there.
21. What plants grow in the South?
A lot of plants: palms, roses, grapes, oranges and lemons.
22. Mr. Christine does not know where Lily is, and Sam does not know where she is, so they are at a loss.
23. Smell this flower!
24. Do you know who is in your room?
No, really I can't guess.
25. Do you like to walk in the forest?

Oh, of course, I do.
26. We often walk in the fields when the day is warm.
27. What birds are these?
They fly so fast and so high.
They are swallows.
28. Read this book while I sleep.
20. Anavi o'rmonda qo'ziqorin ko'pmi?
Ha, ular u yerda judayam ko'p.
21. Janubda qanday o'simliklar o'sadi?
Ko'p o'simliklar: palma, atirgul, uzum, apelsin va limonlar.
22. Janob Kristin Lili qayerdaligini bilmaydi, Sem ham uning qayerdaligini bilmaydi, shuning uchun ular nima qilishni bilishmayapti.
23. Manavi gulni hidla!
24. Sen xonangda kim borligini bilasanmi?
Yo'q, ochig'i, bilolmadim.
25. Siz o'rmonda sayr qilishni yaxshi ko'rasizmi?
O, albatta, yaxshi ko'raman.
26. Kun iliq bo'lganda, biz tez-tez dala aylanamiz.
27. Bular qanday qushlar?
Ular juda tez va juda baland uchishadi.
Bu – qaldirg'ochlar.
28. Men uxlab olguncha sen bu kitobni o'qib tur.

6-darsga kalit

I. Dars tarjimasi.

Oltinchi iyun. Shanba.

Bu kimning iti?

Endi Lilining o'z iti bor. Uning oti Gop-Gop. U ola-bula, u juda ozg'in va kichkina, antiqa kalta dumi bor. Ammo u kichkina bo'lishiga qaramay, ovozi baland, u bog'dagi va uydagi har qanday shovqinni eshita oladi.

Bolalar, Gop-Gop – yaxshi it, deyishadi.

Janob Kristin ishga, bolalar esa o'ynagani ketganda Gop-Gop eshik tagida o'tiradi va uyni tashlab ketmaydi.

Janob Kristin ko'p ishlaydi va uyga juda kech keladi; ammo endi u bolalari yolg'iz emas, balki Gop-Gop ular bilan birga ekanligini biladi.

Gop-Gop och qolsa, orqa oyoqlarida turib, akillay boshlaydi. Lili bu nimani anglatishini biladi. Bu it non va go'sht istayotganidan darak.

Ba'zan shifokor teatrga boradi, bolalar uyda bo'lishadi, ammo u ularning yangi do'sti eshik ortida turganini biladi.

Kech tushishi bilan bolalar itga "Xayrli tun" deyishadi va uxlagani ketishadi. Tepada ular yotadigan ikkita yotoq bor. Ammo Gop-Gop yuqori qavatda uxlamaydi, u uyning eshigi tagida uxlaydi.

Gop-Gop tamaki chekadigan o'g'il bolalarni yoqtirmaydi. Ularni ko'rishi bilan ularga qarab akillay boshlaydi va tishlashga harakat qiladi.

Ba'zan u Semga qarab vovillaydi.

– Sem, nega Gop-Gop senga qarab vovillaydi? – so'raydi Lili bir kuni.

– Bilmayman. Unga yoqmayman, deb o'ylayman, – javob beradi Sem.

– Undan senga nima uchun vovillashini so'raymi? – so'raydi singlisi ayyorona. – U tamaki hidini biladi, Sem, u esa buni yomon ko'radi. Otamning aytishicha, tamaki

chekadigan bolalar o'smas ekan. Ular chekmaydigan bolalardan past bo'ladi. Otam bilishi kerak, u shifokor.

– Seni ahmoq iting menga yoqmayapti, – deydi Sem g'azablanib.

– Sem, u faqat sen chekkanda vovillaydi, u aslida juda aqlli it, – deydi Lili.

– Ammo men chekmayman! Iting namuncha ahmoq bo'lmasa! – deydi Sem.

– It umuman ahmoq emas! U har xil narsalarni qilishi mumkin! Uning qanday raqsga tusha olishini ko'r! Sen qara unga! O'yna, Gop-Gop, o'yna! – deydi Lili.

It orqa oyoqlarida turib, raqsga tushishni boshlaydi. Sem jilmayadi.

– U yana nima qilishni biladi? Tayoq, tufla, shapka va pidjaklarni olib kela oladimi? – so'raydi u.

– Albatta, olib kela oladi, – deydi Lili.

– U mening boshmog'im yoki pidjagimni olib kela oladimi? – so'raydi Sem.

– Ha, albatta. Gop-Gop, akamning pidjagi bilan chap boshmog'ini olib kel! – deydi Lili.

It yugurib ketadi. Bir daqiqadan keyin u boshmoq bilan qaytadi.

– Bu chap boshmoq emas. Qani mening boshmog'im? Menga boshqa boshmoqni olib kel! Qidir uni! Bor uni top! – baqiradi Sem.

Ammo it ketmaydi.

– U chap va o'ngni bilmaydi. U senga boshmoqni olib kela oladi, tamom vassalom! – deydi Lili. – Qolaversa, sen undan (biror narsani) so'raganingda, "iltimos" deyishni unutma.

– Iltimos, Gop-Gop, bor mening pidjagimni topib kel! – baqiradi Sem.

Ammo it ketishni istamaydi.

– Endi nima deyishim kerak? – so'raydi Sem.

– Gop-Gop sen qaysi pidjakni xohlayotganingni bilmaydi: qorasimi yoki ko'ki? – deydi Lili.

– Borib men yakshanba kunlari kiyadigan ko'k pidjakni topib kel, – baqiradi Sem, – u otamning yotoqxonasi tepasida... iltimos!

Bir daqiqadan keyin Gop-Gop Semning ko'k pidjagi bilan qaytadi.

– O, sen haq ekansan! Bizning itimiz qanday aqlli! Aqlli bo'l! Qo'lingni ber va xafa bo'lma. Men ortiq chekmayman.

– Bizning itimiz haqiqatan ham aqlli, – deydi Sem, – qanday aqlli it! Va otamga men haqimda hech narsa aytma. Men hech qachon tamaki chekmaslikka va'da beraman.

II. III topshiriqqa kalit.

Savollar

Javoblar

- | | |
|--|--|
| 1. Lilining iti qanday rangda? | 1. He is black and white. |
| 2. U katta va semizmi? | 2. No, he is lean, small with a funny short tail. |
| 3. U vovillashni biladimi? | 3. Of course, he can. His voice is very loud. |
| 4. U boshqa itning ovozini eshitganda nima qiladi? | 4. He begins to bark loudly. |
| 5. Bu it qayerda uxlaydi? | 5. He sleeps at the door of their house. |
| 6. U bolalar bilan o'ynashdan tez-tez qochadimi? | 6. No, not very often: he runs away only when he is hungry. |
| 7. Janob Kristin uyidan uzoqda ishlaydimi? | 7. No, not very far, but he works very much and comes home late. |
| 8. U bolalarini kim bilan qoldirib ketadi? | 8. He leaves them alone. |

- | | |
|---|---|
| 9. It och qolganda nima qiladi? | 9. He begins to dance on his hind legs. |
| 10. Lili bu nimani anglatishini biladimi? | 10. Of course, she does. She gives him some bread and meat. |
| 11. Kech bo'lganda bolalar qayerga borishadi? | 11. They go upstairs to sleep. |
| 12. Ular Gop-Gopga nima deyishadi? | 12. They say: "Good night." |
| 13. Gop-Gop chekadigan o'g'il bolalarni yaxshi ko'radimi? | 13. No, he does not. |
| 14. U ularni ko'rganda nima qiladi? | 14. He tries to bite them. |
| 15. Sem chekadimi? | 15. Yes, he does, when Father and Lily do not see. |
| 16. Gop-Gop Semning chekishini biladimi? | 16. Of course, he does. He often barks at him. |
| 17. Yakshanba kunlari Sem qaysi pidjakni kiyadi? | 17. He wears his blue coat. |
| 18. Nima uchun it unga pidjakni olib kelishni istamadi? | 18. Because Sam always forgets to say "please". |
| 19. Gop-Gop unga pidjakni olib keldimi? | 19. Yes, he does. |

III. VI topshiriqqa kalit.

Qachon siz suvni chelaksiz tashiy olasiz?

Javob

When water becomes ice.
Suv muzga aylanganda.

IV. 6-darsga tushuntirish.

- 1) Agarda **any** olmoshi tasdiq gapda turgan bo'lsa, *har qanday, istagan, qaysidir* degan ma'noga ega bo'ladi.

Masalan: Give me any book, don't try to find the old one. – Menga xohlagan bitta kitobni ber, eskisini qidirishga harakat qilma.
You can call me any time. – Sen xohlagan vaqtingda menga qo'ng'iroq qilishing mumkin.

2) Bitta otni ikki marta takrorlamaslik uchun u **one** (ko'plikda **ones**) olmoshi bilan almashtiriladi.

Masalan:

Give me my old hat and take my new **one**.

Menga eski shlapamni ber va yangisini ol.

Don't eat green pears, eat yellow **ones**.

Yashil noklarni yemagin, sariqlarini yegin.

3) Ko'pchilik ravishlar sifatga **-ly** suffiksini qo'shish orqali yasaladi.

Masalan:

sifat

(qanaqa?)

loud – baland (ovoz)

cross – jahldor, xafa bo'lgan

warm – iliq

angry – jahli chiqmoq

ravish

(qanday?)

loudly – baland ovoz bilan

crossly – jahl bilan

warmly – iliq

angrily – g'azab bilan

E'tibor bering, sifatning **-y** tugallanmasi bunda **-i** ga aylanadi.

Masalan: angry – angrily.

4) **-ld**, **-nd** harf birikmasidan oldin **i** harfi [**aɪ**] deb o'qiladi.

Masalan:

to find [faɪnd] – topmoq

kind [kaɪnd] – marhamatli, iltifotli

a child [tʃaɪld] – bola

wild [waɪld] – yovvoyi

5) Hayvonlar uchun **it** olmoshi ishlatiladi.

Masalan:

I have a dog.

Mening itim bor.

It is very clever.

U juda aqlli.

Agarda itga (yoki boshqa birov hayvonga) laqab qo'yilgan bo'lsa, ismdan kelib chiqib (ya'ni erkaklar yoki ayollar ismi ekanligiga qarab) unga nisbatan **he** yoki **she** olmoshi qo'llaniladi.

Masalan:

Rex is a good dog. **He** is clever.

Reks – yaxshi it. U aqlli.

Pussy is a little kitten. **She** is very funny.

Pussi – kichkina mushuk. U juda kulgili.

V. 6-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|--|--|
| 1. What day is it today?
Today is Thursday. | 1. Bugun qaysi kun?
Bugun payshanba. |
| 2. What month is it now?
It is June. | 2. Hozir qaysi oy?
Iyun. |
| 3. Are the days very hot?
Yes, they are. | 3. Kunlar juda issiqmi?
Ha. |
| 4. Is it hot in the South in
June?
Yes, it is. | 4. Iyunda janub issiqmi?
Ha. |
| 5. Shall we go to the lake?
Yes, we shall. | 5. Biz ko'lga boramizmi?
Ha, boramiz. |
| 6. Where do you live? | 6. Siz qayerda yashaysiz? |
| 7. Where do you learn? | 7. Sen qayerda ta'lim olasan? |
| 8. Where do you work? | 8. Siz qayerda ishlaysiz? |
| 9. What do you read? | 9. Siz nima o'qiysiz? |
| 10. What does she like? | 10. U nimani yaxshi ko'radi? |
| 11. What does he do? | 11. U nima qiladi? |

- | | |
|--------------------------------------|--|
| 12. Where do they swim? | 12. Ular qayerda suzishadi? |
| 13. Where do they sleep? | 13. Ular qayerda uxlashadi? |
| 14. When do you get up? | 14. Sen qachon turasan? |
| 15. What does he want? | 15. U nima istaydi? |
| 16. When must you go home? | 16. Siz qachon uyga borishingiz kerak? |
| 17. What can this boy do? | 17. Bu bola nima qila oladi? |
| 18. What may we take? | 18. Biz nima olishimiz mumkin? |
| 19. Where are my books? | 19. Mening kitoblarim qayerda? |
| 20. Where is your coat? | 20. Sening pidjaging qayerda? |
| 21. What have you? | 21. Sizda nima bor? |
| 22. What have you got in your hands? | 22. Qo'lingda nima bor? |
| 23. What does it mean? | 23. Bu nima degani? |
| 24. Why are they here? | 24. Nega ular bu yerda? |
| 25. Why is she at home? | 25. Nega u uyda? |
| 26. Is Mother upstairs? | 26. Onam tepadami? |
| 27. Are my shoes there? | 27. Mening boshmoqlarim o'sha yerdami? |
| 28. Is your work difficult? | 28. Sizning ishingiz qiyinmi? |
| 29. Do you often sit here? | 29. Siz tez-tez bu yerda o'tirasizmi? |
| 30. Do you like meat? | 30. Siz go'shtni yaxshi ko'rasizmi? |
| 31. What is her name? | 31. Uning ismi nima? |
| 32. May I go out? | 32. Tashqariga chiqsam maylimi? |

- | | |
|---|---|
| 33. May I come in? | 33. Kirsam maylimi? |
| 34. Is that man Russian? | 34. Anavi odam rusmi? |
| 35. Does he speak English? | 35. U inglizcha gapiradimi? |
| 36. Do these little girls play the piano? | 36. Bu kichkina qizlar pianino chaladilarmi? |
| 37. Does he know his lesson? | 37. U o'z darsini biladimi? |
| 38. Is that boy a good pupil? | 38. Bu bola yaxshi o'quvchimi? |
| 39. Does he make many mistakes? | 39. U ko'p xato qiladimi? |
| 40. Does your mother go to the theatre? | 40. Onang teatrga boradimi? |
| 41. Is that tree high? | 41. Bu daraxt balandmi? |
| 42. Is your friend tall? | 42. Do'stingni bo'yi uzunmi? |
| 43. Who likes apples? | 43. Kim olmani yaxshi ko'radi? |
| 44. There are lots of pears in the South. | 44. Janubda nok juda ko'p. |
| 45. There is some milk for the baby. | 45. Chaqaloq uchun sut bor. |
| 46. What have we got for dinner? | 46. Bizda tushlik uchun nima bor? |
| 47. Is there any honey in that jar? | 47. Bu ko'zada asal bormi? |
| 48. Go and wash your hands! | 48. Bor, qo'llaringni yuv! |
| 49. Don't go there! | 49. U yerga borma! |
| 50. Try to find your new pen! | 50. Yangi ruchkangni topishga urinib ko'r! |
| 51. Don't sit down on that chair, it has only three legs! | 51. Anavi stulga o'tirma, uni faqat uchta oyog'i bor! |

- | | |
|--|---|
| 52. Don't eat fish with a knife! | 52. Baliqni pichoq bilan yema! |
| 53. Don't sleep at your lessons! | 53. Darslarda uxlama! |
| 54. Will you have a cup of tea? | 54. Bir finjon choy ichasizmi? |
| 55. Will she go with us too? | 55. U ham biz bilan boradimi? |
| 56. Don't forget to bring some peaches! | 56. O'rik olib kelishni unutma! |
| 57. Who likes grapes? | 57. Kim uzumni yaxshi ko'radi? |
| 58. Why can't you understand these lessons? | 58. Sen nima uchun bu darslarni tushunmayapsan? |
| 59. Does your teacher speak English?
No, she doesn't. | 59. Sizning o'qituvchingiz inglizcha gapiradimi?
Yo'q. |
| 60. Where is she?
She is at her German lesson. | 60. U qayerda?
U nemis tili darsida. |
| 61. Is your kitten at the door?
No, it isn't. | 61. Mushukchang eshik oldidami?
Yo'q. |
| 62. Where do you go after school?
I go to my friends. | 62. Sen darsdan keyin qayerga borasan?
Men do'stlarimnikiga boraman. |

7-darsga kalit

I. Dars tarjiması.

Yettinchi iyul. Shanba.

Bolalar ingliz tilida diktant yozishadi

Bir kuni Jimning singlisi Polli maktabdan odatdagidan kechroq qaytdi.

– Nega kech qolding? – so‘raydi Pollining onasi.

– O‘qituvchi men bilan gaplashishni istadi. O, oyi, men ikkita “besh” oldim: bittasini ingliz tilidagi yozma ishi uchun va yana bittasini inglizcha she‘r uchun, – deydi u.

– Men buni eshitishdan judayam xursandman, azizim, – deydi uning onasi, – ammo u qanday she‘r ekan?

– Bu o‘zinning she‘rim, oyi. Meni she‘r yoza olishimni bilmaysizmi? – so‘raydi qizaloq.

– Yo‘q, bilmayman, – deydi jilmaygancha Deyil xonim, – o‘ylashimcha, she‘r yozish judayam qiyin. Sen uni deklamatsiya qila olasanmi?

– Albatta, qila olaman, oyi. Men uni yoddan bilaman, – deydi Polli.

– Biroz shoshmay tur, azizim, – deydi Deyil xonim, – Men bolalarni chaqiraman. Jim, Sem, Xyu, buyoqqa kelinglar! Polli bizga o‘zining she‘rini o‘qib beradi.

– O, u she‘r yozishni biladimi? – so‘raydi Jim.

– Uning aytishicha, yoza olarkan! – deydi onasi. – Buni hozir ko‘ramiz. O‘tiringlar, bolalar, shovqin solmanglar!

Keyin Polli o‘rnidan turadi. Uning yuzlari qip-qizil. Qo‘llari qaynoq. Ovozi biroz titraydi. U she‘r o‘qishni boshlaydi:

– Miyovxon, Miyovxon

Sen anavi semiz sichqonni tuta olasanmi?

U o‘tiribdi dudlangan go‘sht yonida,

Shundoqqina olma murabbosi orqasida.

Miyovxon, Miyovxon,

U semiz sichqon judayam yomon,

Agar sen uni tutsang, men xursand bo‘laman,

Buning uchun men senga sut beraman.

– Yaxshi, judayam yaxshi! – baqiradi Jim.

– Balki bu umuman uning she‘ri emasdir, – deydi Xyu, – balki u qaysidir bolalar kitobidan olingandir?

– Yo‘q, yo‘q, bu meniki, – qichqiradi Polli, – chin so‘zim, bu o‘zimniki.

– Albatta, bu Pollining she‘ri, bolalar, – deydi Deyilxonim, – u menga judayam yoqdi, azizim.

– Men buni eshitganimdan xursandman, oyi, – deydi Polli, – ikkinchi “besh”imni ingliz tilidagi diktant uchun oldim. O, u qiyin, juda qiyin edi.

– Men uni yoza olaman, – baqirdi Xyu.

– Men ham uni yoza olaman, – baqirdi Sem. – Yaxshi, uni yozishga urinib ko‘ring, – deydi Polli va daftarini oladi.

– Baland ovozda o‘qi, – deydi Sem.

– Albatta, men baland ovozda o‘qiyman, ammo siz juda ko‘p xato qilasisiz, – deydi jilmaygancha Polli.

– Yo‘q, xato qilmaymiz, – deydi Xyu.

– Yo‘q, xato qilmaymiz, – baqiradi Sem.

– Ha, xato qilasisiz, – deydi Polli.

U daftarini o‘qishni boshlaydi. Bolalar yozishni boshlashadi.

O‘n ikkinchi may. Chorshanba.

Qiyin diktant

Bitta pashsha uchadi, ikkita pashsha uchadi. Bitta qiz yig‘laydi, to‘rtta qiz yig‘laydi. Bo‘ri oyni ko‘rganda uvilashni boshlaydi. Bo‘rilar va qo‘ylar hech qachon do‘st bo‘lishmaydi. Bizning tovuqlarimiz ko‘p tuxum qiladi. Bu tovuq tuxum qiladimi? Otlar kishnaydi. Bolalar urishishadi va baqirishadi. Anavi bola baliq tutishga urinyapti. Bu qizlar darg‘azab kurkadan qochishga urinishyapti. Men bargga xonqizi rasmini chiza olaman. Barglar va gullarni chizish qiyinmi? Agar bitta g‘ozda bitta tish bo‘lsa, 13 ta g‘ozda nechta tish bor?”

– Mana, tamom, – deydi Polli, – endi menga daftarlaringni beringlar, bolalar!

II. 7-darsga tushuntirish.

- 1) Bir bo'g'inli sifatlarning qiyosiy darajasi **-r**, **-er** suffikslari yordamida yasaladi.

Masalan:

loud – baland (ovoz)	louder – balandroq (ovoz)
warm – iliq	warmer – iliqroq
late – kech	later – kechroq

- 2) Agarda gap inkor shakldagi yordamchi fe'llar (*don't, doesn't, won't, aren't va boshq.*) bilan boshlansa, bunday gaplar o'zbek tiliga *nahotki, shundaymi, rostmi, rostdanmi, rostdan ham, chindan ham* so'zlari yordamida tarjima qilinadi.

Masalan:

Don't you know her?

Chindan ham siz uni tanimaysizmi?

Isn't he at home?

Chindan ham u uyda emasmi?

Aren't you glad to see him?

Chindan ham siz uni ko'rishdan xursand emasmisiz?

Won't you go with us?

Rostdan ham siz biz bilan ketmaysizmi?

- 3) **-r** yoki **-er** suffikslari yordamida ko'plab fe'llardan ot yasash mumkin:

Masalan:

to fight – kurashmoq	a fighter – kurashchi
to speak – gapirmoq	a speaker – notiq
to write – yozmoq	a writer – yozuvchi
to teach – o'qitmoq	a teacher – o'qituvchi
to run – yugurmoq	a runner – yuguruvchi

va boshq.

4) **fish** – *baliq* oti ko‘pincha birlik sonda qo‘llaniladi.

Masalan:

There is a lot of fish in our river.

Bizning daryoda juda ko‘p baliq bor.

5) Oddiy zamon ravishlari doimo asosiy fe‘l oldidan, ammo **to be** fe‘lidan keyin qo‘yiladi:

always [ˈɔːlwəz] – doimo, hamisha

already [ɔːlˈredɪ] – allaqachon

often [ɔfn] – tez-tez, ko‘pincha

ever [ˈevə] – qachondir, qachon bo‘lmasin

never [ˈnevə] – hech qachon

just [dʒʌst] – yaqindagina, endigina

soon [suːn] – hademay

Masalan:

We *often* sleep in the garden.

Biz ko‘pincha bog‘da uxlaymiz.

They *never* go to the cinema.

Ular hech qachon kinoga borishmaydi.

He *is always* hungry.

U har doim och.

We *are already* here.

Biz allaqachon shu yerdamiz.

6) **Much** va **many** ko‘plab tasdiq gaplarda **a lot of** yoki **lots** bilan almashinadi.

Masalan:

Are there many books in your library?

Yes, there are lots of books there.

No, there are not many books there.

Kutubxonangizda kitob ko‘pmi?

Ha, u yerda kitob ko‘p.

Yo‘q, u yerda kitob ko‘p emas.

III. 7-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|--|--|
| 1. Mr. Dale works very hard. | 1. Janob Deyil juda ko'p ishlaydi. |
| 2. He likes his work very much. | 2. U ishini juda yaxshi ko'radi. |
| 3. We know he is a very good worker. | 3. Biz u juda yaxshi ishchi ekanligini bilamiz. |
| 4. He works very well. | 4. U juda yaxshi ishlaydi. |
| 5. His work is always good. | 5. Uning ishi doimo yaxshi. |
| 6. Hugh likes to play football. | 6. Xyu futbol o'ynashni yaxshi ko'radi. |
| 7. They say he is a good footballer. | 7. Aytishlaricha, u yaxshi futbolchi ekan. |
| 8. Hugh wants to be a writer, though he doesn't like to write. | 8. Xyu garchi yozishni yaxshi ko'rmas-da, yozuvchi bo'lmoqchi. |
| 9. Lily wants to be a teacher. | 9. Lili o'qituvchi bo'lmoqchi. |
| 10. Polly wants to be a doctor. | 10. Polli shifokor bo'lmoqchi. |
| 11. Jim says he will be a flier. | 11. Jimning aytishicha, u uchuvchi bo'larkan. |
| 12. He often tries to fly with an old umbrella. | 12. U ko'pincha eski soyabon bilan uchishga harakat qiladi. |
| 13. Isn't it funny? | 13. Chindan ham bu kulgili emasmi? |
| 14. He opens the umbrella and jumps out of the window into the garden. | 14. U soyabonni ochadi va oynadan bog'ga sakraydi. |
| 15. He breaks Mother's umbrella very often. | 15. U juda ko'pincha onasining soyabonini sindiradi. |

- | | |
|---|--|
| 16. Do children like sweets? – Yes, they like them very much. | 16. Bolalar konfetni yaxshi ko'rishadimi? – Ha, ular uni juda yaxshi ko'rishadi. |
| 17. Do bears like honey? – Yes, they do. | 17. Ayiqlar asalni yaxshi ko'rishadimi? – Ha, yaxshi ko'rishadi. |
| 18. Don't you work here now? – No, I don't. | 18. Siz chindan ham hozir shu yerda ishlaysizmi? – Yo'q. |
| 19. Aren't they at home? – No, they are not. | 19. Ular chindan ham uyda yo'qmi? – Yo'q. |
| 20. Come a little later, please! | 20. Biroz kechroq keling, iltimos! |
| 21. Say it louder, I don't hear! | 21. Uni balandroq ayt, men eshitmayapman! |
| 22. He always forgets that word! | 22. U har doim bu so'zni unutadi. |
| 23. Our house is just under those big pine-trees. | 23. Bizning uyimiz anavi katta qarag'aylar ostida. |
| 24. They are always in the garden after dinner. | 24. Ular doimo tushlikdan so'ng bog'da (bo'lishadi). |
| 25. Sometimes the children go to the forest. | 25. Ba'zan bolalar o'rmonga borishadi. |
| 26. They say there are lots of mushrooms and berries there. | 26. Aytishlaricha, u yoqda ko'p qo'ziqorin va mevalar bor ekan. |
| 27. There are lots of gooseberries and blackberries in Hugh's garden. | 27. Xyuning bog'ida juda ko'p krijochnik va maymunjonlar bor. |
| 28. When must we plant peach-trees?
Plant them in March. | 28. Shaftoli daraxtini qachon ekishimiz kerak?
Ularni martda eking. |

29. What plant is this? – It is a palm, it grows in the South.
30. Who always shouts under my window? Is it you, Lily?
31. No, I give you my word it is not I!
32. We are glad you are not late today.
33. What time is it? – It is already eight o'clock.
34. Wait a little, I shall call Mother.
35. Why do the leaves of some trees always tremble?
I don't know.
36. I know this whole book by heart.
37. Look! Isn't it a dear! Such a small kitten!
38. What books do they read? – They read German, Russian and French books.
39. Who makes so much noise? – Lily's dog does.
40. Whose cat always steals my meat? – We don't know.
29. Bu qanday o'simlik? – Bu palma, u janubda o'sadi.
30. Kim doimo mening oynam ostida qichqiradi? Bu senmi, Lili?
31. Yo'q, chin so'zim, men emas!
32. Biz siz bugun kech qolmaganingizdan xursandmiz.
33. Hozir soat necha? – Al-laqachon soat sakkiz.
34. Biroz kutib turing, men onamni chaqiraman.
35. Nima uchun ayrim daraxtlarning barglari doim titraydi?
Bilmayman.
36. Men bu kitobni butunlay yoddan bilaman.
37. Qarang! Ajoyib shunday emasmi! Qanday mitti mushukcha!
38. Ular qanday kitoblar o'qishadi? – Ular nemischa, ruscha va fransuzcha kitoblar o'qishadi.
39. Kim bunday shovqin qilyapti? – Lilining kuchukchasi.
40. Mening go'shtimni doim kimning mushugi o'g'irlaydi? – Biz bilmaymiz.

8-darsga kalit

I. 8-dars matni tarjiması.

O'n ikkinchi avgust. Dushanba. 1963-y.

Bolalar she'rlari

– Oyi, – deydi Polli bir kuni onasiga, – biz yozuvchi-yozuvchi o'ynamoqchimiz. Biz bilan o'ynaysizmi?

– Men qanday o'ynashni bilmayman, – javob beradi Deyil xonim.

– Siz qalam va daftar olasiz va she'r yozishni boshlaysiz, tamom vassalom, – deydi Polli.

– Unda juda yaxshi, men ham o'ynayman, – deydi Pollining onasi, – eng yaxshi she'r uchun qanday mukofot beramiz?

– G'olib bitta shokolad plitkasini olishi kerak, – deydi qizcha.

– Kim g'olibga mukofotni beradi? – so'raydi Deyil xonim.

– Albatta, bu siz bo'lasiz, oyi. Siz uni g'olibga berasiz.

– Mukofotni o'zim yutib olsam-chi? – so'raydi Deyil xonim Polliga qarab jilmaygancha.

– Unda bu shokolad plitkasini o'zingiz yeysiz, oyi, – deydi Polli ayyorona jilmayish bilan.

– Men ham qachondir shokolad yeymanmi? – so'raydi Deyil xonim.

– Yo'q, yemaysiz. U holda shokoladni menga va Jimga berasiz.

Sem, Lili va Xyu Deyillarnikiga kelganda Polli bolalarga shunday deydi:

– Bolalar, kelinglar yozuvchi-yozuvchi o'ynaymiz. Oyim ham o'ynaydi. G'olib eng yaxshi she'r uchun bitta shokolad plitkasini oladi.

– Men ham yozuvchi-yozuvchi o'ynashni istayman! –

qichqiradi kichkina Lili, – Men shokoladni yutib olaman. Men she'r yozishni bilaman.

– Ammo sen qanday yozishni bilmaysan-ku, – deydi Sem.

– Sen mening o'rnimga she'r yozasan, – deydi Lili.

– O, yo'q, men yozmayman. Men o'zinning she'rimni yozaman, – deydi jahl bilan uning akasi.

– Bu yerga o'tir, Lili, – deydi Deyil xonim. – Men senga yordam beraman, azizim. Kel, mukofotni yutib olishga urinib ko'ramiz!

Demak, barcha o'tiradi, qalam va daftar olib, yozishni boshlashadi. Ular o'tirishadi, o'ylashadi va yozishadi. Quyosh tepada.

– Deyil xonim, men tayyorman, – deydi Lili.

– O, azizim, ammo sening she'ring qani? – so'raydi Deyil xonim.

– Men uni yoddan bilaman, – deydi Lili. – Men she'rimni o'qib bersam maylimi?

– Ha, azizim, – deydi Deyil xonim.

Lili o'rnidan turib, o'zining she'rini o'qishni boshlaydi:

– Mushuk, mushuk, anavi sichqonni ye!

Kuchuk, kuchuk, qurbaqani ushla!

Tovuq, tovuq, mening ruchkamni ol!

Xo'roz, xo'roz, anavi qulfni buz!

Tulki, tulki, anavi qutida o'tir!

Baliq, baliq, tog'orachaga sakra!

Koptok, koptok, to'rdan oshib o't!

Ayiq, ayiq, menga nok ber!

Echki, echki.....?

– Bas, yetadi! – qichqirishadi bolalar. – Sening she'ring judayam uzun. Yetadi!

– Juda, juda yaxshi, – deydi Deyil xonim. Lili o'tiradi.

– Endi Sem. Tayyor ekaningni ko'rib turibman, – deydi Deyil xonim.

– Ha, tayyorman, – deydi Sem turar ekan, – Boshlasam bo‘ladimi?

– Ha, boshla, iltimos, – qichqirishadi bolalar. – Xachir miyovlamaydi, u eshakchasiga hangraydi. Ot eshakchasiga hangramaydi u kishnaydi. Boyo‘g‘li uvillamaydi, u qichqiradi. Qizlar yaxshi tufli kiyishadi, bolalar – botinka.

– Mana, tamom, – deydi Sem.

– Juda yaxshi! – deydi Deyil xonim. – Navbatdagi kim?

– Men ham tayyorman, – deydi Xyu, – ammo menda beshta she‘r bor. Ularning hammasini o‘qiymi?

– O, sen g‘olibsana, – qichqiradi Jim. – Sening beshta she‘ring bor! Shokolad seniki!

Va Xyu boshlaydi,

– Birinchi she‘rim quyidagicha, – deydi u.

Mayli sher o‘kirsin

Temir eshik ortida.

– Mana ikkinchi she‘rim:

Endi sigiringiz ahvoli qanday?

Bilasizmi, u ma‘ramayapti.

– Mana uchinchi she‘rim:

Mushuklar tunda urishishni yaxshi ko‘radi.

– Mana to‘rtinchi she‘rim:

Bolalar, chiqinglar va baqirmanglar!

– Mana beshinchi she‘rim:

Qizaloq iltimos, yig‘lamaslikka urinib ko‘r!

– Mana ...

– Yetadi, bas, – baqirishadi bolalar.

Polli qiqirlashga tushadi. Deyil xonim kulib yubormaslikka harakat qiladi.

– Yaxshi, Xyu, endi Polli, – deydi u.

Polli o‘rnidan turadi va she‘rini o‘qishni boshlaydi:

– Mitti yashil qurbaqa,
Xodaga sakraydi,
Plashini yechadi
Va qurullashni boshlaydi.

– Mana, tamom, – deydi Polli.

– Juda yaxshi, azizim, – deydi unga onasi, – endi Jim.
Sen tayyormisan?

– Yo‘q, men hali tayyor emasman, – deydi Jim ishini davom ettirib.

– Sening she‘ring shunday uzunmi? – so‘raydi Polli.

– Ha, – Jim singlisiga qaramaydi. Shunda Deyil xonim o‘midan turadi va deydi:

– Bolalar, siz olmaxonlar haqidagi bu kitobni bilasizmi?

– Ha bilamiz. U ona olmaxon va uning bolalari haqida, – qichqirishadi bolalar.

– Ha, bolalar. Men sizga alla aytib beraman. Ona olmaxon bolalarini uxlatayotganda doimo uni aytadi.

Uxlang bolalar, yig‘lamang,
Men sizga alla aytaman.
Ko‘zingizni yuming va uxlang,
Dumchalarigizni burningizga qo‘yib.

– O qanday yaxshi qo‘shiq, – qichqiradi Jim. – Oyim – g‘olib! Oyim – g‘olib!

– Yo‘q, azizim. Endi sen o‘zingning she‘ringni o‘qishing kerak, biz uni eshitishni judayam xohlaymiz, – va u Jimdan daftarni oladi.

– O bolalar, bunga bir qarang! Bu yerda nimani ko‘ryapsiz? – qichqiradi u.

– Bu men! – qichqiradi Lili.

– Mana Polli, Xyuning orqasida o‘tiribdi.

– U yerda esa oyim! Qarang, oyi, qarang! Bu siz! – qichqiradi Polli.

– O, Jimmi, naqadar zo‘r chizibsan! – qichqirishadi bolalar.

– U g‘olib! Jim g‘olib! – qichqiradi Lili. – Garchi u yozuvchi bo‘lmasa ham unga shokoladni bering!

Jim shokolad plitkasini oladi va Deyil xonimga rahmat aytadi. Ammo boshqa bolalar bilan bo‘lishmaydi.

– Rahmat, oyi, – deydi u.

Jimning ishi hammanikidan yaxshi va u g‘olib. Afsuski, u shunaqa qizg‘anchiq bola!

II. III topshiriqqa kalit.

Echki, Echki, menga coat (palto)yingni ber!

Ko‘rshapalak, hat (shlapa)mga qo‘n!

G‘ozlar, g‘ozlar, sizning teeth (tish)ingiz bormi?

Bolalar, bolalar, menga toys (o‘yinchoqlar)ingizni bering!

Lili, Lili, silly (ahmoq) bo‘lma!

Xo‘roz, xo‘roz clock (soat)ga qara!

Ilon, ilon, lake (ko‘l)dan chiq!

Bedana, bedana, tail (dum)ing qani?

Sichqon, sichqon, sening house (in)ing qayerda?

Sichqonlar, sichqonlar, menga rice (guruch) olib keling.

III. V topshiriqqa kalit.

Savollar

1. Polli bir kuni nima deydi?
2. Unga onasi nima deb javob beradi?
3. Seni o‘zing buni bilasanmi?
4. G‘olib eng yaxshi she‘r uchun nima oladi?

Javoblar

1. She says: “Mammy, let us play writers!”
2. Mother says: “I don’t know how to play writers.”
3. Of course, I do. You must write your own rhymes, if you can.
4. He’ll get a bar of chocolate.

- | | |
|---|--|
| 5. Ulardan qaysi biri mukofotni yutib oladi – Jimmi yoki Sem? | 5. I think Jim; because he draws very well. |
| 6. Lili ham mukofotni yutib olishni istaydimi? | 6. Yes, she does. She wants to win the bar of chocolate very much. |
| 7. Lilining she'ri yaxshimi? | 7. For such a little girl it is very good. |
| 8. Xyuning she'rlari yaxshimi? | 8. No, they are not. |
| 9. Nega Polli qiqirlay boshlaydi? | 9. Because Hugh's rhymes are silly. |
| 10. Deyil xonimning allasi yaxshimi? | 10. Yes, it is the best of all. |
| 11. Unda nega u mukofotni Jimga beradi? | 11. Because he draws very well. |
| 12. Hayvonlarning rasmini chizish qiyinmi? | 12. Yes, it is. It is difficult to draw animals and plants. But to draw people is much more difficult. |
| 13. Sen Lilining she'rini yoddan yoza olasanmi? | 13. Of course, I can. It isn't difficult at all. |
| 14. Semning she'ri sizga yoqdimi? | 14. It is difficult and not very clever. |
| 15. Xonaga kirganingda nima deysan? | 15. I say: "How do you do?" or "Good day!" |
| 16. Ular senga nima deb javob berishadi? | 16. They answer: "How do you do?" or "Good day!" |
| 17. Xonaga kirganingda shapkangni yechasanmi? | 17. Of course, I do. |
| 18. Yotayotganda sen nima deysan? | 18. I say: "Good night!" |

IV. 8-darsga tushuntirish.

- 1) O'zbek tilida 1963-yilda (bir ming to'qqiz yuz oltmish uchinchi) deyiladi, ingliz tilida 19/63 – nineteen sixty-three deyishadi, ya'ni ikkiga bo'linadi: o'n to'qqiz – oltmish uch, *yil* so'zi esa tushib qoladi.
- 2) Bir bo'g'inli va ayrim ikki bo'g'inli sifatlarning qiyoslash darajalari sifatning asosiga **-er** (qiyosiy daraja) va **-est** (orttirma daraja) suffikslarini qo'shish bilan yasaladi.

Masalan:

<i>Oddiy daraja</i>	<i>Qiyosiy daraja</i>	<i>Orttirma daraja</i>
warm – iliq	warmer – iliqroq	the warmest – juda iliq
dark – qorong'i	darker – qorong'iroq	the darkest – eng qorong'i
deep – chuqur	deeper – chuqurroq	the deepest – eng chuqur
small – kichkina	smaller – kichkinaroq	the smallest – eng kichkina
big – katta	bigger – kattaroq	the biggest – eng katta
thin – ingichka	thinner – ingichkaroq	the thinnest – eng ingichka
hot – issiq	hotter – issiqroq	the hottest – eng issiq
early – erta	earlier – ertaroq	the earliest – eng erta
clever – aqli	cleverer – aqliroq	the cleverest – eng aqli

Ko'p bo'ginli sifatlarda oldidan qiyosiy darajada **more**, orttirma darajada **the most** so'zi qo'yiladi.

Masalan:

<i>Oddiy daraja</i>	<i>Qiyosiy daraja</i>	<i>Orttirma daraja</i>
difficult – qiyin	more difficult – qiyinroq	the most difficult – eng qiyin
interesting – qiziqarli	more interesting – qiziqarliroq	the most interesting – eng qiziqarli

Quyidagi sifatlar o'ziga xos shaklda qiyoslash darajalariga ega bo'ladi:

<i>Oddiy daraja</i>	<i>Qiyosiy daraja</i>	<i>Orttirma daraja</i>
good – yaxshi	better – yaxshiroq	the best – eng yaxshi
bad – yomon	worse – yomonroq	the worst – eng yomon
little – kichkina	less – kamroq	the least – eng kichkina least – hammasidan kam
many – ko'p much – ko'p	more – ko'proq	the most – eng katta most – hammasidan ko'p

3) O'zbek tilidagi gaplarda bir nechta inkor bo'lishi mumkin.

Masalan: Men hech qachon go'sht yemayman.

Ingliz tilidagi gaplarda bittadan ortiq inkor bo'lmaydi.

Masalan:

I **never** eat meat. Men *hech qachon* go'sht yemayman.
yoki

I eat **no** meat. Men go'sht yemayman.

4) Agarda oilaning barcha a'zolari haqida gap borayotgan bo'lsa, familiya oldidan **the** aniq artikli qo'yiladi; faqat bu holda ot ko'plik sonda bo'ladi.

Masalan: the Dales, the Woodlands, the Christines.

O'zbek tilida biz buni quyidagicha ifodalaymiz:
Zokirovlar, Hamidovlar, Sultonovlar va boshq.

5) Murojaatda ot oldidan artikl qo'yilmaydi.

Masalan:

Children, let us go to the river!
Bolalar, ketdik daryoga!
Girls, where is your teacher?
Qizlar, sizning o'qituvchingiz qani?

6) to let fe'li turlicha tarjima qilinadi:

keling, ruxsat bering, mayli.

Masalan:

Let me help you! Sizga yordam berishimga ruxsat bering.
yoki Keling men sizga yordam beraman.

Let us go! Keling boramiz!

yoki Ketdik!

Let him jump! Mayli o'zicha sakrasin!

yoki Unga sakrashga qo'yib bering!

Let her cry! Mayli o'zicha yig'layversin!

Let them go! Qo'yib yuboring ularni! Mayli ketaversin!

Ketishiga ijozat bering!

7) Well – bir nechta ma'noga ega:

well – yaxshi va well – qani (gap boshida).

Masalan:

Well, what do you know? Qani, siz nima bilasiz?

8) Ba'zida so'zlashuv tilida I – men o'rinda me qo'llaniladi.

Masalan: Who is there! – Kim u?

It's me. – Bu men.

V. 8-darsga mashq uchun mashg'ulot.

1. What year is it now?
It is 1963 (nineteen sixty-three).
2. What month is it now?
It is August.
3. Do you want to play pupils and teachers?
Yes, we do.
4. Which month is warmer, April or May?
May is.
5. Who is the best runner?
Sam is.
6. I think the word *dictation* is more difficult than the word *to continue*.
7. Can you get up a little earlier today?
Of course, I can.
8. Sam never knows how to write the names of months.
9. Do you ever swim in the river?
No, never. I don't like rivers, they are not deep enough for me. I like the sea.
1. Hozir qaysi yil?
1963-yil.
2. Hozir qaysi oy?
Avgust.
3. O'qituvchi va o'quvchi o'ynashni istaysizmi?
Ha istaymiz.
4. Qaysi oy iliqroq, maymi yoki aprel?
May.
5. Eng tez yuguruvchi kim?
Sem.
6. *Diktant so'zi davom ettirmoq so'ziga qaraganda qiyinroq, deb o'ylayman.*
7. Bugun ertaroq tura olasani?
Albatta, tura olaman.
8. Sem oylarning nomi qanday yozilishini hech qachon bilmaydi.
9. Siz qachondir daryoda suzganmisiz?
Yo'q, hech qachon. Men daryolarni yoqtirmayman, ular men uchun yetarlicha chuqur emas. Men dengizni yaxshi ko'raman.

10. Where do the Christians live?
They live not far from the Dales.
11. Boys, let us go and catch fish!
12. Girls, don't be angry with them, let them go!
13. Mother, may I help you a little? Let me wash the plates.
14. Well, dear, if you want to help me, let us wash all the dishes!
15. Who is there?
Is it you, Jimmy?
No, it isn't Jimmy, it's me, Polly!
16. Who runs best of all?
Sam does.
17. Who is taller, Sam or Jimmy?
Sam is taller.
18. Who is stronger, Sam or Hugh?
Hugh is. He is older than Sam.
19. Is Hugh cleverer than Sam?
Oh, no, he isn't.
10. Kristinlar oilasi qayerda yashaydi?
Ular Deyillar yaqinida yashashadi.
11. Bolalar, baliq ovlagani ketdik.
12. Qizlar, ulardan xafa bo'lmang va qo'yib yuboring.
13. Oyi, maylimi men sizga biroz yordam bersam? Likopchani yuvishimga ruxsat bering.
14. Yaxshi, azizim, agar sen menga yordam bermoqchi bo'lsang, kel hamma idishlarni yuvamiz.
15. Kim u?
Bu senmi, Jim?
Yo'q, bu Jim emas, bu men Polliman.
16. Kim hammadan yaxshi yuguradi?
Sem.
17. Kim balandroq, Semmi yoki Jim?
Sem.
18. Kim kuchliroq, Semmi yoki Xyu?
Xyu. U Semdan katta.
19. Xyu Semdan aqllimi?
O, yo'q.

- | | |
|---|--|
| <p>20. Can Hugh write rhymes? – No, he cannot at all.</p> <p>21. What does Hugh want to be?
He wants to be a writer.</p> <p>22. Who else wants to be a writer?
Jim does.</p> <p>23. Mother, may I take off my new shoes? They are too small for me.</p> | <p>20. Xyu she'r yozishni biladimi? – Yo'q, umuman yozishni bilmaydi.</p> <p>21. Xyu kim bo'lmoqchi?
U yozuvchi bo'lmoqchi.</p> <p>22. Yana kim yozuvchi bo'lmoqchi?
Jim.</p> <p>23 Oyi, yangi tuflimni yechsam maylimi? U menga judayam kichkina.</p> |
|---|--|

9-darsga kalit

9-darsdan boshlab asosiy matn tarjimasiga kalit berilmaydi. Muallif ota-onalar bolalar bilan mashg'ulot o'tgunga qadar tarjimani mustaqil ravishda tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ladi, deb hisoblaydi.

I. III topshiriqqa kalit.

- | | |
|--|---|
| <p>1. When will you go back to school?</p> <p>2. Are you glad to go back to school?</p> <p>3. Do carrots grow in your garden?</p> <p>4. Whose childhood do we read about in this lesson?</p> | <p>1. Biz birinchi sentabrda yana maktabga boramiz.</p> <p>2. Yo'q, unchalik emas.
Men o'rmonda o'ynashni va yugurishni yaxshi ko'raman.</p> <p>3. Ha, o'sadi.</p> <p>4. Biz Jimning yoshligi haqida o'qiyamiz.</p> |
|--|---|

5. What colour is your hair?
6. How many buttons are there on your coat?
7. Are you pleased when Mother gives you sweets?
8. What do you like more, candy or chocolate?
9. Which hand do we write with?
5. U qora.
6. Men bilmayman. Men hech qachon ularni sanamayman.
7. Albatta, men judayam mamnun bo'lamen.
8. Men shokoladni ko'proq yaxshi ko'ramen, men uni hammasidan ham ko'proq yaxshi ko'ramen.
9. Biz o'ng qo'limiz bilan yozamiz.

II. IV topshiriqqa kalit.

1. Sen menga daftaringni ko'rsata olasanmi?
2. Bu itga tegma, u seni tishlashi mumkin!
Nima deyayotganimni eshityapsanmi?
3. Onang uyda bo'lmaganda singlingga kim qaraydi?
4. Ingliz tili o'qituvchingiz sizga tez-tez qiyin savollar beradimi?
5. Sizga savol bersam maylimi?
6. Kim bu savolga javob bera oladi?
1. And why not?
Of course, I can.
2. I know that dog, it doesn't bite at all.
3. Our aunt does.
4. Sometimes she asks us rather difficult questions.
5. Of course, you may ask me lots of questions, if you like.
6. Polly can.

- | | |
|--------------------------------|------------------------------|
| 7. Ko'ylak tikish qiyinmi? | 7. Oh, it is quite simple. |
| 8. Deyil xonim yoshmi? | 8. Yes, she is rather young. |
| 9. Chap cho'ntagingdagi nima? | 9. Only my penknife. |
| 10. Pollining sochlari uzunmi? | 10. Yes, it is rather long. |

III. V topshiriqqa kalit.

(O'qish va tarjimadan keyin bolalarning o'zlari o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishga urinib ko'rishsin.)

Bolalarning hammasi hozir dalada. Kichkina Lili ham ular bilan birga. Uning qo'lida katta oq shlapa va u bolalar bilan birga yugurishga harakat qilyapti, ammo yugura olmayapti. U hali judayam kichkina. Uning oyoqlari judayam nimjon va kalta.

– Lilini kutib turing, bolalar! – deydi Polli.

– O, yo'q, qo'yaver uning o'zi o'ynayversin, – qichqiradi Sem va bolalar yugurib ketishadi.

– Meni kutib turing! Kutib turing! – qichqiradi Lili. Ammo ular uning zaif ovozi eshitishmaydi.

Lili o'tiradi. U butunlay tanho. U o'zining shlapasi bilan o'ynamoqchi bo'ladi. Keyin u katta qora kapalakni ko'radi. U qoqigulga qo'nishga harakat qiladi, ammo qo'nolmaydi, qoqigul bunday katta kapalak uchun judayam kichkina. Keyin xonqizi uchib keladi, u kichkina, qizil va qora. U Lilining oyog'iga qo'nadi va keyin pastga qarab o'rmaydi. Lili kuladi. Xonqizi o'zining kichkina dumchasi bilan judayam kulgili. Keyin yashil kaltakesak o'zining uzun dumi bilan quyoshga toblanish uchun chiqadi. Osmonda bulut yo'q. Qushlar sayraydi. Kun judayam iliq.

Lili o'tiradi va gullarga qaraydi: ular ko'k, sariq, qizil va oq.

Liliga yolg'iz qolish judayam yoqadi. U oftobda o'tirib mudraydi. Endi u yugurishni va o'ynashni xohlamaydi. Uning uyqusi keldi.

IV. 9-darsga tushuntirish.

1) Ingliz tilida to'ldiruvchi vositasiz, vositali va ko'makchili bo'ladi. Vositasiz to'ldiruvchi *kimni? nimani?* savollariga javob beradi.

Masalan: I see a flower.
Men gulni ko'ryapman.

a flower – vositasiz to'ldiruvchi

Vositali to'ldiruvchi *kimga? nimaga?* savollariga javob beradi.

Masalan: Give him the book.
Unga bu kitobni ber.

him – vositali to'ldiruvchi

Old ko'makchili to'ldiruvchi oldidan doimo old ko'makchi turadi.

Masalan: I want to play with him.
Men u bilan o'ynashni xohlayman.
with him – old ko'makchili to'ldiruvchi.

Ingliz tilida kesimdan keyin vositali, vositasiz va undan so'ng old ko'makchili to'ldiruvchi turadi.

I Ega	II Kesim	III To'ldiruvchi		
		vositali	vositasiz	old ko'makchili
Mother	gives	him	an apple	for Polly.
Mother	gives	Sam	a book	for Polly.

it olmoshi doimo vositali to'ldiruvchi oldidan qo'yiladi.

Here is a red apple. Give it to Jim.

2) Eslab qoling: **hair** [hæə] – *soch* doimo birlik sonda qo'llaniladi.

Masalan: Her hair is black.

Uning sochi qora.

a **hair** ifodasi *qilcha, tukcha* degan ma'nolarni anglatadi.

3) **What time is it?** savoliga

It is **two o'clock** deb javob beriladi.

(Hozir) soat ikki.

yoki It is two (o'clock) **sharp**.

(Hozir) *roppa-rosa* ikki.

Soat daqiqalari bilan gapirilayotganda ingliz tilida ikkita old ko'makchi – **past** [pɑːst] va **to** [tu] qo'llaniladi.

Agarda daqiqa mili siferblatning o'ng tomonida bo'lsa (12 dan 6 gacha), **past** qo'llaniladi, yani **past** – o'tdi ma'nosini, **to** esa – ...ta kam ma'nosini anglatadi.

Masalan:

It is five minutes **past** twelve.

(Hozir) o'n ikkidan besh daqiqa o'tdi.

It is fifteen minutes **past** six.

(Hozir) oltidan o'n besh daqiqa o'tdi.

yoki It is a **quarter** ['kwɔːtə] **past** six.

(Hozir) oltidan *chorakta* o'tdi.

It is **half** **past** twelve.

(Hozir) o'n ikki *yarim*.

It is **half** **past** three.

(Hozir) uch *yarim*.

It is **half** **past** six.

(Hozir) olti *yarim*.

It is **half** **past** nine.

(Hozir) to'qqiz *yarim*.

Agarda daqiqa mili siferblatning chap tomonida bo'lsa (6 dan 12 gacha), **to** qo'llaniladi.

Masalan:

It is five minutes **to** seven.

(Hozir) beshtakam yetti.

It is a quarter **to** seven.

(Hozir) chorakam yetti.

E'tibor bering: a quarter – artikl bilan, half – artiklsiz.

4) **to** say fe'lining 3-shaxs birlikdagi shakli says [sez] deb talaffuz qilinadi.

V. 9-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|--|--|
| 1. What colour is Jimmy's hair?
It is red. | 1. Jimmining sochi qanday rangda?
Qizil. |
| 2. Is his face red or white?

It is red. | 2. Uning yuzi qizilmi yoki oq?
Qizil. |
| 3. What colour are his eyes?
They are as blue as the sky. | 3. Uning ko'zi qanday rangda?
Ular osmon singari moviy. |
| 4. Father thinks that he is rather clever. | 4. Ota o'zini yetarli darajada aqlli deb o'ylaydi. |
| 5. Does Polly think that he is clever?
No, she doesn't. | 5. Polli o'zini aqlli deb o'ylaydimi?
Yo'q. |
| 6. His nose is as small as a button. | 6. Uning burni tugmacha kabi kichkina. |
| 7. Don't touch your nose! | 7. Burningga tegma! |
| 8. Show me your left hand! | 8. Menga chap qo'lingni ko'rsat! |

- | | |
|--|---|
| 9. Don't put your fingers under that box! | 9. Barmoqlaringni anavi quti tagiga qo'yma. |
| 10. Mother is very pleased with him. | 10. Ona ulardan juda mamnun. |
| 11. Give me some sweets please! | 11. Menga konfet ber, iltimos. |
| 12. Take your hands out of your pocket! | 12. Qo'lingni cho'ntagingdan chiqar! |
| 13. Don't be silly! | 13. Ahmoq bo'lma! |
| 14. Take Lily home! | 14. Lilini uyga olib boring! |
| 15. Give these children some apples. | 15. Bu bolalarga bir nechta olma ber. |
| 16. Give them some sweets too! | 16. Ularga konfet ham ber! |
| 17. Isn't this your kitten? | 17. Rostdanam bu sening mushuging emasmi? Uni menga ber. |
| Give it to me! | |
| 18. What is that boy's name? | 18. Anavi bolaning ismi nima? |
| 19. His name is Jim Dale. | 19. Uning ismi Jim Deyil. |
| 20. How old is he?
He is four. | 20. Uning yoshi nechada?
To'rt yoshda. |
| 21. What does his mother call him?
She calls him the Carrot. | 21. Uni onasi nima deb chaqiradi?
Uni Sabzivoy deb chaqiradi. |
| 22. Why does she call him the Carrot?
Because he has a red face and red hair. | 22. Nima uchun u uni Sabzivoy deb chaqiradi?
Chunki, uning yuzi va sochlari qizil. |
| 23. Is Jimmy clever?
I don't know. They say he is clever. | 23. Jimmi aqllimi?
Bilmayman. Aytishlaricha, u aqlli ekan. |

24. Why do they think him clever?
Because he can draw well.
25. What does his mother give him?
She gives him some sweets.
26. What does his sister say?
She says: "Give me some sweets!"
27. Does he give her any sweets?
No, he doesn't.
28. What does he say?
He says: "I won't!"
29. Who is greedy?
Jim is.
30. Is Polly clever?
Yes, she is rather clever.
31. Don't touch that dog, it is hungry and may bite you.
32. Give it some bread!
33. Give some milk to that cat!
34. I don't like greedy children.
35. Read your father these five lines!
24. Nima uchun ular uni aqlli deb hisoblashadi?
Chunki, u yaxshi chizishni biladi.
25. Onasi unga nima beradi?
U unga konfet beradi.
26. Uning singlisi nima deydi?
U "Menga konfet ber" deydi.
27. U unga konfet beradimi?
Yo'q, bermaydi.
28. U nima deydi?
U "Bermayman!" deydi.
29. Kim xasis?
Jim.
30. Polli aqllimi?
Ha, u yetarlicha aqlli.
31. Anavi itga tegma, u och, seni tishlab olishi mumkin.
32. Unga non ber!
33. Anavi mushukka sut ber!
34. Men xasis bolalarni yoqtirmayman.
35. Otangga bu besh qatorni o'qib ber.

- | | |
|--|---------------------------------------|
| 36. Jim is not so clever as you think. | 36. Jim sen o'ylaganchalik aqli emas. |
| 37. My puppy is as greedy as a wolf. | 37. Mening itim bo'ri kabi ochko'z. |

10-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

- | | |
|----------------------------|-------------------------|
| 1) tabassum qilayotgan yuz | 5) miyovlayotgan mushuk |
| 2) yig'layotgan go'dak | 6) titrayotgan qo'l |
| 3) hurayotgan it | 7) o'ynayotgan bola |
| 4) uvillayotgan bo'ri | 8) chaqnayotgan yulduz |

II. IV topshiriqqa kalit.

1. Anavi daraxt ostida o'tirgan ayol – mening xolam.
2. Janubga uchayotgan qushlar – qaldirg'ochlar.
3. Maktabga ketayotgan mallasoch bola – Jim.
4. Stolimda turgan quti yog'ochdan yasalgan.
5. Mening derazam yonida o'sadigan daraxt – qarg'ay.

III. V topshiriqqa kalit.

Monday ['mʌndɪ] – dushanba

Tuesday ['tju:zdi] – seshanba

Wednesday ['wenzdi] – chorshanba

Thursday ['θə:zdi] – payshanba

Friday ['fraɪdi] – juma

Saturday ['sætədi] – shanba

Sunday ['sʌndɪ] – yakshanba

January ['dʒænjʊəri] – yanvar

February ['februəri] – fevral

March [mɑ:tʃ] – mart

April ['eɪprɪl] – aprel

May [meɪ] – may

June [dʒu:n] – iyun

July [dʒu:'laɪ] – iyul

August ['ɔ:gəst] – avgust

September [səp'tembə] – sentabr

October [ɒk'təʊbə] – oktabr

IV. VI topshiriqqa kalit.

1. “Oyim qani?” – so‘raydi Lili xonaga yugurib kira turib.
2. “Men olmani yaxshi ko‘raman”, – deydi Sem katta olmani ola turib.
3. “Bugun iliq”, – deydi Polli shlapasini yecha turib.
4. “Aqlli qiz!” – deydi ona jilmayib.
5. “Kiring!” – deydi janob Deyil eshikni ocha turib.

V. VII topshiriqqa kalit.

1. It, qaysiki anavi bolaga qarab hurayotgan, tishlamaydi.
Anavi bolaga qarab hurayotgan it tishlamaydi.
2. Qiz, qaysiki anavi yerda sakrayotgan – Lili.
Anavi yerda sakrayotgan qiz Lili.
3. Odam, qaysiki velosipedda ketayotgan – Jimning otasi.
Velosipedda ketayotgan odam Jimning otasi.
4. Bolalar, qaysiki futbol o‘ynayotgan – haqiqiy futbolchilar.
Futbol o‘ynayotgan bolalar haqiqiy futbolchilar.

VI. 10-darsga tushuntirish.

1) **Present Continuous Tense**

[ˈpreznt kən'tɪnjuəs 'tens]

(hozirgi zamon davom fe'li)

Ingliz tilida ikkita hozirgi zamon bor. Bular *hozirgi zamon oddiy fe'li (Present Indefinite Tense)* va *hozirgi zamon davom fe'li (Present Continuous Tense)*.

Present Indefinite odatdagi yoki doimiy yuz beradigan harakatlarni anglatish uchun qo‘llaniladi.

Present Continuous hozir davom etayotgan ish-harakatni anglatish uchun qo'llaniladi.

Masalan:

Men kitob o'qishni yoqtiraman, ya'ni men umuman kitob o'qishni yoqtiraman – **Present Indefinite**.

Men qiziqarli kitob o'qiyapman, xalaqit bermang, ya'ni odam unga murojaat qilishgan paytda kitob o'qiyapti – **Present Continuous**.

Tasdiq shakli	So'roq shakli	Inkor shakli
I am reading.	Am I reading?	I am not reading.
He is reading.	Is he reading?	He is not reading.
She is reading.	Is she reading?	She is not reading.
We are reading.	Are we reading?	We are not reading.
You are reading.	Are you reading?	You are not reading.
They are reading.	Are they reading?	They are not reading.

Qisqa javoblarda butun gapning o'rniga keladigan yordamchi fe'lgina takrorlanadi.

Masalan:

Are you going home? – Yes, I am (going home).

Siz uyga ketyapsizmi? – Ha (men uyga ketyapman).

Is the moon shining? – No, it is not (shining).

Oy hozir nur sochyaptimi? – Yo'q (u nur sochmayapti).

So'zlashuv tilida odatda kishilik olmoshi va **to be** fe'lining qo'shilishi sodir bo'ladi va bunda fe'ning birinchi unli harfi tushib qoladi.

Masalan:

I am – I'm

He is – he's

She is – she's

It is – it's

We are – we're

You are – you're

They are – they're

Present Continuous Tensenni yasash uchun egaga qarab **to be** formasi (**am, is, are**) olinadi va asosiy fe'lga **-ing** qo'shimchasi qo'shiladi. Kalit so'zlar quyidagilar. **Now, at the moment, Look!, Listen!** yani **Present Continuous Tense** harakat hozirgi paytda davom etayotganini bildiradi.

Masalan: **He is reading.**
They are sleeping.
I am speaking.

Agarda noaniq shakldagi fe'l e harfi bilan tugallansa, **-ing** tugallanmasidan oldin e harfi tushib qoladi.

Masalan: **to write – writing**
to live – living

Agarda fe'l oldida qisqa unli tovush bo'lgan bitta undosh bilan tugallansa, **-ing** oldidagi undosh ikkitaga ko'payadi.

Masalan: **to get – getting**
to run – running
to begin – beginning

Ikkita zamonni taqqoslang:

Present Indefinite

(Harakat hozirgi vaqtda, ammo ayni paytda emas, umuman, odatda yuz beradi.)

I do my lessons after school.

Men darslarimni maktabdan keyin tayyorlayman.

Father always smokes tobacco.

Otam har doim chekadi.

Do you speak English?

Siz inglizcha gapirasizmi?
(aslo)

Present Continuous

(Harakat hozir, muloqot bo'layotgan vaqtda yuz beradi.)

I am doing my lessons; I can't go with you.

Men dars qilyapman; men siz bilan borolmayman.

Look, he is smoking a cigarette!

Qara, u tamaki chekyapti!

Are you speaking English?

Siz hozir ingliz tilida gapiryapsizmi?

Yes, I do a little.

Oh, no, I am not. I am speaking French.

Ha, ozroq gapiraman.

O, yo'q, men hozir fransuzcha gapiryapman.

Does she sleep well at night?

Is she sleeping? May we see her?

U kechasi yaxshi uxlaydimi?

U hozir uxlayaptimi? Uni ko'rsam maylimi?

- 2) Siz bilan salomlashishayotganda "How do you do?" deyishadi, unga javoban "How do you do?" deyish kerak.
- 3) Inkor gaplarda **too** va **also** ravishlari qo'llanilmaydi. Bu holatda ularning o'rniga **either** ['aiðə] – *ham, shuningdek* qo'llaniladi.

Masalan: Mrs. Dale is not tall.
Deyil xonim novcha emas.
Miss Jane is not tall either.
Jeyn xonim ham novcha emas.

- 4) Inkor va so'roq gaplarda **some** olmoshi o'rniga **any** olmoshi (ayni ma'noda) qo'llaniladi.

Masalan: We have some cheese.
Bizda pishloq bor.
They have not got any cheese.
Ularda pishloq yo'q.
Have you any cheese?
Sizda pishloq bormi?

- 5) **au** harf birikmasi [ɔ:] deb o'qiladi.

Masalan: **August** ['ɔ:gəst] – avgust

Istisno: **aunt** [ɑ:nt] – xola, amma

- 6) **How much money have you got about you?** ifodasi *Sening yoningda qancha pul bor?* degan ma'noni anglatadi.

shilling – *shilling* – ingliz kumush tangasi

penny – *penni* – ingliz bronza tangasi; 1/12 shillingga teng. Penny ikki xil ko'plik songa ega:

pence – pul mablag'i

pennies – alohida tangalar

lucky boy so'z birikmasi bu yerda *omadli* degan ma'noni anglatadi.

birthday present so'z birikmasi *tug'ilgan kunga sovg'a* degan ma'noni anglatadi.

That's nice of you ifodasi bu yerda *Sen tomoningdan qanchalik yaxshi* degan ma'noni anglatadi.

VII. 10-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|---|---|
| 1. Sam, are you reading or writing?
I'm reading. | 1. Sem, sen o'qiyapsanmi yoki yozyapsanmi?
Men o'qiyapman. |
| 2. What are you doing?
We are planting cherry-trees. | 2. Siz nima qilyapsiz?
Biz olcha ekyapmiz. |
| 3. What is your mother doing?
She is washing her head. | 3. Onang nima qilyapti?
U boshini yuvyapti. |
| 4. What are those men building?
They are building a shed. | 4. Anavi odamlar nima qurishyapti?
Ular omborxonona qurishyapti. |
14. He shaves	He will shave	He shaved
15. We do	We shall do	We did
16. He doesn't push	He will not push	He did not push
17. They do not hear	They will not hear	They did not hear
18. She remains	She will remain	She remained
19. You use	You will use	You used

V. VII topshiriqqa kalit.

1. I forgot the old proverbs.
2. He did not know this puzzle.
3. We did not want to go to bed.
4. They did not see snow.
5. We did not use these words.
6. He did not tell me about it.
7. They did not hear his answer.
8. They did not listen to the teacher.
9. Who heard it?

10. Where were they?
11. Whom did you see?
12. What did you read?
13. Whose books did they take?
14. Where did you find them?
15. Who needed this old copy-book?
16. He did not push her.
17. He did not pull her hair.
18. Who scattered his things?
19. Did your father shave yesterday?
20. Who called her?

VI. VIII topshiriqqa kalit.

(Bu o'yinni yod oling)

Yangi o'yin "Kim qochdi?"

Polli: Bolalar men sizga yangi o'yin ko'rsataman.

Jim: U qanday ataladi?

Polli: U "Kim qochdi?" deb nomlanadi.

Lili: Men ham o'ynasam maylimi?

Polli: Albatta, azizim, buyoqqa kel! Men sizga bir nechta rasm ko'rsataman. Siz ularni eslab qolishga harakat qilishingiz kerak. Diqqat! Bu nima?

Bolalar: Bu olmaxon, bo'ri, tuya, kaltakesak, boyo'g'li, kapalak, xonqizi, qurbaqa, ko'rshapalak, yo'lbars.

Polli: Judayam yaxshi. Yana bir marta takrorlang.

(Bolalar hamma so'zlarni yana bir marta takrorlashadi)

Lili: Men endi ularning hammasini eslab qoldim.

Jim: Men ham ularning hammasini eslab qoldim.

Polli: Yaxshi. Endi, bolalar, diqqat!
Ko'zingizni yuming! O'giriling!
Qaramang!

(Polli rasmlardan birini tezda oladi
va cho'ntagiga solib qo'yadi.)

Jim: Tayyormisan, Polli?

Polli: Yo'q, hali! Biroz shoshmay turing!

Endi men tayyorman!

Bolalar, o'giriling!

Qarang, kim qochdi?

Lili: Kaltakesak!

Polli: Yo'q, noto'g'ri.

Jim: Tuya.

Polli: Ha, to'g'ri. Mana senga tuya, u seniki.

Lili: Keling yana o'ynaymiz.

Jim: Ha, keling yana o'ynaymiz.

Polli: Yaxshi. Keling davom ettiramiz!

Ko'zingizni yuming!

O'giriling!

Qaramang! (*va hokazo*)

(*Ular bu o'yinni uzoq o'ynashadi.*)

VII. 15-darsga tushuntirish.

1) **Past Indefinite Tense**

['pɑ:st in'defɪnɪt 'tens]

(*o'tgan oddiy zamon*)

Past Indefinite (*o'tgan zamon*) da fe'llar 2 ga bo'linadi:
to'g'ri va noto'g'ri fe'llar.

To'g'ri fe'llar fe'l o'zagiga **-ed** qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi. Agar fe'l **-e** harfi bilan tugallangan bo'lsa bu **-e** tushirib qoldiriladi.

Masalan: to work – worked

to look – looked

to live – lived

to like – liked

Noto'g'ri fe'llarni esa yodlash zarur.

Masalan: ko'rmoq – to see – saw
 yozmoq – to write – wrote
 qilmoq – to do – did
 yubormoq – to send – sent
 qurmoq – to build – built
 qo'ymoq – to put – put
 kesmoq – to cut – cut

to be fe'li **Past Indefinite** da ikkita shaklga ega bo'ladi:

birlik son uchun – **was** [wɒz]

ko'plik son uchun – **were** [wɛə:]

Past Indefinite da so'roq va inkor shakllar **did** yordamchi fe'li yordamida yasaladi. O'tgan zamonga aylantirilgan asosiy fe'l esa o'z asliga qaytadi. Chunki bitta gapda bitta o'tgan zamonni bildiruvchi fe'l yetarlidir.

Masalan: **Did you see that man yesterday?**
 Siz bu odamni kecha ko'rganmidingiz?
I did not see that man yesterday.
 Men bu odamni kecha ko'rmagandim.

Past Indefinite Tense ni tasdiq, so'roq va inkor shakllarda tuslanishini **to invite** fe'li misolida ko'rish mumkin.

Tasdiq shakli	So'roq shakli	Inkor shakli
I invited him.	Did I invite him?	I did not invite him.
You invited him.	Did you invite him?	You did not invite him.
He invited him.	Did he invite him?	He did not invite him.
She invited him.	Did she invite him?	She did not invite him.
(It invited him.)	(Did it invite him?)	(It did not invite him.)

We invited him.	Did we invite him?	We did not invite him.
You invited him.	Did you invite him?	You did not invite him.
They invited him.	Did they invite him?	They did not invite him.
Ular uni taklif qilishdi.	Ular uni taklif qilishdimi?	Ular uni taklif qilishmadi.

2) Hol odatda gap oxirida qo'yiladi. Payt holi yoki gapning boshida, yoki gapning oxirida qo'yiladi.

Masalan:

I like to go to the river *in the morning*.
yoki

In the morning I like to go to the river.

3) Ingliz tilida ko'pincha shunday deyishadi **I was at the Dales'**, ya'ni Men Deyillarnikida edim, ya'ni *Deyillarnikida mehmonda* yoki *Deyillarning uyida*. Bunda kimnidir uyida bo'lish nazarda tutiladi.

They were at your friend's yesterday.

Kecha ular sizning do'stingiznikida edi.

... at your friend's house degan ma'no ko'zda tutilmoqda.

4) **who** – kim olmoshi obyektli kelishikda **whom** – kimni, *kimga* shakliga ega bo'ladi.

Masalan: **Whom** did you see?

Siz kimni ko'rdingiz?

So'zlashuv tilida **whom** o'rniga **who** qo'llaniladi.

Who did you see?

whom kimga ma'nosida kelganda ko'pincha **to old** ko'makchisi bilan qo'llaniladi.

Masalan: To whom did you give this book?
Siz bu kitobni *kimga* berdingiz?

VIII. 15-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|---|--|
| 1. I worked last Sunday. | 1. Men o'tgan yakshanbada ishladim. |
| 2. He worked here last year. | 2. U o'tgan yili bu yerda ishladi. |
| 3. They did not work last week. | 3. Ular o'tgan hafta ishlashmadi. |
| 4. We worked yesterday. | 4. Biz kecha ishladik. |
| 5. She did not go to school on Saturday. | 5. U shanba kuni maktabga bormadi. |
| 6. Did you invite her brother yesterday?
Yes, I did. | 6. Siz kecha uning akasini taklif qildingizmi?
Ha, taklif qildim. |
| 7. Did your children go to school two years ago?

No, they did not. | 7. Bolalaringiz ikki yil avval maktabga borishganmi?
Yo'q, borishmagan. |
| 8. Where were you ten minutes ago?
We were at the Christines'. | 8. O'n daqiqa avval qayerda edingiz?
Biz Kristinlarnikida edik. |
| 9. Who will recite the remaining rhyme?
I will. | 9. Qolgan she'rmi kim aytadi?
Men aytaman. |
| 10. When did you see the poet, Mr. Dale's friend?
I didn't see him at all. | 10. Siz qachon janob Deyilning shoir do'stini ko'rdingiz?
Men uni umuman ko'rmadim. |

11. If you don't know this new word, write it down.
12. Mrs. Dale was at her aunt's last Wednesday.
13. In his copy-book there were three rhymes, one of which was very funny.
14. The children liked it very much.
15. Jimmy asked his Mother to give him the remaining apple-pie.
16. Here are your pencils!
17. Whom did the monkey forget to invite?
She forgot to invite the rabbit.
18. I forgot about it!
19. Don't forget to put on your coat!
20. Did you see a grey wolf?
No, we didn't.
21. What did you see there?
We didn't see anything.
22. The old wolf jumped, but it didn't bite the hunter.
11. Agar sen bu yangi so'zni bilmasang, yozib ol.
12. Deyil xonim o'tgan chorshanba xolasining uyida edi.
13. Uning daftarida uchta she'r bo'lib, ulardan bittasi juda kulgili edi.
14. Bolalarga u judayam yoqdi.
15. Jim onasidan olma pirogining qolganini unga berishini so'radi.
16. Mana sening qalamlaring!
17. Maymun kimni taklif qilishni unutdi?
U quyonni taklif qilishni unutdi.
18. Men bu haqda unutdim!
19. Palto kiyishni unutma!
20. Siz kulrang bo'rini ko'rganmisiz?
Yo'q, ko'rmaganmiz.
21. Siz u yerda nimani ko'rdingiz?
Biz hech narsa ko'rmadik.
22. Qari bo'ri sakradi, ammo u ovchini tishlamadi.

23. What colour was his dog?
It was grey.
24. Did anybody go to the monkey's feast?
Yes, a lot of animals did.
25. It was an unheard of thing, she forgot to invite the frog.
26. Last year Mr. Dale smoked very much.
27. Lily smiled when Jimmy ran after her puppy.
28. The boy jumped up when his horse neighed.
29. Did they play football last Sunday?
No, they didn't.
30. Four years ago we did not know English at all.
31. The horse kicked the wolf.
32. The wolf howled.
33. What did you do at your last lesson?
We wrote and read.
23. Uning iti qanday rangda edi?
U kulrang edi.
24. Kimdir maymunning ziyofatiga bordimi?
Ha, juda ko'p hayvonlar bor edi.
25. Bu eshitilmagan narsa edi – u qurbaqani taklif qilishni unutibdi.
26. O'tgan yili janob Deyil juda ko'p chekardi.
27. Lili Jim uning kuchukchasining ketidan yugurib ketganiga kuldi.
28. Ot kishnaganda bola sakradi.
29. Ular o'tgan yakshanba futbol o'ynashdimi?
Yo'q, o'ynashmadi.
30. To'rt yil avval biz umuman inglizchani bilmasdik.
31. Ot bo'rini tepdi.
32. Bo'ri uvilladi.
33. So'nggi darsda nima qildingiz?
Biz yozdik va o'qidik.

- | | |
|---|--|
| 34. Jimmy's uncle wanted to come from America but did not come. | 34. Jimning amakisi Amerikadan kelishni istagandi, ammo kelmadi. |
| 35. We waited and waited for him, but he did not come. | 35. Biz uni kutdik, kutdik ammo u kelmadi. |

16-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. O'tgan hafta u bizga faqat uchta dars berdi (gave).
2. Biz faqat 5-sentabrda darslarimizni boshladik (began).
3. Kecha kechqurun u haqda unutibman (forgot).
4. Ular ham shovqinni eshitishdi (heard).
5. Unga mening o'qituvchim haqida kim aytdi (told)?
6. Bola tushlik oldidan judayam ko'p konfet yedi (ate).
7. Bolalar ko'lga juda saharlab yugurib ketishdi (ran away).
8. Nega siz o'tgan hafta yakshanda kuni poyabzalingizni yechdingiz (did you take off)?
Ular oyoqlarimni judayam og'ritdi.
9. Ular soat beshda uyda edilar (were).
10. Kecha kechqurun onarning boshi qattiq og'ridi (had).

II. IV topshiriqqa kalit.

1. I have a terrible headache.
2. Look in the looking-glass!
3. Such a strong, healthy child!
4. Don't whimper! What is the matter with you?
5. I can't wear these shoes, they hurt me.
6. I shall go to the cinema instead of you.
7. All right, you may go instead of me.
8. She put two plates on the table instead of two cups.

III. V topshiriqqa kalit.

1. Ular to'satdan pol ostidan dahshatli ovoz eshitishdi.
2. Anavi devorda hech narsa yo'q edi.
3. U katta dumaloq oyna qarshisida to'xtadi va o'zining aksiga qaradi.
4. Bunday kichkina yuz uchun uning ko'zlari judayam katta edi.
5. "Yaxshi, – dedi haydovchi. – Men sizni uyga olib borib qo'yaman".
6. U hech narsa yeya olmasdi.
7. Bola ancha ozg'in bo'lishiga qaramasdan sog'lom ko'rindi.
8. "Hech qachon boshqa yolg'on gapirma!" – baqirdi Polli g'azablanib.
9. Sizga nima bo'ldi?
10. U to'siqdan xuddi o'g'il bola kabi sakrab o'tdi.
11. Bir daqiqadan keyin u g'oyib bo'ldi.

IV. 16-darsning inglizcha matni VII topshiriqqa kalit hisoblanadi.

V. 16-darsga tushuntirish.

- 1) Ayrim otlarda so'zning o'zagi o'zgarishi orqali ko'plik son yasaladi. Bunda -s tugallanmasi qo'shilmaydi.

Birlik son

a man – odam, erkak
a woman – ayol
a tooth – tish
a goose – g'oz
a foot – oyoq
a mouse – sichqon
a child – bola
an ox – buqa

Ko'plik son

men – erkaklar
women – ayollar
teeth – tishlar
geese – g'ozlar
feet – oyoqlar
mice – sichqonlar
children – bolalar
oxen – buqalar

- 2) **between** – *orasida* so‘zi ikkita predmet orasida bo‘lishni anglatadi.
among – *o‘rtasida* so‘zi ikkitadan oshiq predmet o‘rtasida bo‘lishni anglatadi.
- 3) **as if** – *xuddiki, go‘yoki* ifodasidan so‘ng doimo **were** fe‘li qo‘llaniladi.
 He did not answer my question, **as if** he were deaf.
 U go‘yo kar bo‘lib qolgandek mening savolimga javob bermadi.
- 4) Inglizchasiga *yolg‘on gapirish* (umuman) **to tell lies** bo‘ladi.
 U ko‘pincha yo‘lg‘on gapiradi. – He often tells lies.
 Ammo quyidagi gapda:
 Bu yolg‘on! – That’s a lie!
lie oti birlikda noaniq artikl bilan qo‘llaniladi.
 Inglizchasiga *haqiqatni gapirish* **to tell the truth** (doimo aniq artikl bilan).
- 5) **to lie** – *yolg‘on* gapirmoq tog‘ri fe‘li, Past Indefinite – **lied** ni noto‘gri fe‘l **to lie** – *yotmoq*, Past Indefinite – **lay** bilan adashtirmaslik kerak.

VI. 16-darsga mashq uchun mashg‘ulot.

- | | |
|--|--|
| 1. Don't say "O.K.", "all right" is better. | 1. "Mayli" dema, undan ko‘ra "yaxshi" degin. |
| 2. Lily says: "I'll not go to school, I'm too little." | 2. "Men maktabga bormayman, men judayam kichkinaman", – deydi Lili. |
| 3. She says to Jim: "I like your puppy very, very much." | 3. U Jimga deydi: "Men sening kuchukchangni judayam, judayam yaxshi ko‘raman". |

4. He says to Lily: "I won't give my Roombo to you."
5. He tells her that his puppy has very sharp teeth.
6. Why does Mr. Dale always say "O.K." instead of "all right"?
7. Because he lived in America when he was a little boy.
8. That boy never eats meat, soup, cheese or bread.
9. Do you know why? Of course, I do; his mother spoiled him when he was a baby.
10. I do not like to tell lies.
11. I always tell the truth.
12. I can't tell a lie.
13. Lily never tells lies either.
14. Mrs. Dale likes to lie down after dinner.
15. She often lies on the sofa.
16. Where did she lie after breakfast? – She lay in her bed.
4. U Liliga deydi: "Men senga Rumbomni bera-man".
5. U unga kuchukchasi-ning tishlari judayam o'tkirligini aytadi.
6. Nega janob Deyil doimo "yaxshi" o'rniga "mayli" deydi?
7. Chunki u kichkinaligi-da Amerikada yashagan.
8. Anavi bola hech qachon go'sht, sho'rva, pishloq yoki non yemaydi.
9. Sen negaligini bilasan-mi? – Albatta, bilaman; onasi uni kichkinaligi-da erkalatib yuborgan.
10. Men yolg'on gapirish-ni yoqtirmayman.
11. Men doimo haqiqatni gapiraman.
12. Men yolg'on gapira ol-mayman.
13. Lili ham hech qachon yolg'on gapirmaydi.
14. Deyil xonim tushlikdan so'ng yotishni yaxshi ko'radi.
15. U ko'pincha divanda yotadi.
16. U nonushtadan keyin qayerda yotdi? – U o'zi-ning karavotida yotdi.

17. Did that girl tell you a lie? – Yes, she did. She lied again.
18. “I can’t eat my soup, the fishbone hurts me!” poor Polly cried.
19. Mr. Dale turned to Polly and said: “You crybaby, pick the fishbone out and eat your soup”!
20. “Where is the red stone in my ring?” the young woman cried in surprise.
21. The red stone is gone.
22. Who spoiled Jimmy? Mrs. Dale did.
23. How did she spoil him? She gave him sweets instead of soup, fish, meat and potatoes.
24. It is evening.
The sky is dark.
25. It is very cold in the room.
26. It is already nine o’clock.
27. It is time to go to bed.
28. It is very hot in the sun, I’ll go and sit in the shade.
17. Anavi qiz sizga yolg‘on gapirdimi? – Ha. U yana aldadi.
18. “Men sho‘rvamni icholmayapman, baliqning qiltanog‘i qiynayapti!” – baqirdi bechora Polli.
19. Janob Deyil o‘girilib dedi: “Hoy, yig‘loqi, baliq qiltanog‘ini chiqarib tashla va sho‘rvangni ich!”
20. “Uzugimdagi qizil tosh qani?” – hayratlanib qichqirdi yosh ayol.
21. Qizil tosh yo‘qoldi.
22. Jimni kim erkalatdi? Deyil xonim erkalatdi.
23. U uni qanday erkalatdi?
U unga sho‘rva, baliq, go’sht va kartoshka o‘rniga konfet bergan.
24. Kechqurun.
Osmon zim-ziyo.
25. Xona juda sovuq.
26. Soat allaqachon 9.
27. Uxlash vaqti bo‘ldi.
28. Quyoshda turish juda issiq, men borib soyada o‘tiranman.

- | | |
|--|---|
| 29. I'm as hungry as a wolf. | 29. Men bo'ridek ochman.
(Men itdek ochman.) |
| 30. My mother often has a terrible headache. | 30. Onamning boshi ko'-pincha qattiq og'riydi. |
| 31. Go straight to the lake! | 31. To'g'ri ko'lga qarab yur! |
| 32. Put the cups into the cupboard! | 32. Finjonlarni javonga qo'y! |
| 33. Put these flowers into that vase! | 33. Gullarni anavi guldonga qo'y! |
| 34. Mother is in our room. | 34. Oyim bizning xonamizda. |
| 35. I see nobody in the garden. | 35. Men bo'gda hech kimni ko'rmayapman. |
| 36. He does not see anybody there either. | 36. U ham u yerda hech kimni ko'rmayapti. |
| 37. I know nothing. I don't know anything. | 37. Men hech narsa bilmayman. |
| 38. I want nothing. I don't want anything. | 38. Men hech narsa xohlamayman. |
| 39. We have no cakes for tea today. | 39. Bugun bizda choyga pirojniy yo'q. |
| 40. There are no flowers here. | 40. Bu yerda gullar yo'q. |
| 41. There is no butter in the cupboard. | 41. Oshxona javonida sariyog' yo'q. |
| 42. We never go to school on Sundays. | 42. Biz yakshanba kunlari hech qachon maktabga bormaymiz. |
| 43. I haven't got any French books. | 43. Menda fransuzcha kitoblar yo'q. |
| 44. I have no books at all. | 44. Menda umuman kitob yo'q. |

45. I'm not a teacher any longer.
46. There is no cheese on the plate.
47. We haven't got any cheese at home.
48. He doesn't know any rhymes.
49. She knows no rhymes either.
50. They did not see anybody there.
51. She doesn't like anything.
52. She always cries when Sam doesn't give her his book.
53. Lily likes to cry.
54. She did not cry at the table, but she cried after dinner.
55. Do swallows fly very high?
Yes, they do. They fly very high in the sky.
56. I have a tame quail. It flies about my room.
57. He put his table between his bed and the sofa.
58. This is between ourselves, of course.
45. Men ortiq o'qituvchi emasman.
46. Likopda pishloq yo'q.
47. Uyimizda pish oq yo'q.
48. U birorta ham she'r bilmaydi.
49. U ham she'r bilmaydi.
50. Ular u yerda hech kimni ko'rishmadi.
51. U hech narsani yoqtirmaydi.
52. Sem unga o'zining kitobini bermaganda u doimo yig'laydi.
53. Lili yig'lashni yaxshi ko'radi.
54. U stol boshida yig'lamadi, ammo tushlikdan keyin yig'ladi.
55. Qaldirg'ochlar juda baland uchishadimi?
Ha. Ular osmonda juda baland uchishadi.
56. Meni qo'lga o'rgatilgan bedanam bor. U xonada uchadi.
57. U o'zining stolini karavoti va divani o'rtasiga qo'ydi.
58. Bu bizning oramizda qoladi, albatta.

59. He does his lessons between four and five o'clock.
60. Tell me, how many teeth have these geese?
61. I think that every goose has only one tooth.
62. Oh, no! I know that geese have no teeth.
63. Then why do you ask if you know?
64. Sam can kick the ball with his left foot as well as with his right foot.
65. Mother, I won't put on my new hat, it hurts me!
66. "Why are you at home so early?" Mrs. Dale asked in surprise.
67. What is the matter with Jimmy?
He has a terrible toothache.
68. Well, why don't you pull it out? Pull it out and it won't hurt you any more.
59. U o'z darslarini soat 4 va 5 orasida tayyorlaydi.
60. Ayting-chi menga, bu g'ozlarning tishi nechta?
61. O'ylaymanki, har bir g'oz faqat bitta tishga ega bo'ladi.
62. O, yo'q! Men g'ozlarning tishi yo'qligini bilaman.
63. Agar bilsang, nega so'rayapsan?
64. Sem o'ng oyog'ida bo'lgani kabi chap oyog'ida ham to'p tepa oladi.
65. Oyi, men yangi shlapamni kiyishni istamayman, u og'rityapti!
66. "Nega sen buncha barvaqt uydasan?" — so'radi Deyil xonim ajablanib.
67. Jimga nima bo'ldi?
Lilining tishi judayam qattiq og'riyapti.
68. U holda, nimaga uni oldirib tashlamaysan? Oldirib tashla uni, va u ortiq og'riq bermaydi.

- | | |
|--|---|
| 69. Don't put that dress on! | 69. Bu ko'ylakni kiyma! |
| 70. Cut this ribbon off! | 70. Bu lentani kesib tash-la! |
| 71. Put your fork down! | 71. Sanchqini qo'y! |
| 72. Which of these two boys speaks English? | 72. Bu ikki boladan qaysi biri inglizcha gapira-di? |
| 73. Which peach will you take, the red peach or the yellow one? | 73. Qaysi shaftolini ola-san, qizil shaftolinimi yoki sariq shaftolini? |
| 74. Look here, boys!
Which of you can draw a quail? | 74. Bolalar! Qaysi biringiz bedana rasmini chiza olasiz? |
| 75. Which turkey is yours, this one or that one? | 75. Qaysi kurka sizniki, bunisimi yoki unisi? |
| 76. Go straight home and you'll see somebody there! | 76. To'g'ri uyga bor va sen u yerda kimnidir ko'rasan! |
| 77. Did you see palms when you were in the South? – Yes, we did. | 77. Janubda bo'lganingiz-da palmalarni ko'rdin-gizmi? – Ha, ko'rdik. |
| 78. Don't lie in the sun! | 78. Quyoshda yotma! |
| 79. Children must always tell the truth. | 79. Bolalar har doim rost gapirishlari shart. |

17-darsga kalit

I. Matn tarjimasini.

Polli – g'olib

Bir kuni Polli maktabdan judayam hayajonlanib keldi. U xonaga kirganda Deyil xonim qizaloqning qandaydir yangiligi borligini bildi.

– Senga nima bo'ldi, azizim? – so'radi Deyil xonim.

– O'yijon, maktabimiz gazetasi bizning o'quvchilar tomonidan yozilgan eng yaxshi she'rga mukofot bermoqchi, – dedi Polli.

– Sen ushbu mukofotni yutib olmoqchimisani? – so'radi Deyil xonim jilmayib.

– Albatta, oyi. Men hoziroq she'r yozmoqchiman. Siz menga yangi daftar berasizmi? Sizning yotoqxonangizdagi stolga o'tirsam maylimi? Jimga meni uydaligimni aytmang. Menga xalaqit berishiga yo'l qo'ymang! – vaysardi Polli.

– Bidirlashni bas qil, azizim! Bunday tez gapirish yaxshi emas! Odamlar seni ezma deb atashlari mumkin, – dedi onasi.

– Ammo, oyi, meni eshiting! Xyu kecha kechqurun she'r yozishga urinib ko'rdi. Men uni ko'rdim. U umuman yaxshimas. Men undan ancha yaxshi yozaman. Ko'rasiz, oyi. Tezroq menga yangi daftar bering. Kutishga vaqtim yo'q, – bidirlardi Polli.

– Iltimos, bema'ni gaplarni vaysashni bas qil! Kim yaxshi she'r yozishini ko'ramiz. Maqtanish yaxshi emas! Sen avval tushlik qilishing kerak, – dedi Deyil xonim.

– Xohlamayman, oyi! Qornim och emas. Mening vaqtim yo'q, haqiqatan ham vaqtim yo'q, – xitob qildi Polli.

– Safsata, Polli, vaqting ko'p seni. Bugun quymoq tayyorlaganman, – dedi Deyil xonim.

– O, quymoqlar! Asalli quymoqlarni shu qadar yaxshi ko'raman-ki! Bo'pti, oyi, men ozgina yeyman, – dedi Polli stolga o'tirarkan.

– Polli, uyat emasmi! Nega sen tushlik oldidan doim qo'lingni yuvishni unutasan? – so'radi Deyil xonim g'azablanib.

– Ammo mening qo'llarim toza, oyi, mana qarang ularga! Axir, ular toza emasmi? – dedi Polli qo'llarini ko'rsatib.

– Ehtimol, ular tozadek tuyulayotgandir, – dedi uning onasi, – ammo yaxshisi, borib ularni yuvib kelganing ma'qul.

– Bo‘pti! – dedi Polli va qo‘lini yuvish uchun vannaga yugurib ketdi.

Tushlikdan so‘ng Deyil xonim Polliga uning stoliga o‘tirishga ruxsat berdi. U unga yangi daftar berdi va Polli she‘r yozdi.

Mana Pollining she‘ri. (U haq edi, u juda yaxshi yozdi va mukofotni yutib oldi).

Ayiqchalar Polli Deyil

[ˈwʌns ˈtu: ˈlɪtl braun ˈbeəz]

Bir kuni ikkita qo‘ng‘ir ayiq

[ˈfaʊnd əˈpeəri: ˈfʊl əv ˈpeəz]

nokka to‘la daraxt topib olishdi.

[bʌt ðeɪ ˈkʊdnɒt ˈklaɪm ʌp ˈðeə]

Ammo ular unga chiqa olishmas,

[fɔ: ðə ˈtrʌŋk wɔz ˈsmu:ð ənd ˈbeə]

chunki daraxt tanasi silliq va yalang‘och.

[ˈɪf aɪ ˈoʊnli ˈhæd əˈtʃeə]

“Agarda menda stul bo‘lganda”, –

[ˈsed ðɪ ˈeldə ˈbraun ˈbeə]

dedi katta qo‘ng‘ir ayiq, –

[aɪ wʊd ˈget ðə ˈbɪgɪst ˈpeə]

Men eng katta nokni olardim,

[ðæt ɪz ˈhæŋɪŋ ɪn ðɪ ˈeə]

qaysiki havoda osilib turgan”.

[ˈɪf ju: ˈdu:nɒt ˈsɔɪl maɪ ˈheə]

“Agarda sen mening junimni iflos qilmasang”, –

[ˈsed ðɪ ˌjʌŋgə ˈlɪtl ˈbeə]

dedi kichkina ayiq, –

[aɪ wɪl 'sə:v ju: 'æz ə'tʃæ]

Men senga stul bo'laman,

[ænd ju: kən 'get ðə 'bɪgɪst 'pæ]

va sen eng katta nokni ololasan".

II. IV topshiriqqa kalit.

1. Xyu tomonidan yozilgan she'r yaxshi emasdi.
2. Pollining she'ri eng yaxshi edi.
3. "Qanday yangiliklar bor?" – so'radi Deyil xonim.
"Hech qanday yangilik yo'q", – javob qildi janob Deyil.
4. Sem yangi darsliklari haqida butunlay unutdi.
5. Nega u bu qadar kuchli hayajonda? – Chunki u g'olib.
6. Men u yerga hoziroq boraman.
7. Menga xalaqit bermang!
8. Urishishni bas qiling? Sizga nima bo'ldi?
9. Bema'ni gaplarni gapirma!
10. Polli mukofotni yutib oldimi? – Ha, u mukofotni yutib oldi.

III. V topshiriqqa kalit.

1. Stop chattering! It isn't nice!
2. Whom do people call a chatterbox? People call a girl who speaks too fast a chatterbox.
3. It isn't nice to boast!
4. I really have no time.
5. We like pancakes very much.
6. For shame! You always forget to wash your hands.
7. Go to the bath-room and wash your face too.
8. If I have money, I shall go to the cinema.
9. If you give me your book, I'll do my lessons.
10. Mrs. Dale could not go with them, as she was ill.

IV. VI topshiriqqa kalit.

1. O'qituvchimizni kecha kim ko'rdi (saw)? – Sem ko'rdi (did).

2. Ular uyga soat 11 da kelishdi (came).
3. O'quvchilar juda qiyin diktantni 20 daqiqada yozib bo'lishdi (wrote).
4. Mukofotni o'g'il bola emas, qiz bola yutib oldi (won).
5. Qarag'ay tanasi shunday yalang'och ediki (was), ular unga chiqa olishmadi (could not).
6. Kecha oralaringizdan kim mening qalamtaroshimni topdi (found)?
7. Bolalar kitoblarini yopishdi (shut) va daftarlarini ochishdi (opened).
8. U mushukni to'siqdan oshib o'tishiga yo'l qo'yib berdi (let).
9. Odam katta non bo'lagini kesib olib (cut off), unga sariyog' surtdi (buttered it) va uni cho'ntagiga soldi (put).
10. Kim sizga bunday yangilikni aytdi (told)?

V. VIII topshiriqqa kalit.

Topishmoq so'z o'yini asosiga qurilgan.

Qaysi quti yuradi va gapiradi?

Javob: **a chatterbox** – vaysaqi, ezma

VI. 17-darsga tushuntirish.

- 1) Ingliz tilida fe'ning maxsus shakli mavjud bo'lib, gerundiy deb ataladi. (**Gerund** ['dzerənd]). Gerundiy o'zbek tiliga yoki fe'ning noaniq shakli, yoki harakat nomi bo'lib tarjima qilinadi.

Gerundiy to yuklamasisiz fe'ning noaniq shakli **+ing** tugallanmasidan yasaladi.

Masalan:

to read – **reading** – o'qimoq, o'qish

to jump – **jumping** – sakramoq, sakrash va boshq.

Aniq fe'llardan keyin vositasiz to'ldiruvchi sifatida fe'ning noaniq shakli emas, balki faqat **gerundiy** turishi mumkin.

Masalan:

avoid – qochmoq

stop – to'xtatmoq

finish – tugatmoq

excuse – kechirmoq

go on – davom ettirmoq

mind – qarshilik qilmoq,

give up – to'xtatmoq

e'tiroz bildirmoq

(va yana ayrimlari)

Avoid **using** that word.

Bu so'zni *ishlatishdan* saqlan.

Stop **helping** him!

Unga *yordam berishni* bas qil!

Go on **reading**!

O'qishni davom ettir.

Why does your father refuse to give up **smoking**?

Nega sening otang *chekishni* tashlashni istamaydi?

Please excuse my **troubling** you!

Sizni *bezovta* qilganim uchun uzr!

Do you mind my **speaking** so loud?

Meni bunday baland *gapirishimga* siz qarshi emasmi-siz?

2) Shart ergash gaplar.

Shart ergash gaplar bosh gap bilan **if** bog'lovchisi yordamida bog'lanadi. Shart ergash gaplar real va noreal ergash gaplarga bo'linadi va ular hozirgi va o'tgan zamonda ishlatiladi.

Masalan:

Present Simple (*Hozirgi zamon*)

Bu amalga oshishi mumkin bo'lgan gap:

I shall work in the garden, if I come home early.

yoki If I come home early, I shall work in the garden

Agar men uyga vaqtli *kelsam*, bog'da ishlayman.

Quyidagi gap esa amalga oshmaydi, bu faqat orzu-havas, bu ham hozirga zamonga tegishli, lekin noreal gap:

If I came home early today, I should work in the garden.

Agar men uyga vaqtli kelganimda edi, bog'da ishlagan bo'lardim.

O'tgan zamonga tegishli bo'lgan orzu-havas; bu umuman amalga oshmaydi.

If I had come home early yesterday, I should have worked in the garden.

Agar men kecha uyga barvaqt kelganimda edi, bog'da ishlagan bo'lardim.

- 3) Sifatlarning birmuncha keng tarqalgan so'z yasovchi qo'shimchalari **-ful** va **-less**. **Ful** sifatda mazkur sifatning mavjudligini ko'rsatadi:

use+ful – foydali

doubt+ful – shubhali

Less sifatda mazkur sifatning yo'qligini ko'rsatadi:

hope+less – umidsiz

help+less – ojiz

- 4) Ba'zan **do** yordamchi fe'li tasdiq gapda qo'llaniladi. Bu holatlarda u odatda *iltimos*, *qani* deb tarjima qilinadi.

Masalan:

Do come to see us on Sunday!

Iltimos, yakshanba kuni biznikiga keling!

Stop crying, **do**!

Qani, yig'lashni bas qil!

- 5) **news** [nju:z] – *yangilik* so'ziga doimo birlik sondagi fe'l mos keladi.

Masalan:

The **news** that he told us was very good.

Uning bizga aytgan yangiligi juda yaxshi edi.

VII. 17-darsga mashq uchun mashg'ulot.

1. My friend is going to write a book.

1. Mening do'stim kitob yozmoqchi.

- | | |
|---|--|
| <p>2. What are you going to do?
We are going to make pancakes.</p> | <p>2. Siz nima qilmoqchisiz?
Biz quymoq tayyorlamoqchimiz.</p> |
| <p>3. Let's make them right now!</p> | <p>3. Keling uni hoziroq tayyorlaymiz!</p> |
| <p>4. Don't enter that room!
Polly is writing her poem there.</p> | <p>4. Anavi xonaga kirma!
Polli u yerda o'zining she'rini yozyapti.</p> |
| <p>5. Don't bother your poor mother, let her alone!</p> | <p>5. Bechora onangizning joniga tegmang, uni tinch qo'yning!</p> |
| <p>6. I'll do it right now!</p> | <p>6. Men buni hoziroq qilaman!</p> |
| <p>7. Will you take those plates away?</p> | <p>7. Sen bu likoplarni yig'ishtirib olasanmi?</p> |
| <p>8. Why didn't you come last Wednesday?
We could not, we had no time.</p> | <p>8. Nega siz o'tgan chorshanba kelmadingiz?
Kelolmadik, bizning vaqtimiz yo'q edi.</p> |
| <p>9. Children, stop running about the room!</p> | <p>9. Bolalar, xona bo'ylab yugurishni bas qiling.</p> |
| <p>10. I can't work any more.</p> | <p>10. Men ortiq ishlay olmayman.</p> |
| <p>11. Only listen to her!
What is she talking about?</p> | <p>11. Faqat uni eshiting!
U nima haqida gapiryapti?</p> |
| <p>12. Stop shouting!</p> | <p>12. Qichqirishni bas qiling!</p> |
| <p>13. Look here! What are you trying to do with that pan!</p> | <p>13. Menga qarang! Siz bu tova bilan nima qilmoqchisiz?</p> |
| <p>14. It's much better to work in the shade, than to lie in the sun.</p> | <p>14. Quyoshda yotgandan ko'ra, soyada ishlagan yaxshiroq.</p> |

15. Wait for him! He'll be here in a minute.
16. Don't open your eyes!
17. What did she say?
I didn't hear.
I didn't hear either.
18. Is that saucer clean?
Yes, it is.
19. You look very bad, are you ill?
Yes, I have a terrible headache.
20. Who was right, Polly or Sam?
Sam was right **that time**.
21. If I have time, I shall go to the South.
22. They will eat all the pancakes if mother only lets them.
23. If you soil your new dress, I shall not let you go to the Christines.
24. If I do not soil it, will you give me some pancakes?
25. It serves you right!
Don't be so greedy!
15. Uni kutib turing! U bir daqiqadan keyin shu yerda bo'ladi.
16. Ko'zingni ochma!
17. U nima dedi?
Eshitmadim.
Men ham eshitmadim.
18. Bu idish tozami?
Ha.
19. Sizning ko'rinishingiz juda yomon, kasalmisiz?
Ha, mening boshim qattiq og'riyapti.
20. Kim haq edi, Pollimi yoki Semmi?
Bu gal Sem haq edi.
21. Agar mening vaqtim bo'lsa, Janubga ketaman.
22. Agar onasi ruxsat bersa, ular hamma quymoqlarni yeb qo'yishadi.
23. Agarda sen yangi ko'y-lagingni kir qilsang, men seni Kristinlarni-kiga borishingga ruhsat bermayman.
24. Agarda men uni kir qilmasam, siz menga quymoq berasizmi?
25. Mana senga! (Sen shunga loyiqsan!) Bunchalik ochko'z bo'lma!

- | | |
|--|--|
| 26. Do stop shouting!
I can't sleep. | 26. Baqirishni bas qil!
Men uxlay olmayap-
man. |
| 27. Is there any news?

No, there is not. | 27. Qandaydir yangilik bor-
mi?
Yo'q, hech qanday. |
| 28. Why didn't you tell him
about that?
But I did tell him. | 28. Nega sen unga bu haq-
da aytmading?
Men unga aytdim-ku,
axir. |
| 29. Who broke the looking-
glass?
A red-headed boy did. | 29. Kim oynani sindirdi?

Mallasoch bola. |
| 30. Let me take this yel-
low pear instead of the
green one! | 30. Yashil nok o'rniga sa-
rig'ini olishimga rux-
sat bering. |

18-darsga kalit

I. IV topshiriqqa kalit.

1. Tog'dan tushish ancha qiyinroq bo'ldi.
2. Lili o'yinchoqlarini shunday yaxshilab yashira oladi-
ki, Jim ularni hech qachon topolmaydi.
3. Tizzangni qachon urib olding? Qara, u qonayapti.
4. Kecha bizda 6 ta dars bo'ldi, biz insho yozdik.
5. Bola ilonning boshiga urdi.
6. Deyil xonim hech qachon Jimni jazolamasligini Lili
bilardi.
7. Sizga mening manzilimni kim aytdi? – Qo'shnila-
ringiz aytishdi.
8. Maktab sumkamdan kim mening kitobimni oldi? –
Uni men oldim va yashirib qo'ydim.
9. Siz kecha qayerda edingiz? – Men teatrda edim.
10. Bolalar bir nechta maymunjon topib olishdi va yeb
qo'yishdi.

II. V topshiriqqa kalit.

1. Don't laugh at him!
2. Why are you laughing? – We are not laughing, we are only smiling.
3. Hurry up! We are waiting for you!
4. The doll was broken to pieces.
5. She became a doctor.
6. We do not use broken forks or knives.
7. Do you eat tomatoes? – No, I don't. I do not like tomatoes.

III. VI topshiriqqa kalit.

1. Odam deraza oldida o'tirib, o'ynayotgan bolalarga xomush boqardi.
2. U tinch o'tira olmasdi va o'zi haqida ohista kuylay boshladi.
3. Bola katta pishgan olmani oldi va uni yeya boshladi.
4. Ular kuchlarining boricha baqirishardi, lekin baribir biz hech narsa eshitmadik.
5. Seni otang tez-tez jazolab turadimi? – Yo'q, hech qachon.
6. Lili Renidan boshqa hamma itlarni yaxshi ko'rardi.
7. Orqaga o'zingni joyingga qayt, Reni.
8. Dars boshlansa, men sizga aytaman.
9. Siz unga vaqtini aytsangiz, u sizni uyg'otadi.
10. Agar siz she'r yozsangiz men juda mamnun bo'lardim.
11. Bu barcha so'zlarni kim biladi? – Hech kim bilmaydi.
12. Bu mening aybim emasdi.
13. Akangiz bilan tushlik qilgani keling, marhamat!
14. Uning yuragi shunaqa zaifmi? – Aslo.
15. O'jar bo'lma! Quymog'ingni yeb, uxlashga yot.

16. Uyg'a yugur va menga eski tuflimni olib kel! Men yangisida yurolmayapman.

IV. VII topshiriqqa kalit.

Harakat hozirgi vaqtda sodir bo'ladi.

1. U o'qiyapti. Unga xalaqit bermang!
2. Siz yig'layapsizmi yoki kulyapsizmi? – Men kulyapman, albatta.
3. Nega ular anavi daraxtga qarashyapti? Unda ikkita malla olmaxon o'tiribdi.
4. Mushuk o'zining go'shtini yeyapti, unga tegma!
5. Siz nima qilyapsiz? – Men shlapamni kiyapman.
6. Janob Deyil shifokor bilan gaplashyapti, bir daqiqa kutib turing!
7. Mushuklar urishishmayapti, ular o'ynayapti!
8. Oyoq uchida yur, onam uxlayapti!
9. Bolalar qani? – Bolalar kichkina kuchukcha bilan daraxt tagida o'ynayaptilar.
10. Sem nega bunday baland ovozda o'qiyapti? Chunki buvisining qulog'i biroz og'ir.

V. VIII topshiriqqa kalit.

- | | |
|-----------------|-------------------|
| 1) to be late | 11) to come back |
| 2) to be angry | 12) to come in |
| 3) to get angry | 13) to come out |
| 4) to be ill | 14) to come up |
| 5) to be glad | 15) to climb up |
| 6) to cut off | 16) to climb down |
| 7) to run away | 17) to go to bed |
| 8) to wait | 18) to get up |
| 9) to take off | 19) to sit down |
| 10) to put on | 20) to stand up |

VI. IX topshiriqqa kalit.

1. When do you go to school? – We go to school in the morning.

2. What is she doing there? – She is eating pancakes and honey.
3. Are their children always polite? – I can't say that they are very polite.
4. When shall we go to the cinema? – I think that we shall go at seven.
5. Did your friends see these flowers last year? – No they didn't.
6. He could not break their lock.
7. It would be better to do all the lessons right now.
8. If I see her, I'll give her your pen.
9. If he sees her, he will give her his copy-book.
10. It was nine o'clock, and all the children were sitting at the table and drinking milk.

VII. X topshiriqqa kalit.

[wɪ ɑ: 'veri 'lɑ:dʒ 'ðou wɪ 'si:m 'smɔ:l]

Biz juda kattamiz, garchi kichik ko'rinsak ham,

[wɪ 'flaʊt ɔn 'haɪ ænd 'nevə 'fɔ:l]

biz samoda suzimiz va hech qachon qulamaymiz.

[wɪ 'ʃaɪn laɪk 'dʒu:əlz ɪn ðə 'naɪt]

Biz xuddi qimmatbaho tosh kabi kechasi nur sochamiz,

[bʌt ɪn ðə 'deɪ ɑ: 'hɪd frɒm 'saɪt]

ammo kunduzi ko'zdan yashirinamiz.

VIII. XI topshiriqqa kalit.

1. What were you doing when I entered the room?
2. When Mother opened the door, she saw that Jimmy was on his knees near the cupboard.
3. Jimmy was looking straight into his father's eyes and was telling him about the red boy.
4. Polly was looking at her brother with her large grey eyes smiling.

IX. 18-darsga tushuntirish.

1) Past Continuous Tense

[pɑːst kən'tɪnjuəs 'tens]

(O'tgan zamon davom fe'li)

Past Continuous o'tgan zamonning muayyan vaqtida sodir bo'layotgan harakatni ko'rsatadi. O'zbek tiliga **Past Continuous** fe'li o'tgan zamon davom fe'li deb tarjima qilinadi.

Past Continuous **to be** yordamchi fe'lining Past Indefinite (**was, were**) shakli + asosiy fe'lga **-ing** qo'shish bilan yasaladi.

Masalan:

What **were** you **doing** when I rang you up?

Men sizga telefon orqali qo'ng'iroq qilganimda nima qilayotgan edingiz?

Jimmy **was looking** at his enemy with eyes full of tears.

Jim dushmaniga yosh to'la ko'zlari bilan qarayotgan edi.

Barcha fe'llarni ham Continuous Tense da qo'llab bo'lmaydi. His-tuyg'uni (**to feel, to love, to like, to hate, to prefer**) va idrokni (**to see, to hear, to know, to understand, to believe** va boshq.) anglatuvchi fe'llar Continuous Tense da qo'llanilmaydi.

Past Continuous Tense

Tasdiq shakli	So'roq shakli	Inkor shakli
I was reading a book.	Was I reading a book?	I was not reading a book.
He was reading a book.	Was he reading a book?	He was not reading a book.
She was reading a book.	Was she reading a book?	She was not reading a book.

(It was reading a book.) We were reading a book. You were reading a book. They were reading a book.	(Was it reading a book?) Were we reading a book? Were you reading a book? Were they reading a book?	(It was not reading a book.) We were not reading a book. You were not reading a book. They were not reading a book.
--	--	--

Past Continuous da qisqa javoblar quyidagicha tuziladi:

Was he reading a book? – Yes, he was.

No, he was not.

- 2) Ingliz tilida sifat bilan birikkan ko‘plab fe‘llar bo‘lib, o‘zbek tilida ularga quyidagi fe‘llar mos keladi.

Masalan:

to be late – kech qolmoq

to be angry – g‘azablanmoq

to be ill – kasal bo‘lmoq

to be glad – quvonmoq

She is late again. – U yana kechikyapti.

She was angry with her son. – U o‘g‘lidan g‘azablendi.

He is often ill. – U tez-tez kasal bo‘ladi.

I am very glad to see you. – Sizni ko‘rganimdan juda xursandman.

- 3) Ingliz tilida fe‘llardan keyin kelgan predlog va ravishlar fe‘lning ma‘nosini butunlay o‘zgartirib yuboradi.

Masalan:

to put – qo‘ymoq,

ammo

to put on – kiymoq

to put off – olib qo‘ymoq

to put in – qo‘ymoq

to take – <i>olmoq</i> ,	ammo	to take away – <i>olib ketmoq</i> to take off – <i>yechmoq</i> (palto, shapka) to take out – <i>chiqarmoq</i> to take for – <i>kimdir deb o'ylamoq</i>
to look – <i>qaramoq</i> ,	ammo	to look for – <i>qidirmoq</i> to look after – <i>kimgadir qarab turmoq</i>
to get – <i>olmoq</i> ,	ammo	to get up (karavotdan) <i>turmoq</i> to get down – (pastga) <i>tushmoq</i> to get on – (otga) <i>chiqmoq</i> to get off – (otdan) <i>tushmoq</i>
to come – <i>kelmoq</i> ,	ammo	to come back – <i>qaytmoq</i> to come in – <i>kirmoq</i> to come out – <i>chiqmoq</i> to come up – <i>yaqinlashmoq</i>

4) Ingliz tilida bitta gapda faqat bitta inkor turishi mumkin.

Masalan, o'zbek tilida biz shunday deymiz:

Men hech narsani ko'rmayapman.

Ingliz tilida bu holatda yoki

I see **nothing**.

yoki I do **not** see **anything**.

U *hech qanday* kitob olmadi.

He took **no** book.

yoki He did **not** take **any** book.

U yerda *hech kim* yo 'q.

There is **nobody** there.

yoki There is **not anybody** there.

- 5) **sir** [sə:] murojaati qachonki familiya tilga olinmaganda qo'llaniladi.

Masalan: Yes, **sir**. – Ha, *janob*.

Bolalarga nisbatan **sir** qo'llanilganda kinoya, takabburlikni ifodalaydi.

Masalan:

Why do you come so late, **sir**?

Nega buncha kech kelyapsiz, *janob*?

X. 18-darsga mashq uchun mashg'ulot.

- | | |
|--|---|
| 1. The boy turned his head away. | 1. Bola teskari qaradi. |
| 2. Look straight into my eyes! | 2. Ko'zimga tik qara! |
| 3. What did you hit the boy with?
I hit him with a stick. | 3. Bolani nima bilan urding?
Men uni tayoq bilan urdim. |
| 4. Did he cry?
Just a little. | 4. U yig'ladimi?
Ozroq. |
| 5. Why can't you sit still? | 5. Sen nega tinch o'tira olmaysan? |
| 6. Are you angry with me?
No, I am not. | 6. Sizni mendan jahlingiz chiqyaptimi?
Yo'q, g'azablanmadim. |
| 7. Were you angry yesterday?
Yes, I was. | 7. Siz kecha g'azablandingizmi?
Ha, g'azablandim. |

- | | |
|---|---|
| <p>8. Mother, Jimmy broke your cup last night.</p> <p>9. It was not his fault. I put my cup on the chair myself.</p> <p>10. The boy never ate anything but candy.</p> <p>11. She told me something very interesting.</p> <p>12. What did he whisper in his mother's ear?</p> <p>13. She came back holding something behind her back.</p> <p>14. Jimmy came up to his mother.</p> <p>15. Come on, child, come on! Don't be afraid of my dog.</p> <p>16. Her heart beat fast.</p> <p>17. "Catch him! Hold him!" the boy cried with all his might.</p> <p>18. It was such a nasty dog!</p> <p>19. Nobody laughed at him.</p> <p>20. The children did not move from their places.</p> | <p>8. Oyi, Jim kecha kechqurun sizning finjoningizni sindirdi.</p> <p>9. Bu uning aybi emas. Men finjonimni stolga o'zim qo'ygandim.</p> <p>10. Bola konfetdan boshqa hech narsa yemagandi.</p> <p>11. U menga qandaydir juda qiziqarli narsani aytdi.</p> <p>12. U onasining qulog'iga nima deb shivirladi?</p> <p>13. U orqasida nimanidir ushlaganicha qaytib keldi.</p> <p>14. Jimmi onasining oldiga yaqinlashdi.</p> <p>15. Bu yoqqa kel, bola, bu yoqqa! Mening itimdan qo'rqma.</p> <p>16. Uning yuragi tez urardi.</p> <p>17. "Ushlang uni! Tuting uni" – baqirdi bola bor ovozi bilan.</p> <p>18. Bu shunaqa yaramas it ediki!</p> <p>19. Ularning ustidan hech kim kulmadi.</p> <p>20. Bolalar o'z joylaridan qo'zg'alishmadi.</p> |
|---|---|

21. Do you know what a looking-glass is?
Of course, we do.
22. Did you know it when you were little?
Yes, we knew it very well.
23. What does "Simple Simon" mean?
Any boy who is not very clever is called Simple Simon.
24. What was Jimmy doing when the red boy looked into the window?
25. Just at that minute he was lying with his eyes shut.
26. She was still laughing when he opened the door.
27. While Lily was playing with her doll, Roombo ate up all her sweets.
28. While Mrs. Dale was laying the table, Mr. Dale washed his hands.
29. They always fought when they played in the garden.
21. Siz ko'radigan oyna nima ekanligini bilasizmi?
Albatta, bilamiz.
22. Siz kichkinaligingizda buni bilarmidingiz?
Ha, biz buni juda yaxshi bilardik.
23. "Simple Simon" nima degani?
Unchalik aqlli bo'lmagan har qanday bola Simple Simon deb ataladi.
24. Mallasoch bola dera-zaga qarab turganda Jim nima qilayotgandi?
25. Ayni paytda u ko'zlarini yumib yotardi.
26. U (bola) eshikni ochganda u (qiz) haliyam kulayotgandi.
27. Lili qo'g'irchoqlari bilan o'ynayotganda Rumbo uning hamma konfetini yeb qo'ydi.
28. Deyil xonim stol tuzatguncha janob Deyil qo'lini yuvdi.
29. Ular bog'da o'ynaganlarida doimo urishishardi.

30. She was coming upstairs when she saw a big grey cat.
31. Sam was beating Jimmy, when Mrs. Dale came in.
32. On that day they sang and danced from morning till night.
33. In a minute he saw her; she was smiling at him.
34. He smiled at her.
35. Yesterday his eyes looked gloomier than ever.
36. She wanted neither to read nor to write.
37. Which of these boys was ill last week?
That red-headed one.
38. I'm never late.
39. I always come **in time**.
40. Why is she afraid of me?
Oh, no! She isn't afraid of you.
41. Don't be angry with her!
30. U katta kulrang mushukni ko'rganda zinadan tepaga ko'tarilayotgan edi.
31. Deyil xonim kirganda Sem Jimmini kaltaklayotgan edi.
32. Ular o'sha kuni ertalabdan kechgacha qo'shiq aytib, raqsga tushishdi.
33. Bir daqiqadan keyin u uni ko'rdi; u unga jilmayardi.
34. U unga jilmaydi.
35. Kecha uning ko'zlari har qachongidan ham ma'yus ko'rindi.
36. U o'qishni ham, yozishni ham istamadi.
37. Bu bolalardan qaysi biri o'tgan hafta kasal bo'lgandi?
Anavi mallasi.
38. Men hech qachon kechikmayman.
39. Men doimo *vaqtida* kelaman.
40. Nega u mendan qo'rqadi?
O, yo'q, u sizdan qo'rqmaydi.
41. Undan jahlingiz chiqmasin!

42. I'm never angry with anybody.
43. Last night you got very angry when you saw that nasty dog again.
44. Bring me some water, please!
45. Is there any jam for tea?
Yes, there is some.
46. They have no butter.
47. She hasn't got any shoes.
48. Anyone can show you where she lives.
49. We could not find her anywhere.
50. Don't take my book!
Put it back!
51. Polly put in some words when her parents were talking about Jimmy.
52. Never put off till tomorrow what you can do today.
53. Put on your coat, it's very cold today.
42. Meni hech qachon, hech kimdan jahlim chiqmaydi.
43. Kecha kechqurun anavi yaramas itni ko'rib, sizning judayam jahlingiz chiqdi.
44. Menga suv olib kel, iltimos!
45. Choy ichishga murabbo bormi?
Ha, bor.
46. Ularning sariyog'i yo'q.
47. Uning tuflisi yo'q.
48. Uning qayerda yashashini sizga istagan odam ko'rsatishi mumkin.
49. Biz uni hech qayerdan topa olmadik.
50. Mening kitobimni olma! Qaytarib joyiga qo'y!
51. Ota-onasi Jim haqida gaplashayotganlarida Polli bir nechta luqma tashladi.
52. Bugun qila oladigan ishingni hech qachon ertaga qoldirma.
53. Paltoyingni kiy, bugun juda sovuq.

54. If boys put out their tongues at each other, that means they are nasty boys.
55. Lily took a chicken for a duckling.
56. She has never seen ducklings. She pushed the chicken into the water. She took it for a duckling.
57. The horse could not get across the river which was very deep.
58. The cat got down from the tree and ran home.
59. The hunter got off his horse and opened the **gates** [geits] himself.
60. The boy got on a chair and looked out of the window.
61. Children, get up! It's time to go to school.
62. Boys, Mrs. Woodland is going away. Say good-bye to her.
63. Go into my room and bring me the biggest book from my **book-case**.
54. Agar bolalar bir-birlariga tillarini chiqarishsa, bu ularning yaxshi bolalar emasligini anglatadi.
55. Lili tovuqni o'rdak deb o'yladi.
56. U oldin hech qachon o'rdaklarni ko'rmagan-di. U jo'jani suvga haydadi. U uni o'rdakcha deb o'yladi.
57. Ot judayam chuqur bo'lgan daryodan o'ta olmadi.
58. Mushuk daraxtdan tushib, uyga yugurdi.
59. Ovchi otidan tushib, *darvozani* o'zi ochdi.
60. Bola stolga chiqib, oynadan tashqariga qaradi.
61. Bolalar, turinglar! Maktabga borish kerak.
62. Bolalar, Vudlend xonim ketyapti. Unga xayr deb ayting.
63. Mening xonamga borib *kitob javonimdan* eng katta kitobni menga olib kelib ber.

- | | |
|---|--|
| 64. May I go out?
By all means. | 64. Tashqariga chiqsam
maylimi?
Marhamat. |
| 65. Don't stop reading!
Go on! | 65. O'qishni to'xtatmang!
Davom eting. |
| 66. Mother, are you going
away? | 66. Oyi, siz ketyapsizmi? |
| 67. Will you come back to
dinner? | 67. Tushlikka qaytasizmi? |
| 68. I won't leave this
room! | 68. Men bu xonadan tash-
qariga chiqmayman! |
| 69. Listen! Do you hear
the noise? | 69. Eshit! Sen shovqinni
eshityapsanmi? |
| 70. I'm listening with all
my might, but I don't
hear anything. | 70. Men bor vujudim bilan
tinglayapman, ammo,
hech narsa eshitma-
yapman. |

19-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. Oyi, meni kechiring, men buni ortiq qilmayman.
2. Polli judayam qattiq uyaldi.
3. Sen qachondir akulani ko'rganmisan? – Ha, ko'rganman.
4. Sen uni qayerda ko'rgansan? – Men uni rasmda ko'rganman.
5. Uyat emasmi! Shunday katta bola. Uyat emasmi?
6. Akula qanchalik katta bo'ladi? – U anavi divandan katta.
7. Qush juda ko'p pashshani yutishi mumkin.
8. Boyo'g'lilar nima bilan oziqlanadi? – Ular sichqonlar bilan oziqlanadi.

9. Sichqonlar nima bilan oziqlanadi? – Sichqonlar bug‘doy bilan oziqlanadi.
10. Nima haqida shivirlashayapsiz? – Biz sizga aytmaymiz.
11. Siz nahang baliq odamni yeb qo‘yishi mumkinligi haqida eshitganmisiz? – Yo‘q, eshitmaganmiz.
12. Men akula, ilon, kalamush, sichqon, kaltakesak, qora suvarak va qurtlardan juda qo‘rqaman.
13. Sen kaltakesaklardan qo‘rqishing kerak emas. Ular chaqmaydi.

II. IV topshiriqqa kalit.

1. My birthday is on the twenty-third of February.
2. What did she whisper in his ear yesterday? – I didn't hear.
3. The driver shut the door without saying a word.
4. What do birds feed on? – They feed on insects, worms, berries and grain.
5. It was something awful.
6. I am awfully hungry.
7. He was ashamed.
8. Go and change your dress! It is not very clean.
9. "I have never seen one before!" the little girl whispered, looking at the tiger.
10. Can you tell me how many minutes there are in an hour? – There are sixty minutes in an hour.
11. They were very curious and began to ask him lots of questions.

III. V topshiriqqa kalit.

1. The clock has just chimed nine.
Soat endigina to‘qqizga bong urdi.
2. I have forgotten where I put the tickets.
Men chiptani qayerga qo‘yganimni unutmim.

3. We have already fed our pig.
Biz cho'chqachamizni ovqatlantirib bo'ldik.
4. She has received three or four presents this week.
U bu haftada uchta yoki to'rtta sovg'a oldi.
5. He has not forgiven his son yet.
U hali o'g'lini kechirgani yo'q.
6. Jimmy has swallowed a pea, and his mother is awfully upset now.
Jim no'xat donasini yutib yubordi, va uning onasi bundan juda xafa.
7. He has not yet written one line.
It was Jimmy who saw him first.

Aynan Jimmi uni birinchi bo'lib ko'rdi.

3) **Ma'lumki, must** – *kerak* fe'li faqatgina hozirgi zamon-da qo'llaniladi. Qolgan barcha zamonlarda u tegishli zamonda tushlangan *have to* fe'li bilan o'rin almashadi. Ammo *kerak emasdi* (fe'l o'tgan zamonda inkor shaklda

bo'lishi kerak) ifodasiga **should not have + Past Participle** dagi asosiy fe'l mos keladi.

Masalan:

You **should not have given** her the book without my permission.

Sen mening ruxsatimsiz unga kitobni berishing kerak emasdi.

VIII. Lesson 35. Review Exercises.

1. She held her breath.
2. Maybe we have time to have a cup of tea before we leave.
3. The wind may change any moment.
4. Take my umbrella. Don't you see it's still raining?
5. The cornice must be very slippery.
6. A woman slipped and fell down.
7. "It isn't polite to say *Shut up!*" Mrs. Dale said.
8. Meanwhile the boy was steadily creeping along the slippery narrow log.
9. "You can't climb that tree!" Jimmy cried.
1. U nafas chiqarmay tur-di.
2. Balki, biz ketish oldidan bir finjon choy ichishga ulgurarmiz.
3. Shamol yo'nalishi istalgan daqiqada o'zgarishi mumkin.
4. Mening soyabonimni ol. Haliyam yomg'ir yog'ayotganini ko'rmayapsanmi?
5. Karniz judayam sirpanchiq bo'lishi kerak.
6. Ayol toyib ketdi va yiqildi.
7. "*O'chir* deyish odobdan emas!" – dedi Deyilxonim.
8. Bu vaqtda bola tor, sirpanchiq xodadan zo'r berib emaklardi.
9. "Sen bu daraxtga chiqa olmaysan!" – baqirdi Jimmi.

10. I hope we shall be able to get there in time.
11. She should not have gone swimming that day.
12. I should like to swim in the Black Sea.
13. Turn the light on, it's getting dark!
14. Mammy, you have forgotten to boil the kettle.
15. Put the kettle on the **gas cooker!**
16. Is the kettle boiling? If so, turn the gas off!
17. Don't sit on the wet ground, you may catch cold!
18. Who is this dirty boy that's just climbing over the fence?
Oh, it's not a boy, it's a girl.
19. Whose girl is she? – She's doctor Christine's daughter.
20. If you're naughty, I'll tell Daddy and he'll slap you all right.
10. Biz u yerga o'z vaqti-da yetib boramiz, deb umid qilaman.
11. U o'sha kuni cho'milishga borishi kerak emasdi.
12. Men Qora dengizda suzishni xohlardim.
13. Qorong'i tushyapti, chiroqni yoq!
14. Oyi, siz chovgunni qaynatishni unutdingiz.
15. Chovgunni *gaz plitaga* qo'y!
16. Chovgun qaynayaptimi? Agar qaynayotgan bo'lsa, gazni o'chir!
17. Nam yerda o'tirma, shamollab qolishing mumkin!
18. To'siqdan oshib o'tayotgan anavi kir bola kim?
O, u bola emas, u qiz.
19. U kimning qizi? – U janob Kristinning qizi.
20. Agarda quloqsiz bo'lsang, dadangga aytaman va u seni boplab ta'ziringni beradi.

21. I'm not afraid of Daddy! He never punishes me.

21. Men dadamdan qo'rqmayman! U hech qachon meni jazolamaydi.

36-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. Siz qachondir qizil kaltakesaklarni ko'rganmisiz? – Yo'q, ko'rmaganman, lekin ular haqida o'qiganman.
2. Kaltakesaklar – hayvonmi yoki qush? – Ular hayvon ham emas, qush ham emas.
3. Ular nima? – Ular sudralib yuruvchilar.
4. Odamlar tug'ilgan kunda nima deyishadi? "Tug'ilgan kuning bilan tabriklaymiz!" – deyishadi.
5. Hamma yaxshiliklarni tilayman!
6. Sepkilli bola Jimmining e'tiborini tortdi.
7. Jimmi unga umuman e'tibor qilmadi.
8. Sen ingichka xoda bo'ylab daryo ustidan o'ta olasanmi? – Yo'q, o'ta olmayman; men doimo muvozanatni yo'qotib qo'yaman.

II. IV topshiriqqa kalit.

1. Have you ever seen a fire? – Yes, I saw a big fire last summer.
2. Father has come, I hear his voice.
3. As soon as the dog appeared, the cat disappeared.
4. They pushed their way through the crowd with great difficulty.
5. What's wrong? Why is this boy crying?
6. Do you know that today is my birthday? – Oh, I wish you many happy returns of the day!
7. Happy New Year to all of you! – The same to you!
8. Would you like to be a heroine? – Yes, of course.

III. V topshiriqqa kalit.

Hazil

Sem: Endi, Jimmi, tangangni stolga mening chaqam yoniga qo'y.

(Jim tangani stolga qo'yadi.)

Sem: Hozir men senga bir nechta savol beraman. Agarda sen *ha* yoki *yo'q* deb javob bersang sening tangang meniki bo'ladi, aks holda mening tangam seniki bo'ladi. Sen bu hazilni bilasanmi?

Jim: Yo'q.

Sem *(Jimning tangasini olaturib):* Ko'rdingmi, sen yutqazding.

IV. VI topshiriqqa kalit.

- | | |
|--|--|
| 1. I'm ashamed of you.
Men sendan uyalaman. | 8. I can't forget it.
Men uni unuta olmayman. |
| 2. I'm hot.
Men isib ketyapman. | 9. She could not help laughing.
U kulmasdan turolmadi. |
| 3. Take off your coat!
Paltoyingni yech. | 10. It's time to go to bed!
Uxlash vaqti bo'ldi! |
| 4. She forbade him to go.
U uning ketishini taqiq-ladi. | 11. Turn off the light, please!
Chiroqni o'chir, iltimos! |
| 5. He was such a silly boy.
U shunaqa ahmoq bola edi. | 12. Did he break his promise?
U va'dasini buzdimi? |
| 6. Are your hands clean?
Qo'llaring tozami? | 13. We fell asleep late.
Biz kech uxladik. |
| 7. They have found my book.
Ular mening kitobimni topishdi. | 14. He lost sight of him.
U uni ko'zdan yo'qotdi. |

15. His shoes were wet.
Uning tufflisi ho‘l edi.
16. He is a coward.
U qo‘rqoq.
17. He is a naughty boy.
U injiq bola.
18. He hid in front of your house.
U uyingiz oldida yashirindi.
19. The rain stopped at four.
Yomg‘ir soat to‘rtida tindi.
20. We saw a thin cloud of dust.
Biz (siyrak) chang bulutini ko‘rdik.

V. VII topshiriqqa kalit.

1. I'm ashamed of you.
2. You look like a dirty little pig.
3. And it was true; she looked more like a boy than like a little girl.
4. "I would destroy all the detective books if I only could," cried Mr. Christine angrily. (*Bu yerda books = comics.*)
5. I'm ashamed to have such a daughter!
6. I forbid you to play with them any more!
7. I forbid you to climb over the fences!
8. He forbade her to leave the room.
9. Jimmy had to be sent to school last year.
10. He pushed her into the room, slammed the door behind her, turned the key and putting it into his pocket, went to the Dales.

VI. 36-darsga tushuntirish.

Ingliz tilida noreal sharoitning shartli gaplari mavjud bo‘lib, ular o‘zbek tilidagi istak maylidagi gaplarga mos keladi.

Masalan:

If he had come in time, we should have gone to the cinema.

Agarda u vaqtida kelganda, biz kinoga borgan bo'lardik.

Bunday shartli gaplarning bosh gapida **Future Perfect in the Past**, doimo if bog'lovchisi bilan boshlanadigan er-gash gapida esa **Past Perfect** qo'llaniladi.

Masalan:

He would have returned the book to you if you had come to school.

Maktabga kelganingizda edi, u sizga kitobni qaytarib bergan bo'lardi.

We should have come to the meeting if we had known about it.

Majlis haqida bilganimizda edi, biz kelgan bo'lardik.

Mazkur darsda **Future Perfect in the Past** majhul nisbatda qo'llangan gaplar uchraydi – would have been burnt.

Bu gaplarning barchasi o'zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinadi:

Ko'zoynagini uyda unutib qoldirmaganda edi, uning qizi bu vaqtda tiriklayin yonib ketgan bo'lardi.

VII. Lesson 36. Review Exercises.

- | | |
|--|--|
| 1. The wolf would have eaten the horse that night if the hunter had not killed it. | 1. Ovchi bo'rini o'ldirmaganda edi, u otni yegan bo'lardi. |
| 2. We should not have been late if we had left the house in time. | 2. Siz uyingizdan vaqtida chiqqaningizda edi, biz kechikmagan bo'lardik. |

3. He was filled with admiration for the little girl.
4. The **lad** pushed his way through the crowd of people.
5. If you come early in the morning, we shall go to the Zoo.
6. They got into a tram that started immediately.
7. The people came forward to look at a tiger that had been brought two hours before.
8. Children tried to peep inside the cage.
9. Why did Mr. Christine not want his girl to see the fire?
10. She was too excited and upset.
11. "Where are we going?" she asked in surprise.
12. Lily was still not quite herself.
13. "I'm awfully glad to see you, Lily!" the old woman said.
3. U bu qiz qarshisida zavq-shavqqa to'la edi.
4. *O'smir* odamlar olomoni orasidan yorib o'tdi.
5. Agar sen ertalab barvaqt kelsang, biz hayvonot bog'iga boramiz.
6. Ular chiqqan *tramvay* darhol yurishga tushdi.
7. Odamlar ikki soat avval olib kelingan sherni ko'rish uchun oldinga yurishdi.
8. Bolalar qafas ichkarisiga qarashga harakat qilishdi.
9. Janob Kristin nima uchun qizi yong'inni ko'rishini xohlamadi?
10. U judayam asabiylashgan va hayajonlangan edi.
11. "Biz qayerga ketyamiz?" – so'radi u ajablanib.
12. Lili haliyam butunlay o'ziga kelmadi.
13. "Men seni ko'rganimdan nihoyatda xursandman, Lili!" – dedi kexsa ayol.

- | | |
|--|--|
| <p>14. I've never been so glad in all my life!</p> <p>15. The house was all in flames.</p> <p>16. It was the biggest fire Jimmy had ever seen in his life.</p> <p>17. The firemen came too late; the house was burnt.</p> <p>18. Let's go out and talk!</p> <p>19. She would have liked him to be quieter.</p> <p>20. We should like them to come here as soon as possible.</p> <p>21. I want you to stay at home.</p> <p>22. Her father did not want us to play in the river.</p> <p>23. He heard us singing a new song.</p> <p>24. Mother saw the boy jump into the water.</p> <p>25. She felt bad last week.</p> <p>26. If you put your shoes on the hot stove, they will be burnt.</p> | <p>14. Men butun hayotim mobaynida bunchalik xursand bo'lmagandim!</p> <p>15. Uy butunlay alanga ichida edi.</p> <p>16. Bu Jimmi hayotida ko'rgan eng katta yong'in edi.</p> <p>17. O't o'chiruvchilar judayam kech kelishdi; uy yonib bo'lgandi.</p> <p>18. Ketdik tashqariga chiqamiz va gaplashamiz.</p> <p>19. U uning tinchroq bo'lishini xohlardi.</p> <p>20. Biz ularning bu yerga iloji boricha tezroq kelishini xohlardik.</p> <p>21. Men sening uyda qolishingni xohlayman.</p> <p>22. Bizning daryoda o'ynashimizni uning otasi xohlamasdi.</p> <p>23. U bizning yangi qo'shiqni kuylaganimizni eshitdi.</p> <p>24. Ona bolaning suvga sakraganini ko'rdi.</p> <p>25. U o'tgan hafta o'zini yomon his qildi.</p> <p>26. Agarda sen tuflingni qaynoq pechkaga qo'ysang u yonib ketadi.</p> |
|--|--|

37-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. Can you master English in a year?
2. She promised to give me her little puppy for good.
3. Let us go there at once!
4. You must write difficult words at least ten times.
5. In order to master English spelling you must try very hard.
6. The more I write, the better my spelling becomes.
7. When did Mother come home? – She came an hour ago.
8. Jimmy was the worst pupil in his form.

II. IV topshiriqqa kalit.

- | | | |
|---------------------------|-----------------|-----------------|
| 1) by the way | 5) at last | 10) fortunately |
| 2) as quickly as possible | 6) of course | 11) gladly |
| 3) as soon as | 7) for instance | 12) what a pity |
| 4) at least | 8) not at all | 13) besides |
| | 9) instead of | 14) suddenly |

III. V topshiriqqa kalit.

- | | |
|-------------------|---------------|
| 1) o'quvchi bola | 6) suzuvchi |
| 2) o'quvchi qiz | 7) o'quvchi |
| 3) o'quvchilar | 8) tarjimon |
| 4) maktab hovlisi | 9) qo'shiqchi |
| 5) o'quv yili | |

IV. VI topshiriqqa kalit.

Arifmetika darsida

“Lili, agar men senga ikkita tanga bersam, dadang esa uchta tanga berganida senda jami nechta bo'lardi?”

“Yettita”, – javob berdi Lili.

“Sen meni tushunmading, Lili. Endi eshit, men savolni

takrorlayman. Agar men senga ikkita tanga bersam, dadang esa uchta tanga berganida senda jami nechta bo'lardi?"

"Yettita", – javob berdi Lili yana.

"Men senga hayronman, Lili, – dedi o'qituvchi. – Sen qanday qilib yettita tangaga ega bo'larding?"

"Mening cho'ntagimda ikkitasi bor-da", – dedi Lili.

V. 37-darsga tushuntirish.

one noaniq olmoshi qandaydir noaniq shaxsni anglatish uchun qo'llaniladi.

Masalan:

One never knows where he can be.

U qayerda bo'lishi mumkinligini hech qachon bilmay-san.

One should always be attentive at the lessons.

Darslarda doimo *diqqatli* bo'lish lozim.

One can easily learn this poem by heart.

Bu she'rni oson yodlash mumkin.

one noaniq olmoshi shuningdek, avval tilga olingan birlik sondagi sanaladigan otni takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun ham qo'llaniladi.

Masalan:

Take my pencil. – Thank you, I have got **one**.

Mening qalamimni oling. – Rahmat, menda (qalam) bor.

I have not got a hammer. I must buy **one**.

Menda bolg'a yo'q. Sotib olishim kerak.

This is a black pencil and that is a red **one**.

Bu qora qalam, anavinisi esa qizil.

one olmoshi ko'plik songa ega – **ones**.

Masalan:

These toys are not good. I want some new **ones**.

Bu o'yinchoqlar yaxshi emas. Men yangilarini xohlayman.

VI. Lesson 37. Review Exercises.

1. There was a score of words written in German on a yellow sheet of paper.
2. Maybe I'll do it myself.
3. Will you copy these lines as quickly as possible?
4. May I have your old textbook for good?

Yes, take it, I don't need it any longer.
5. Are you going there right now?
Yes, we are.
6. I see it by its cover that this isn't my book.
7. Why did she blush when I offered to help her?
8. The setting sun was getting redder and redder.
9. Are you going to be an inventor?
Well, suppose I am. What of it?
10. "A System of Mastering Difficult Words" invented by Lily Christine.
1. Sariq qog'oz varag'ida nemis tilida yozilgan bir talay so'zlar bor edi.
2. Balki men buni o'zim qilarman.
3. Bu qatorlarni iloji bo-richa tezroq ko'chirib olasanmi?
4. Sening eski darsli-gingni butunlay olsam maylimi?
Ha, ol, u menga ortiq kerak emas.
5. Siz u yerga hoziroq bo-rasizmi?
Ha.
6. Bu mening kitobim emas, men buni muqo-vasidan ko'rib turib-man.
7. Men unga yordam ber-moqchi bo'lganimda u nega qizardi?
8. Botayotgan quyosh to-bora qizarib borardi.
9. Sen ixtirochi bo'lmoq-chimisan?
Aytaylik, bo'lmoqchi-man. Unda nima?
10. "Murakkab so'zlarni o'zlashtirish tizimi" Lili Kristin tomoni-dan ixtiro qilingan.

- | | |
|---|---|
| <p>11. "I don't like the title of your work," the Carrot said, "I would change it if I were you."</p> <p>12. Don't be cross! I'm only joking!</p> | <p>11. "Menga ishingning nomi yoqmayapti, – dedi Sabzivoy, – sening o'ringda bo'lganimda uni o'zgartirgan bo'lardim".</p> <p>12. Jahling chiqmasin! Men shunchaki hazil-lashyapman.</p> |
|---|---|

38-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. Siz qaysi tilni o'rganyapsiz? – Men nemis tilini o'rganyapman.
2. Qaysi til oson: ingliz tilimi yoki nemis tili? – Ingliz tili.
3. Nima uchun siz ingliz tilini osonroq deb hisoblaysiz? – Chunki, ingliz tilida hamma narsa va hayvonlar *it* bo'ladi, ayni paytda nemis tilida ular *it* dan tashqari *he* va *she* ham bo'lishi mumkin.
4. Nemis tilidagi rodlarni qanday qilib eslab qolasiz? – Men o'z tizimimni ixtiro qildim.
5. Agar sir bo'lmasa, bizga tizingiz haqida gapirib berolasizmi? – Ha. Men uchta qog'oz varag'ini olaman va ularga ko'plab narsalarning rasmini chizaman.
6. Bu yordam beradimi? – Ha, bu judayam yordam beradi.

II. IV topshiriqqa kalit.

- Xyu:* (kaftida uchta tangani tutib):
Qo'limda nechta tanga bor, Sem?
- Sem:* Uchta.
- Xyu:* Men esa to'rtta deyapman.

Sem: Menga qara, senda uchta ekanini har qanday odam ko'rishi mumkin.

Xyu: Yaxshi, agar men nohaq bo'lsam, menga yarim kron berasanmi?

Sem: Ha, albatta!

Xyu: Unda uni menga ber, negaki men haqiqatan ham nohaqman, bu yerda faqat uchta chaqa bor. Rahmat!

III. V topshiriqqa kalit.

1. I have never seen such a funny animal!
2. Do you like to go to the river in summer?
3. How many toys have you?
4. Jimmy did not like to learn words.
5. I am so glad to see you!

IV. VI topshiriqqa kalit.

1. Have you ever seen a deer?
2. Does Jimmy draw well?
3. Do you know where Lily has put her toys?
4. When did he leave the house?
5. What is your name?
6. How old are you?
7. What is your father?
8. Does your mother work?

V. 38-darsga tushuntirish.

sheep – *qo'y* va **deer** – *bug'u* ko'plik sonda o'z shaklini o'zgartirmaydi.

Masalan: one sheep – two sheep
 one deer – four deer

VI. Lesson 38. Review Exercises.

1. Can you give him a sheet of paper?
2. What does he need it for?
3. If you don't want to be a laughing-stock at school, you must always prepare your lessons.
4. He almost fell off his horse when he heard that whistle.
5. Let me shake both your hands!
6. English spelling is very difficult.
7. There are five vowels in English.
8. Name the English vowels!
9. Put on your raincoat, it's already raining.
10. Why are you so excited?
11. He has lost the bet.
12. I'll never forget those words to the end of my life.
13. They say there won't be any exams this year.
1. Sen unga qog'oz varag'ini berolasanmi?
2. Unga u nima uchun kerak?
3. Agarda maktabda kulgiga qolishni istamasang, sen doimo darslaringni vaqtida tayyorlashing kerak.
4. U bu hushtakni eshitib sal bo'lmasa otdan yiqilayozdi.
5. Qo'lingizni siqishga ruxsat bering.
6. Ingliz tili imlosi juda qiyin.
7. Ingliz tilida 5 ta unli harf bor.
8. Ingliz tilidagi unli larni ayt!
9. Plashingni kiy: yomg'ir yog'yapti.
10. Nega siz bunchalik hayajondasiz?
11. U garovda yutqazib qo'ydi.
12. Men bu so'zlarni umrimning oxirigacha unutmayman.
13. Aytishlaricha, bu yil imtihonlar bo'lmas ekan.

- | | |
|---|---|
| 14. Stop crying and tell me what has happened to you! | 14. Yig'lashni bas qil va nima bo'lganini menga ayt! |
| 15. You can see many deer in the Zoo. | 15. Siz hayvonot bog'ida ko'p bug'ularni ko'rishingiz mumkin. |

39-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. What is your name? – My name is Nickel.
2. What is your first name? – My first name is Emil.
3. Where were you born? – I was born in Germany.
4. In what year were you born? – I was born in nineteen forty-nine.
5. Are your parents German? – My father is German, but my mother is English.
6. What languages can you speak? – I can speak English, German and French.
7. Where did you learn French? – I learnt it at school.
8. What language do you speak at home? – Sometimes we speak German, sometimes English.
9. When do you speak French? – We speak French only on Sundays when my mother's friend comes to see us.
10. What is she? – She is a French teacher.
11. Can you play the piano? – I can, but just a little.
12. How old are you? – I am thirteen.

II. IV topshiriqqa kalit.

1. Don't interrupt me when I am talking to somebody.
2. The whole class was silent; only one girl giggled.
3. Stop crying!
4. Where do you put the words *Mr.* and *Mrs.* when you write? – We put them before the name.

5. Can you give me an example? -- Yes, I can: Mrs. Dale, for example.
6. From this day on, I shall read English books aloud.
7. Is there anybody here who can write the word correctly?
8. Why did the director of the school look severely at the pupils?
9. Because they did not behave at the German lesson.
10. Is it more necessary to know a lot of rules or to know a lot of words?
11. Knowing rules is less necessary than knowing words.

III. V topshiriqqa kalit.

- | | |
|--------------------|------------------------|
| 1) to exclaim | 11) for example |
| 2) to explain | 12) to give an example |
| 3) great | 13) to behave |
| 4) strict, severe | 14) a rule |
| 5) to interrupt | 15) to hope |
| 6) to be silent | 16) to address |
| 7) to keep silence | 17) happiness |
| 8) until | 18) happily |
| 9) to be born | 19) unhappy |
| 10) motherland | 20) many, much |

IV. VI topshiriqqa kalit.

1. Little girls often cry.
2. Do you know that boy?
3. When shall we go to the forest?
4. It is very difficult to write English words correctly.
5. Bring me my hat, Ann, please! Ann, please bring me my hat!

V. VII topshiriqqa kalit.

1. I saw Lily in the garden an hour ago.
2. Jimmy was at Lily's house yesterday.

3. We saw them last Saturday.
4. He will come to our house next week.
5. Polly always prepares her lessons carefully.
6. We have never been to Saint Petersburg.
7. Have you ever seen that man before?
8. Jimmy often plays in the yard with his friends.
9. Where is Sam? – I don't know. I have just spoken to him.

VI. VIII topshiriqqa kalit.

1. U (*muj.r.*) yozuv stolini oyna oldiga qo'ydi, ammo u (*jen.r.*) uni eski joyiga burchakka qaytarib qo'ydi.
2. Ommaviy qichqiriq eshitildi va ular derazadan burqirab chiqayotgan tutun bulutini ko'rishdi.
3. Umuman Deyillar uyda inglizcha gapirishardi, ammo onasining dugonasi kelganda ular odatda fransuzcha gapirishardi.
4. "Bunday yaxshi yangilikni eshitganimdan juda xursandman", degani "buni eshitib xursand bo'ldim" degan ma'noni anglatadi.
5. Uning tug'ilgan kuni munosabati bilan yosh qizlar o'zlari uchun mashhur tikuvchiga ko'ylak tiktirishdi.
6. Urush e'lon qilinmasidan qurolli hujum boshlandi.
7. Soya dukkaklari ko'pincha dukkaklilar yoki kakao donini o'rini bosuvchi sifatida foydalaniladi.
8. Birinchi pardada aktyor va aktrisalar butunlay zarhalli alvon rangda kiyinishgandi.
9. U bolani ko'ksiga bosdi.
10. Tikuvchi ayol – bu ayollar uchun ko'ylak tikadigan chevar.
11. Tikuvchi erkak – bu erkaklar uchun kastum va palto tikadigan odam.
12. Begunoh – aybsiz degani.
13. Ingliz tili talaffuzi ancha qiyin.

fe'li va asosiy fe'l o'rtasida turgan bo'lsa, ish-harakat mazkur gapning shaxsi tomonidan emas, balki boshqa shaxs tomonidan bajarilganini ko'rsatadi.

Masalan:

We **have** *our car repaired* at last.

Biz nihoyat avtomobilimizni *tuzattirdik* (o'zimiz emas, balki ta'mirlash ustaxonasida).

He **has** *his suit made*.

U o'ziga kastum tiktirdi (o'zi emas, tikuvchiga).

VIII. Lesson 39. Review Exercises.

- | | |
|---|--|
| 1. Don't stop reading!
Go on! | 1. O'qishni to'xtatma!
Davom et! |
| 2. Did she put the saucer
on the table or in the
cupboard?
I don't know. | 2. U likopni stolga qo'y-
dimi yoki javonga?

Bilmayman. |
| 3. They will come back
on the second of July. | 3. Ular ikkinchi iyul kuni
ortga qaytib kelishadi. |
| 4. You must finish the
translation on Tuesday. | 4. Siz bu tarjimani se-
shanbada tugatishingiz
kerak. |
| 5. Do turn the light on!
It's already dark. | 5. Iltimos, chiroqni yoq!
Allaqachon qorong'i
tushdi. |
| 6. What did she put on?
She put on her brown
skirt. | 6. U nima kiydi?
U jigarrang yubkasini
kiydi. |
| 7. On what days do you
go to the cinema?
On Saturdays or on
Sundays. | 7. Siz qaysi kunlari kino-
ga borasiz?
Shanba yoki yakshan-
ba kunlari. |

8. Don't listen to him!
Wait until she tells you
the story herself!
9. He was obliged to re-
turn and take his spec-
tacles.
10. I hope everybody is
well?
Yes, everybody is all
right.
11. Do you know what gen-
der the German word
for *window* is?
No, I don't.
12. If you learn German
or French, it is very
important to know the
gender of every noun.
13. Would you be so kind
as to give me that Rus-
sian newspaper?
14. Don't bother! I'll take
the dictionary myself.
15. She speaks very poor
French though she
lived in France.
8. Unga quloq solma!
Uning o'zi bu hikoyani
aytib bergunicha kutib
tur!
9. U qaytib kelib, ko'zoy-
nagini olishiga to'g'ri
keldi.
10. Umid qilamanki, bar-
cha sog'?
- Ha, barcha sog'.
11. Nemis tilida *deraza*
so'zi qaysi roddaligini
bilasizmi?
Yo'q.
12. Agarda siz nemis yoki
fransuz tilini o'rgana-
yotgan bo'lsangiz, har
bir otning rodini bilish
juda muhim.
13. Marhamat qilib, menga
anavi ruscha gazetani
uzatib yubora olmay-
sizmi?
14. Bezovta bo'lmang! Lu-
g'atni o'zim olaman.
15. U garchi Fransiyada
yashagan bo'lsa-da,
fransuz tilida juda
yomon gapiradi.

40-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. Even the director himself could not help smiling, when he met the Carrot in the school-yard.
2. Jimmy's mystery remained unsolved forever.
3. Nobody wanted to explain that puzzling fact to her.
4. She could not sleep for a week after that event.
5. Next day they had to write a composition.
6. He finished copying before the teacher had dictated two or three sentences.
7. He looked at his teacher with wide open eyes.
8. Don't pay any attention to what he is saying!

II. IV topshiriqqa kalit.

1. Nihoyat, bu uzun, zerikarli kun tugadi.
2. U maktabni 1942-yilda tugatgan.
3. Sirli notanish xushmuomalalik bilan bolalarga murojaat qildi.
4. Ular janjallarini o'zlari hal qila olmagach, otalariga murojaat qilishdi.
5. Oyim oyoqyalang yurishimga ruxsat bermaydi.
6. Yakshanba kunlari u bolalarga istaganlaricha o'ynashlariga ruxsat berardi.
7. Ayol judayam hayron edi.
8. Och it ularning orqasidan deyarli eshikkacha yugurdi.
9. Ikkita bo'ri uzoq vaqt ularning orqalaridan kuzatib keldi.

III. V topshiriqqa kalit.

- 1) helpless – yordamga muhtoj
- 2) friendless – o'rtoqsiz, yolg'iz, do'stsiz
- 3) useless – foydasiz
- 4) careless – diqqatsiz, e'tiborsiz
- 5) fearless – qo'rqmas

1) beautiful – go‘zal, chiroyli, ko‘rkam

2) useful – foydali

3) careful – e‘tiborli, diqqatli

4) joyful – quvnoq

5) doubtful – shubhali

1) a worker – ishchi

2) a reader – o‘quvchi

3) a writer – yozuvchi

4) a speaker – notiq

5) a flier – uchuvchi

1) kindness – mehribonlik

2) darkness – qorong‘ilik

3) softness – yumshoqlik

4) goodness – yaxshilik

5) quickness – tezlik

1) happily – xursandchilik

2) quickly – tez

3) bravely – mardlarcha

4) softly – muloyimlik bilan

5) badly – qoniqarsiz, yomon

IV. VI topshiriqqa kalit.

1) red, black, white, green, yellow, blue, brown, grey, lilac, rose;

2) a pine, a birch, a fir, an oak, a tulip, a lily, a lilac, a rose, a daisy, a forget-me-not;

3) a cat, a dog, a horse, a pig, a lion, a bear, a sheep, a deer, a rabbit, a fox;

4) a head, a hand, an arm, a leg, a foot, a neck, a shoulder, eyes, a nose, a mouth;

5) a table, a chair, a cupboard, a sofa, a bookcase, a floor, a door, a ceiling, a wall, a window.

V. 40-darsga tushuntirish.

1. **as usual** – *odatdagidek* ifodasi gap oxirida qo'yiladi.

Masalan:

That morning he drank his coffee **as usual**.

O'sha kuni ertalab u odaticha qahvasini ichdi.

2. Agarda otdan keyin sanoq son keladigan bo'lsa, bu ot oldidan artikl qo'llanilmaydi.

Masalan:

Open your books at page twenty-nine!

Kitobingizni yigirma to'qqizinchi sahifasini oching!

VI. Lesson 40. Review Exercises.

1. How many times a week do you write English dictations at school?

We write them very seldom.

2. How many pupils are there in your form?

There are forty-three.

3. Does your teacher speak English at your English lessons?

Yes, she does.

4. Are you often late to your lessons?

No, I am not.

5. Who wakes you up in the morning?

Mother does.

6. Where would you like to go now?

I should like to go to some unknown country.

1. Maktabda ingliz tilidan haftasiga necha marta diktant yozasiz?

Biz juda kam yozamiz.

2. Sinfingizda nechta o'quvchi bor?

Qirq uchta.

3. Sizning o'qituvchingiz ingliz tili darslarida inglizcha gapiradimi?

Ha.

4. Sen tez-tez darslarga kech qolasanmi?

Yo'q.

5. Seni ertalab kim uyg'otadi?

Oyim.

6. Hozir qayerga borishni xohlarding?

Men birorta noma'lum mamlakatga borishni xohlardim.

- | | |
|---|---|
| <p>7. Now tell me when do we use a question mark?
When somebody asks something.</p> <p>8. Do you often copy from a textbook?
As often as I can. It improves my spelling very much.</p> <p>9. Do you like your teacher?
Yes, we do. She is a kind woman.</p> <p>10. Do you always prepare your lessons?
Yes, I do.</p> | <p>7. Endi menga ayt-chi, so'roq belgisini qachon qo'yamiz?
Kimdir nimadir haqida so'raganda.</p> <p>8. Sen tez-tez darslikdan ko'chirib turasanmi?
Iloji boricha tez-tez. Bu mening to'g'ri yozi-shimni yaxshilaydi.</p> <p>9. Siz o'qituvchingizni yaxshi ko'rasizmi?
Ha. U juda xushfe'l.</p> <p>10. Siz har doim darslaringizni tayyorlaysizmi?
Ha.</p> |
|---|---|

41-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. Mr. Dale was out of work.
2. Lily did.
Lily helped Mr. Dale to find work.
3. Mr. Dale was to go to Africa.
4. Mrs. Dale was not very happy when she learned the news.
5. Lily went to Mr. Trant.
6. Mr. Christine refused to go to Mr. Trant because he thought it was not nice to disturb him a second time.
7. No, he was not.
No, Mr. Dale was not at home.
8. Mrs. Dale was packing his things.
9. Lily shouted because she was proud of herself and happy for Mr. Dale.

II. IV topshiriqqa kalit.

- | | |
|-----------------------|---|
| 1) kim | 12) -dan |
| 2) nima | 13) chunki |
| 3) qachon | 14) -ni uchun |
| 4) qayerda | 15) albatta |
| 5) nima uchun | 16) xuddiki |
| 6) qanday | 17) yo ... yo |
| 7) qancha | 18) na ... na |
| 8) bilanoq,
zahoti | 19) qancha tez bo'lsa shuncha
yaxshi |
| 9) eng kamida | 20) yetarli |
| 10) agarda | 21) yoqmoq |
| 11) keyin | 22) singari; o'xshash, kabi |

III. V topshiriqqa kalit.

1. Has Polly a little brother? Who has a little brother?
2. What is his name?
3. Where do they live?
4. Where does Polly learn?
5. How does she learn?
6. Will she know everything?
7. Does Jimmy learn well? How does Jimmy learn?
8. What does Mother say?

IV. 41-darsga tushuntirish.

- 1) **to have to** fe'li **Present Indefinite** da *majbur, kerak* deb tarjima qilinadi.

Masalan:

You **have to** finish your lessons first, then you may play with your friends.

Sen avval darslaringni tugatishing kerak, undan keyingina do'stlaring bilan o'ynashing mumkin.

We did not **have to** get up early on Sunday.

Bizning yakshanba kuni erta turishimiz shart emasdi.

- 2) **to be to fe'li to have to fe'li** singari *kerak* ma'nosida keladi. Odatda **to be to fe'li kerak** ma'nosida qaysidir ish-harakat haqida oldindan kelishilgan yoki shartlashilgan bo'lgan hollarda qo'llanadi.

Masalan:

I am to go to the station, and my father will wait at home.

Men stansiyaga *borishim kerak*, otam esa uyda kutadi.

Where is Sam? He **was to be** here half an hour ago.

Sem qani? U yarim soat avval shu yerda *bo'lishi kerak edi*.

- 3) Ko'pincha ingliz tilida gapda (*yoki dialogda*) bitta *fe'*ni takrorlamalik uchun faqat **to** yuklamasi qo'yiladi.

Masalan:

Don't drink the milk if you don't want **to**.

Sut ichma, agar (ichishni) xohlamayotgan bo'lsang.

Are you going to visit your aunt? – Yes, I intend **to**.

Sen xolangni ko'rishga bormoqchimisiz? – Ha, bormoqchiman.

VI. Lesson 41. Review Exercises.

- | | |
|---|--|
| 1. I was at his office twice and I think it is not nice to go there a third time. | 1. Men uning idorasida ikki marta bo'ldim, uchinchi marta borish yaxshi emas, deb o'ylayman. |
| 2. His wife was crying when he came into the room. | 2. U xonaga kirganda xotini yig'lardi. |
| 3. His valise had not yet been packed when Lily rushed into the room. | 3. Lili xonaga otilib kirganda uning chamadoni hali joylanmagandi. |

4. The woman pushed the door open and rushed out of the room.
5. He made his decision to go there at once.
6. "What's up?" the woman cried.
7. You frightened me when you slammed the door so suddenly.
8. "Here's a letter for you!" the boy shouted, waving his hands.
9. Would you like to go to Africa?
10. Mr. Dale would like to go anywhere to get a job.
11. Who is asking for help?
12. I don't know but I heard SOS signals.
13. What does SOS mean?
14. It means: Save Our Souls.
15. Is your father in?
No, he is out.
16. Tell him to go to the office as soon as he comes back.
4. Ayol eshikni itardi va xonadan yugurib chiqdi.
5. U yerga darhol borishga qaror qildi.
6. "Nima bo'ldi?" – baqirdi ayol.
7. Kutilmaganda eshikni qarsillatib yopib meni qo'rqitib yubording.
8. "Mana sizga xat!" – baqirdi bola qo'llarini silkitgan.
9. Afrikaga borishni xohlarmidingiz?
10. Janob Deyil ish topish uchun qayerga bo'lsa ham borishga tayyor edi.
11. Kim yordam so'rayapti?
12. Bilmayman, ammo men SOS signalini eshitdim.
13. SOS nimani anglatadi?
14. U bizni jonimizni qutqaring, degan ma'noni anglatadi.
15. Otang ichkaridami?
Yo'q, u chiqdi.
16. Kelishi bilanoq unga idoraga borishini ayting.

- | | |
|---|--|
| 17. I'm so glad you got that job! | 17. Sen ish topganingdan men judayam xursandman! |
| 18. Fetch the key as quickly as possible. | 18. Kalitni iloji boricha tezroq olib kel! |
| 19. The expedition was to start on the thirty-first of May. | 19. Ekspeditsiya 31-mayda yo'lga chiqishi kerak edi. |
| 20. It was a big scientific expedition. | 20. Bu katta ilmiy ekspeditsiya edi. |
| 21. Mr. Dale was to go with the expedition as a mechanic. | 21. Janob Deyil mexanik sifatida ekspeditsiya bilan ketishi kerak edi. |
| 22. All the cars were to be put on board a ship. | 22. Barcha mashinalar paroxod bortiga chiqarilishi kerak edi. |
| 23. The ship was to sail the next Sunday. | 23. Paroxod kelasi hafta suzib ketishi kerak edi. |

42-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

1. Jimmi otasiga o'xshardi.
2. Yo'ldagi qora narsa g'alati hayvonga o'xshardi.
3. U rangpar va horg'in ko'rinardi.
4. O'zingizga ma'qulini qiling!
5. Men kuchukcham bo'lishini xohlardim.
6. U qo'rqqan quyondek qochib ketdi.
7. Ularning bog'ida qirqqa yaqin olma daraxti bor edi.
8. Qushcha xona bo'ylab uchar va qafasiga qaytishni istamasdi.
9. U chor atrofqa qaradi, ammo hech kimni ko'rmadi.
10. Yoningizda pul bormi?
11. Shaharda iflos ko'ylakda yurma!

12. Ular o'z bolalari bilan g'ururlanardilar.
13. Uni hammaning oldida urishishganda u uyalib ketdi.
14. Bola u yerda kun bo'yi o'tirishi kerak edi.

II. IV topshiriqqa kalit.

1. Jimmy was very proud of his father.
2. Mr. Dale became a famous man in his neighbourhood.
3. Mrs. Dale decided to go to the station to see him off.
4. The lorry was loaded with all kinds of cases, bags, parcels and baskets.
5. Polly stood on the porch, waving her hand.
6. Mr. Dale thought that Jimmy was ashamed of crying in public.

III. V topshiriqqa kalit.

1. a) Who often goes to the forest in summer?
 b) Where does he often go in summer?
 c) When does he often go to the forest?
2. a) What did Jimmy like to do with his friends?
 b) With whom did Jimmy like to play?
3. a) Who will buy two new books for us tomorrow?
 b) What will Mother do for us tomorrow?
 c) How many books will Mother buy for us tomorrow?
 d) What will Mother buy for us tomorrow?

V. 42-darsga tushuntirish.

Agarda ish-harakat oldindan shartlangan yoki kelishilgan bo'lsa, **Present Continuous Tense** (*hozirgi zamon davom fe'li*) ko'pincha kelasi zamon o'rnida qo'llanadi.

Masalan:

- Mr. Dale is going away next week.
 Janob Deyil keyingi hafta ketadi.

V. Lesson 42. Review Exercises.

1. You know, he has run away to Africa!
2. Impossible!
You're joking!
3. Good luck! Have a good journey!
4. Write whenever you get the chance!
5. Don't worry!
We'll look after your family!
6. The train is starting in an hour and a half.
7. Listen what I'm going to tell you!
8. They were going to tell him about the expedition.
9. The boy who has a small red nose is Jimmy the Carrot.
10. The dog that is sitting between two baskets is Roombo.
11. The boy and the dog that are sitting in the lorry are going to Africa.
12. Who is the woman with the bright shawl over her shoulders?
13. Never believe gossip!
1. Siz uning Afrikaga qochib ketganini bilasizmi!
2. Bo'lishi mumkin emas!
Siz hazillashyapsiz!
3. Omad tilaymiz! Safaringiz xayrli bo'lsin!
4. Imkoniyatingiz bo'lganda yozing!
5. Xavotir olmang.
Biz oilangizga qarab turamiz!
6. Poyezd bir yarim soatdan keyin jo'naydi.
7. Men senga aytadiganlarimni eshit!
8. Ular unga ekspeditsiya haqida aytishmoqchi edi.
9. Kichkina qizil burunli bola – Jimmi Sabziyoy.
10. Ikkita savat o'rtasida o'tirgan it – Rumbo.
11. Yuk mashinasida o'tirgan bola va it Afrikaga ketishmoqda.
12. Yelkasida yorqin sholro'molli bu ayol kim?
13. Hech qachon mish-mishlarga ishonma!

- | | |
|--|--|
| <p>14. What was their decision?
They decided to continue their scientific work.</p> <p>15. What has he to do with that scientific expedition? – He works as an interpreter there.</p> <p>16. What is the largest desert in Africa? – I think it is the Sahara desert.</p> <p>17. What is Madagascar? – It's a big island to the south-east of Africa.</p> | <p>14. Ularning qarori qanday bo'ldi?
Ular ilmiy ishlarini davom ettirishga qaror qilishdi.</p> <p>15. U anavi ilmiy ekspeditsiyada nima qiladi? – U <i>tarjimon</i> bo'lib ishlaydi.</p> <p>16. Afrikadagi eng katta cho'l qaysi? Sahroyi Kabir deb o'ylayman.</p> <p>17. Madagaskar nima degani? – Bu Afrika Janubi-sharqidagi katta orol.</p> |
|--|--|

43-darsga kalit

I. III topshiriqqa kalit.

sevmoq	yalqovlik qilmoq	yeyishni xohlamoq
qo'rqmoq	uxlashni xohlamoq	tayyor bo'lmoq
kechikmoq	g'azablanmoq	bo'sh bo'lmoq
band bo'lmoq		

1. You are ready, aren't you? – No, not yet.
2. Was he always as lazy as that? – Yes, always.
3. He is fond of reading.
4. The baby is afraid of geese.
5. Don't be late, please!
6. Is he always busy in the evening? – Yes, almost always.
7. Mammy, I'm sleepy! Let's go home!
8. Why are you so angry with him? He is not a bad boy.

9. Give me something to eat, I'm hungry.
10. When will your mother be free tomorrow? – She will be free at four o'clock in the afternoon.

II. IV topshiriqqa kalit.

Yuk mashinasi pristanga kelayotgan vaqtda, Jimmi Sabzivoy mashina orqasida ikkita katta quti o'rtasidagi qandaydir yumshoq narsaga qulay yastanib olgandi. U Lili-ning yo'l chekkasida turganini ko'rdi, ammo uning diqqatini tortishdan qo'rqdi.

Jimmi Lilining oqarib ketganini va lablari titrayotganini ko'rdi. Egnida ko'k yengsiz ko'yilagi bor edi. Moviy lentali ikkita tillarang soch o'rimining uchi uning oftobda qoraygan yelkasiga tushib turardi.

Uning bitta qo'li Jimmining unga yozgan so'nggi xayrlashuv xati bilan birga sovg'asi yashirib qo'yilgan kichkina cho'ntagiga solingan edi.

Bola to'satdan ko'zlariga kelgan yoshni artib tashladi va o'ziga poxolli shlapasi ostidan moviy lentali ikkita tillarang soch o'rini osilib turgan bu kichkina yoqimtoy qizni unutmashlikka va'da berdi.

III. V topshiriqqa kalit.

Yangi ixtiro

Do'sti: Qani, Robson, aeroplaning qanday harakatlanadi?

Ixtirochi: Men hali takomillashtirmagan bitta kichkina detaldan tashqari u deyarli bitdi. Men uni keyinroq qilaman.

Do'sti: U nima?

Ixtirochi: Men istalgan payt yechimini topa oladigan ahamiyatsiz narsa. Mening asosiy ixtiroyim baxtsiz hodisalarning oldini olish uchun aeroplaning ostida u bilan birga boradigan qutqaruv to'ridir. Bu havo kemalari haraka-

tini mutlaqo havfsiz qiladi. Bu to'zni amalga tatbiq etish orqali men uchish ishida inqilob qilaman.

Do'sti: Bordi-yu, aeroplaning bilan nimadir yuz bergan taqdirda yerga qulab ketmasligi uchun bu to'r qanday qilib o'zini ushlab turishi kerak?

Ixtirochi: Men hozircha o'ylab topmagan kichkina dental xuddi mana shu.

IV. Lesson 43. Review Exercises.

1. He promised to bring the finest ostrich feathers for his mother and talking parrot for his friend.
2. You may go to my mother and tell her that I'm safe and sound as well as my faithful dog Roombo.
3. And to you, my dear faithful friend, I'll bring all the treasures of Africa.
4. Would you like to have a little elephant?
Of course, I would.
5. All day long the camels moved over the hot sands of the desert.
6. Jimmy wrote that he would kill a lion and bring the skin to Lily.
1. U onasiga eng yaxshi straus patini, do'stiga esa gapiruvchi to'tiqush olib kelishni va'da qildi.
2. Sen onamning oldiga borib, mening sadoqatli itim Rumbo kabi sog' va salomat ekanimni aytishing mumkin.
3. Senga esa meni yoqimtoy sadoqatli do'stim, Afrikaning barcha xazinasini olib kelaman.
4. Kichkina filchangiz bo'lishini xohlarmidingiz?
Albatta.
5. Tuyalar kun bo'yi cho'lning qaynoq qumlari aro harakatlanishdi.
6. Jimmi sherni o'ldirib uning terisini Liliga olib kelishini yozgandi.

7. "Remember me to all the boys and never part with my little present," the Carrot cried.
8. Jimmy knew that Lily had been at Mr. Trant's office.
9. He painted the statuette and gave it to Lily as a keepsake.
10. Its hair was as red as a carrot, its eyes were as blue as the sky.
11. The girl sighed: this little wooden statuette was all she had left of Jimmy the Carrot.
12. The Carrot had a lot of adventures in Africa.
13. Would you like to know about his adventures and his new friends?
- Yes, we should.
14. Then write to me a long letter in English, and I shall think of it.
7. "Bolalarning hammasiga salom ayt va hech qachon mening sovg'amdan ajralma", -- baqirdi Sabzivoy.
8. Jimmi Lili janob Trantning idorasida bo'lganini bilardi.
9. U haykalchani bo'yadi va Liliga yodgorlik sifatida berdi.
10. Uning sochlari sabzi kabi qizil, ko'zlari xuddi osmon kabi moviy edi.
11. Qizcha xo'rsindi: bu kichkina haykalcha Jimmi Sabzivoydan qolgan yagona narsa edi.
12. Afrikada Sabzivoyning ko'p sarguzashtlari bo'ldi.
13. Uning yangi sarguzashtlari va yangi do'stlari haqida bilishni xohlarmidingiz?
- Ha.
14. Unda menga ingliz tilida uzun xat yozing va men bu haqda o'ylab ko'raman.

MUNDARIJA

BIRINCHI QISM

1 – 39-darslar	3 – 110
O'zgarmas jumlar	111
Ilova (o'qish uchun material)	118

IKKINCHI QISM

1 – 43-darslar	141 – 445
Inglizcha-o'zbekcha lug'at	446
Noto'g'ri fe'llar ro'yxati	509

METODIK KO'RSATMA VA KALITLAR

Metodik ko'rsatmalar	513
Ingliz tili fonetikasi haqida qisqacha ma'lumot	516
Birinchi bo'lim darslariga kalit	520 – 547
Grammatik ma'lumotnoma	548
I. Artikl	548
II. Ot	549
III. Sifat	551
IV. Ravish	552
V. Son	553
VI. Olmosh	553
VII. There is, there are	556
VIII. Fe'l	557
IX. Ingliz tilidagi gapda so'zlar tartibi	562
Ikkinchi bo'lim darslariga kalit	564

Valentina Skulte

Bolalar uchun ingliz tili

2 qismli o'quv qo'llanma

Tarjimon va mas'ul muharrir: dotsent K. Inagamova

Muharrirlar: *N. Jumayeva, D. Tsipushkina*

Musahhihlar: *D. Hotamova, Z. Pazilova*

Dizayner *M. Gadalina*

Muqova dizayneri *A. Fozilov*

Kompyuterda sahifalovchi *D. Tsipushkina*

Nashr. lits. AI № 226, 16.11.2012. Bosishga 01.07.2013-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108^{1/32}. Ofset qog'ozida chop etildi. 27,5 shartli bosma taboq. Adadi 10 000 nusxa. № 13-404/13-613-shartnoma. № 13-613-buyurtma.

«ART FLEX» nashriyoti. 100129, Toshkent, A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.

«AYRIS-press» nashriyoti» MChJ. 129626, Moskva, Mir prospekti, 104-uy.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining "O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30-uy.